O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI

2026-2028
YILLAR UCHUN

FISKAL STRATEGIYA

imv.uz minfinuzb minecofinuz mineconomfin

Mundarija

Qisqartmalar **3**
Jadvallar **4**
Diagrammalar **5**
Kirish **7**
Qisqacha sharh **10**
I. Makroiqtisodiy va fiskal siyosatning 2030-yilga qadar mo‘ljallangan asosiy maqsadlari **14**
II. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlari **16**
2.1. Asosiy makroiqtisodiy va budjet ko‘rsatkichlarining hamda davlat qarzining 2025-yil yakuniga qadar kutilmalari **16**
2.1.1. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning 2025-yil oxirigacha kutilmalari 16
2.1.2. Konsolidatsiyalashgan budjetning 2025-yil yakuni bo‘yicha kutilayotgan ijrosi 20
2.1.3. Davlat qarzining 2025-yil oxirigacha kutilmalari 21
2.2. Jahon va O‘zbekiston iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy tendensiyalar **23**
2.3. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlari va iqtisodiy o‘sish uchun zamin yaratishga qaratiladigan asosiy yo‘nalishlar **25**
2.3.1. Iqtisodiy o‘sish uchun zamin yaratishga qaratiladigan asosiy yo‘nalishlar 25
2.3.2. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlari 32
III. Fiskal barqarorlikni ta’minlash **35**
3.1. Soliq siyosati **37**
3.2. Budjet siyosati **39**
3.3. Davlat qarzini boshqarish **51**
IV. Konsolidatsiyalashgan budjet prognozlari **53**
4.1. Davlat budjeti daromadlari prognozlari va tahlillari **58**
4.2. Davlat budjeti xarajatlarining prognozlari va tahlili **60**
4.2.1. Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnif bo‘yicha prognozlari 61
4.2.2. Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo‘yicha prognozlari 65
4.2.3. Davlat dasturlari uchun ajratiladigan mablag‘lar prognozlari 67
4.2.4. Xarajatlarning “Davlat moliyasi statistikasi-2014” xalqaro standart bo‘yicha tahlili 69
4.2.5. Xarajatlarning BRMM bo‘yicha tahlili 70
4.2.6. Xarajatlarning atrof-muhitga ta’siri bo‘yicha tahlili 72
4.2.7. Xarajatlarning “budjet dasturlari” bo‘yicha tahlili 74
4.3. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining prognozlari **77**
4.4. DMJ hamda TTJ daromadlari va xarajatlarining prognozlari **78**
4.5. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari daromadlari va xarajatlarining tahlili **80**
4.6. Budjetdan ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari **81**
4.7. Yangilangan prognozlarning 2025-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonunida belgilangan budjet ko‘rsatkichlaridan farqi **82**

V. Davlat qarzi prognozlari va maqsadli ko‘rsatkichlari. 84
5.1. Davlat qarzining prognoz ko‘rsatkichlari 84
5.2. Davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar 84
VI. Makro-fiskal xatarlar bahosi 85
6.1. Makroiqtisodiy va fiskal xatarlar 85
6.2. Davlat korxonalari va banklarining moliyaviy holati va transformatsiya jarayonlari 91
6.3. DXSH loyihalarining tahlili 105
VII. Davlat moliyasi tizimini isloh qilish rejalari 116
7.1. Fiskal qoidalarni takomillashtirish 118
7.2. O‘rta muddatli budjetni shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish 119
7.3. Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish amaliyotiga o‘tish 120
7.4. “Davlat moliyasi statistikasi-2014” xalqaro standartiga o‘tish 123
7.5. Budjet ochiqligini ta’minlash va budjetni shakllantirishda fuqarolar ishtirokini yanada oshirish 125
7.6. Budjet xarajatlarini BRMMga uyg‘unlashtirish 127
7.7. “Yashil budjet” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish 128
7.8. Genderga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni bosqichma-bosqich joriy etish 130
7.9. Davlat sektorida ichki nazorat va ichki audit xizmatini takomillashtirish 132
Asosiy tushunchalar 135
Ilovalar

Qisqartmalar

BMTTD	Birlashgan Millatlar tashkilotining taraqqiyot dasturi
BRM	Barqaror rivojlantirish maqsadlari
BRMM	Barqaror rivojlantirish milliy maqsadlari
DIB	Davlat investitsiyalarini boshqarish
DMBAT	Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi
DMJ	Davlat maqsadli jamg‘armalari
DXSH	Davlat-xususiy sherikligi
GFS	Government Finance Statistics (Davlat moliyasi statistikasi)
JST	Jahon savdo tashkiloti
JB	Jahon banki
MTT	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari
OTB	Osiyo taraqqiyot banki
QQS	Qo‘shilgan qiymat solig‘i
TTJ	Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi
XVJ	Xalqaro valyuta jamg‘armasi
XMI	Xalqaro moliya instituti
YIM	Yalpi ichki mahsulot

Jadvallar

1-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha xalqaro tashkilotlar prognozi va milliy prognozlar 24
2-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlari 32
3-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar yangilangan prognozlarining amaldagi ko‘rsatkichlardan farqi 33
4-jadval. Ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdori qo‘shimcha oshirilishining budjetga ta’siri 42
5-jadval. O‘rtacha oylik ish haqi dinamikasi 43
6-jadval. Konsolidatsiyalashgan budjet parametrlari 53
7-jadval. Budjet majburiyatlarini moliyalashtirish manbalari 55
8-jadval. O‘zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan budjet ko‘rsatkichlari milliy prognozining xalqaro tashkilotlar prognozlari bilan taqqoslama jadvali. 56
9-jadval. Davlat budjeti daromadlari 58
10-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining budjet darajalari bo‘yicha tahlili 60
11-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining vazifa tasnifi bo‘yicha tahlili 62
12-jadval. Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi 64
13-jadval. Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo‘yicha yoyilmasi 65
14-jadval. Ijtimoiy soha ish haqi xarajatlari 66
15-jadval. Davlat dasturlari va tadbirlar bo‘yicha jami xarajatlar 67
16-jadval. Budjet subsidiyalari 68
17-jadval. Davlat moliyasi statistikasi GFS-2014 bo‘yicha yoyilmasi 69
18-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash natijalari 72
19-jadval. Atrof-muhitga ijobiy ta’sirga ega xarajatlar 73
20-jadval. 2026–2028-yillar uchun ayrim vazirlik va idoralarning budjet dasturlarining dastlabki ro‘yxati 74
21-jadval. 2025-2026-yillar uchun yangilangan prognozlarning 2025-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonunida belgilangan prognozlardan farqi 82
22-jadval. Tashqi xatarlarning qisqa muddatda ta’siri 90
23-jadval. Moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlil qilingan 26 ta yirik davlat korxonalari ro‘yxati 91
24-jadval. Korxonalarning moliyaviy ko‘rsatkichlari 92
25-jadval. Davlat ishtirokidagi korxonalarning fiskal xatar ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot 94
26-jadval. Xalqaro kredit reytingiga ega davlat ishtirokidagi korxonalar 98
27-jadval. Davlat ulushiga ega banklar ro‘yxati 100
28-jadval. Xalqaro kredit reytingga ega davlat ishtirokidagi banklar 104
29-jadval. DXSH tamoyilidagi imzolangan loyihalar soni 105
30-jadval. DXSH loyihalarining sohalar kesimidagi tahlili 105
31-jadval. 2024-yilda davlat budjetidan DXSH loyihalari doirasida amalga oshirilgan to‘lovlar 109
32-jadval. 2025-2027-yillarda DXSH loyihalari doirasida davlat budjetidan amalga oshiriladigan to‘lovlar bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari 110
33-jadval. DXSH loyihalari doirasida davlat ishtirokidagi korxonalarning to‘lovlari bo‘yicha ma’lumot 110
34-jadval. Muddatidan oldin bekor bo‘lgan DXSH loyihalari to‘g‘risida ma’lumot, 01.01.2025-yil holatiga 111
35-jadval. Xotin-qizlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadlari uchun ajratilgan mablag‘lar 131

Diagrammalar

1-diagramma. Asosiy makroiqtisodiy va budjet koʻrsatkichlarining milliy prognozlari 12
2-diagramma. Oʻzbekiston Respublikasining davlat tashqi qarzi iqtisodiyot tarmoqlari kesimida 21
3-diagramma. Davlat qarzining valyutadagi ulushi, 2025-yil 1-yanvar holatiga 21
4-diagramma. Davlat ichki va tashqi qarzi 22
5-diagramma. Davlat tashqi qarzining kreditorlar kesimida taqsimlanishi 22
6-diagramma. XVJning global iqtisodiy kutilmalari 23
7-diagramma. Ish haqi oʻsish surʼatlari va inflatsiya darajasi 42
8-diagramma. Ipoteka dasturi doirasida jismoniy shaxslarga ajratiladigan mablagʻlar 43
9-diagramma. Kambagʻallik darajasi 45
10-diagramma. 2026-yil uchun konsolidatsiyalashgan budjet tarkibi 54
11-diagramma. Konsolidatsiyalashgan budjet balansi 54
12-diagramma. Taqchillik 55
13-diagramma. 2026-yilda budjet majburiyatlarini moliyalashtirish manbalari 56
14-diagramma. XVJning Oʻzbekiston va uning asosiy hamkor davlatlari budjet koʻrsatkichlari boʻyicha maʼlumoti. 57
15-diagramma. Soliq turlarining jami daromadlar ulushidagi dinamikasi 58
16-diagramma. Davlat budjeti xarajatlari tarkibi 61
17-diagramma. Taʼlim xarajatlari tarkibi 63
18-diagramma. Energo resurslar va jamoat transportida aholini tashish xarajatlarining bir qismini qoplash xarajatlari 63
19-diagramma. Iqtisodiyot sohasi yirik xarajatlari 63
20-diagramma. Iqtisodiy tasnif boʻyicha 2026-yilgi xarajatlar ulushi 66
21-diagramma. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat budjeti xarajatlari 70
22-diagramma. DMJ va TTJ budjetlarining prognozlari 78
23-diagramma. Jami budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamgʻarmalari mablagʻlari 80
24-diagramma. 2026-yilda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamgʻarmalari mablagʻlari manbalari 81
25-diagramma. Oʻzbekiston Respublikasining davlat qarzi dinamikasi 84
26-diagramma. 2024-yilda Oʻzbekistonning Xitoyga tovarlar eksporti tarkibi 86
27-diagramma. Tashqi savdo kanalining taʼsiri 87
28-diagramma. Global inflatsiya oshishining taʼsiri 88
29-diagramma. Jahon iqtisodiyoti va Oʻzbekistonga kiritilgan toʻgʻridan toʻgʻri investitsiyalar 89
30-diagramma. Investitsiyalar kanali taʼsiri 89
31-diagramma. Moliyaviy holati baholab boriladigan yirik davlat ishtirokidagi korxonalar soni 92
32-diagramma. Korxonalarning moliyaviy holati 92
33-diagramma. Davlat korxonalarining tashqi qarzi va ularga taqdim etilgan davlat kafolati 93
34-diagramma. Likvidlik koʻrsatkichlari 94
35-diagramma. Toʻlov qobiliyati koʻrsatkichlari 95
36-diagramma. Daromadlik koʻrsatkichlari 96
37-diagramma. Asosiy moliyaviy koʻrsatkichlar 101
38-diagramma. Davlat banklarining 2024-yil yakuni bilan sof foydasi va uning oʻrtacha kapitalga nisbati 102
39-diagramma. Davlat banklarining sof foydasi va uning oʻrtacha aktivlarga nisbati 102
40-diagramma. Davlat banklari muammoli kreditlari hajmimlrd soʻm 103
41-diagramma. Hududlarda amalga oshirilayotgan DXSH tamoyilidagi loyihalarning sohalar kesimidagi tahlili 106
42-diagramma. Energetika sohasida amalga oshirilayotgan DXSH loyihalarining hududlar kesimidagi tahlili 108
43-diagramma. DXSH loyihalari boʻyicha toʻlovlarning YIMga nisbati 110

44-diagramma. Inflatsiya darajasidagi o‘zgarishlarning DXSH loyihalari bo‘yicha davlat budjetidan ajratiladigan to‘lovlar hajmiga ta’siri....112
45-diagramma. DXSH loyihalari bo‘yicha Davlat budjetidan ajratiladigan to‘lovlarning Davlat budjeti daromadlariga nisbati....113
46-diagramma. DXSH loyihalari bo‘yicha Davlat budjetidan ajratiladigan to‘lovlarning YIMga nisbati....113
47-diagramma. Milliy valyuta kursining AQSH dollariga nisbatan qadrsizlanishining davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan DXSH loyihalari bo‘yicha amalga oshiriladigan to‘lovlar hajmiga ta’siri....114
48-diagramma. Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan DXSH loyihalari bo‘yicha amalga oshiriladigan to‘lovlar YIMga nisbati....115

Kirish

2026-2028-yillar uchun mo‘ljallangan Fiskal strategiya Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 90-moddasi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Fiskal strategiyaning bosh maqsadi o‘rta muddatda fiskal barqarorlikni ta’minlashdan iborat.

Fiskal strategiyada 2026-2028-yillar uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning va davlat budjeti daromadlarining dastlabki prognoz ko‘rsatkichlari keltirilgan.

O‘zbekiston-2030 strategiyasida (46-maqsad) konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik belgilangan.

Fiskal strategiyada davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlarining 2026-yil uchun ishlab chiqilgan dastlabki prognozlari va konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligining yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizlik eng yuqori ko’rsatkichidan kelib chiqib:

- 2026-yil uchun birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga respublika budjetidan ajratiladigan budjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari, shuningdek obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar bo‘yicha xarajatlarning cheklangan miqdorlari;

- mahalliy budjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga respublika budjetidan ajratiladigan transfertlarning cheklangan miqdorlari belgilanmoqda.

Birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilar, mahalliy budjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalari ushbu fiskal strategiya bilan belgilanayotgan Respublika budjetidan ajratilishi belgilangan mablag‘lar va transfertlarning cheklangan miqdorlaridan kelib chiqqan holda, Budjet kodeksining 85 - 92-moddalariga muvofiq 2026-2028-yillar uchun budjet loyihalarini ishlab chiqishda foydalanishlari uchun asos bo‘ladi.

Bunda, mazkur cheklangan miqdorlar kelgusida (Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida) o‘rta muddatli davr uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning aniqlashtirilgan prognozlaridan kelib chiqqan holda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Bundan tashqari, Fiskal strategiyada kelgusi yillar uchun budjet loyihasini tuzishda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan asosiy ustuvor yo‘nalishlar belgilab olingan. Jumladan:

1. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash:

– yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sishini kamida 6 foiz miqdorida ta’minlash;

– mamlakatning suveren kredit reytingini oshirish;

– yalpi ichki mahsulot hajmini 200 mlrd AQSH dollari va aholi jon boshiga daromadlarni 5 ming AQSH dollaridan oshirish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish.

2. Budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish va budjet intizomini kuchaytirish:

– konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik;

– “Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish” amaliyotiga bosqichma-bosqich o‘tishni davom ettirish;

– budjet ochiqligi darajasini yanada kuchaytirish;

– budjet xarajatlarining inklyuzivligini oshirish;

– “gender” va “yashil” budjetlashtirish tamoyillarini budjet jarayoni bilan uyg‘unlashtirish;

– Xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

3. Daromadlar bazasini kengaytirish va soliq siyosatini takomillashtirish:

– to‘lovlarda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish va iqtisodiyotda tovarlar oqimining shaffofligini ta’minlash;

– barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida samarasiz soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish;

– atrof muhit va aholi salomatligini asrash maqsadida yashil soliqqa tortish va uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– soliq siyosatining inklyuzivligini oshirish;

– aholi va tadbirkorlar o‘rtasida soliq to‘lash madaniyatini rivojlantirish;

– soliq va bojxona siyosatini Jahon savdo tashkiloti talablariga uyg‘unlashtirish.

4. Davlat qarzini samarali boshqarish:

– Davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish va valyuta xatarlarini boshqarish;

– 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish orqali davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbati 50 foizdan oshmasligini ta’minlash.

5. Aholi farovonligini ta’minlash:

– aholining real daromadlarini oshirish maqsadida budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va nafaqalarni har yilgi inflatsiya darajasidan yuqori miqdorlarda oshirib borish.

6. Fiskal siyosatning ijtimoiy yo‘naltirilganligini ta’minlash:

– inson kapitaliga budjet xarajatlarining ustuvorligini oshirish, jumladan aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish.

Qisqacha sharh

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni barqaror davom ettirish, jumladan, iqtisodiyotda mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish orqali 2030-yilga qadar iqtisodiyotni milliy strategiyada belgilangan 160 mlrd AQSH dollaridan oshirib, 200 mlrd AQSH dollariga yetkazish maqsad qilinmoqda.

Bu, o‘z navbatida, “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish, aholi jon boshiga daromadlarni 5 ming AQSH dollaridan oshirish orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish, mamlakatimizning suveren reytingi ko‘rsatkichini investitsion darajaga chiqarish va buning natijasida jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish uchun zamin yaratadi.

Ushbu ko‘rsatkichga 2030-yilgacha YIMning yillik o‘sishini kamida 6 foiz, inflatsiyani 5 foiz, budjet taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizdan oshmasligini ta’minlash hamda davlat qarzini mo‘tadil darajada saqlab qolish orqali erishish maqsad qilingan.

Jahon iqtisodiyotida keskin o‘zgaruvchanlik va noaniqlikning saqlanib qolishi sharoitida yuqorida belgilanayotgan maqsadlarga erishish, jumladan, uzoq muddatli istiqbolda makro-fiskal barqarorlikni ta’minlash uchun qat’iy intizomga yo‘naltirilgan fiskal siyosat olib borish talab etiladi.

Mazkur Fiskal strategiya mamlakatni kelgusi davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun xizmat qiladigan Hukumat tomonidan belgilab olingan o‘rta muddatdagi makroiqtisodiy va soliq-budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan.

XVJning joriy yil aprel oyidagi hisobotiga[1] ko‘ra, jahonda mamlakatlar savdo siyosatida kuzatilayotgan keskin o‘zgarishlar global savdo tizimini qayta shakllantirmoqda va jahon iqtisodiyotida noaniqlikni kuchaytirmoqda.

Ushbu hisobotda jahon iqtisodiyoti o‘sishi 2025-yilda 2024-yildagi 3,3 foizdan 2,8 foizgacha pasayishi hamda 2026-yilda 3 foizni tashkil etishi (*XVJning 2024-yil oktabrdagi hisobotida[2] 2025-2026-yillarda o‘sish prognozi tegishincha 3,2 foiz va 3,3 foiz*) prognoz qilingan.

[1] https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2025/04/22/world-economic-outlook-april-2025
[2] https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2024/10/22/world-economic-outlook-october-2024

Bunda, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining o‘sishi 2025-yilda 2024-yildagi 1,8 foizdan 1,4 foizgacha pasayishi hamda 2026-yilda 1,5 foizni tashkil etishi prognoz qilingan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda 2025–2026-yillarda o‘sish sur’ati 2024-yildagi 4,3 foizdan mos ravishda 3,7 va 3,9 foizgacha pasayishi prognoz qilingan.

Shuningdek, global inflatsiya 2025-yilda 2024-yildagi 5,7 foizdan 4,3 foizga, 2026-yilda 3,6 foizgacha pasayishi prognoz qilingan.

XVJning mazkur hisobotida O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sishi 2025-yilda 5,9 foiz (*2024-yil oktabrdagi prognoz – 5,7 foiz*), 2026-yilda 5,8 foiz miqdorida prognoz qilingan.

Xalqaro tashkilotlarning jahon va O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlari bilan mazkur strategiyaning 2.2-kichik bo‘limida tanishish mumkin.

Milliy prognozlarga ko‘ra, davom etayotgan murakkab geosiyosiy va tashqi iqtisodiy vaziyatlarga, shuningdek, dunyoning rivojlangan davlatlari savdo siyosatidagi tebranishlarga qaramasdan O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sish prognozlari qayta ko‘rib chiqilganda, joriy yilda 6,2 foiz, 2026-yilda 6,1 foiz, 2027-yilda 6,3 foizni hamda 2028-yilda 6,1 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Bunda, sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati 2026-yilda 6,3 foizni, 2027-2028-yillarda tegishincha 6,5 foiz va 6,2 foizni, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati 2026-yilda 4,2 foizni, 2027-2028-yillarda 4,3 foizni hamda bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati 2026-yilda 13,6 foizni, 2027-yilda 14,3 foizni va 2028-yilda 15,1 foizni tashkil etishi prognoz qilingan.

Uzoq muddatli fiskal maqsadlar va makroiqtisodiy istiqbollardan, jumladan, o‘rta muddatda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik vazifasidan kelib chiqib, 2026-yilda konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 509,8 trln so‘m yoki YIMga nisbatan 26,1 foiz, xarajatlari prognozi 568,6 trln so‘m yoki YIMga nisbatan 29,1 foiz miqdorida prognoz qilinmoqda.

Mazkur Fiskal strategiyada avvalgi yillardan farqli ravishda Davlat budjeti xarajatlari tarkibi XVJning GFS–2014 standartiga muvofiq Davlat funksiyalarini tasniflash mezoni (Classification of the Functions of Government) asosida ishlab chiqildi (4.2.1-kichik bo‘lim).

1-diagramma. Asosiy makroiqtisodiy va budjet ko‘rsatkichlarining milliy prognozlari

O‘rta muddatda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi bo‘yicha kiritilgan budjet qoidasiga amal qilish orqali budjetni qo‘llab-quvvatlash uchun jalb qilinadigan tashqi qarzlarni joriy yilgi miqdorlarda saqlab turish, davlat tashqi qarzlarini, asosan, infrastruktura loyihalariga jalb qilish orqali davlat qarzining YIMga nisbatan o‘sishining oldini olish choralari ko‘riladi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hamda budjet parametrlarining prognozlari global iqtisodiy noaniqliklar va geosiyosiy ziddiyatlar saqlanib qolinishi sharoitida tashqi va ichki xatarlar kelib chiqishi mumkinligini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

Jumladan, mazkur strategiyaning VI bo‘limida makroiqtisodiy va budjet ko‘rsatkichlarining yuqoridagi maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishda xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan xatarlar ta’sirining hamda DXSH loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan davlatning fiskal majburiyatlari va davlat korxonalari moliyaviy holatining sharhi keltirilgan.

Uzoq muddatli maqsadlarga erishishda davlat moliyasi tizimini yanada takomillashtirish hamda natijadorlikka asoslangan budjet tizimini joriy etish ishlarini jadallashtirish maqsadida xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan 2025–2030-yillarda Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori bilan tasdiqlandi.

Budjet tizimi budjetlari samaradorligi va natijadorligini oshirish maqsadida dasturiy budjetlashtirish tizimining keyingi bosqichida vazirlik hamda idoralarning budjetlarini “budjet dasturlari” kesimida shakllantirish tartibi joriy etilmoqda.

Bunda, 2025-yilda Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining budjetlari to‘liq o‘rta muddatli davr uchun “budjet dasturlari” kesimida ishlab chiqilgan bo‘lsa, 2026-yildan boshlab qo‘shimcha 6 ta vazirlik va idoralarning budjet xarajatlari “budjet dasturlari” kesimida rejalashtiriladi.

Bundan tashqari, mazkur Fiskal strategiyada o‘rta muddatda yashil budjetlashtirish islohotlarining davomi sifatida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan choralar, jumladan, “yashil” tasniflash jarayonini davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimida avtomatlashgan holda amalga oshirish, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda “yashil” budjetlashtirishni davlat moliyasini boshqarish tizimiga uyg‘unlashtirish bo‘yicha qisqa, o‘rta va uzoq muddatdagi rejalarni o‘z ichiga olgan konsepsiya bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

I. Makroiqtisodiy va fiskal siyosatning 2030-yilga qadar mo‘ljallangan asosiy maqsadlari

O‘zbekiston–2030 strategiyasiga muvofiq, makroiqtisodiy va fiskal siyosatning 2030-yilga qadar mo‘ljallangan asosiy maqsadlari quyidagilar:

1. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash:

– YIMning yillik o‘sishini kamida 6 foiz miqdorida ta’minlash;

– mamlakatning suveren kredit reytingini oshirish;

– YIM hajmini 200 mlrd AQSH dollari va aholi jon boshiga daromadlarni 5 ming AQSH dollaridan oshirish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish.

2. Budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish va budjet intizomini kuchaytirish:

– konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik;

– “Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish” amaliyotiga bosqichma-bosqich o‘tishni davom ettirish;

– budjet ochiqligi darajasini yanada kuchaytirish;

– budjet xarajatlarining inklyuzivligini oshirish;

– “gender” va “yashil” budjetlashtirish tamoyillarini budjet jarayoni bilan uyg‘unlashtirish;

– XMI bilan birgalikda natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

3. Daromadlar bazasini kengaytirish va soliq siyosatini takomillashtirish:

– to‘lovlarda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish va iqtisodiyotda tovarlar oqimining shaffofligini ta’minlash;

– barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida samarasiz soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish;

– atrof-muhit va aholi salomatligini asrash maqsadida yashil soliqqa tortish va uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– soliq siyosatining inklyuzivligini oshirish;

– soliq to‘lovchilar bilan hamkorlikni, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashga qaratilgan soliq ma’murchiligining strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– aholi va tadbirkorlar o‘rtasida soliq to‘lash madaniyatini rivojlantirish;

– soliq va bojxona siyosatini JST talablariga uyg‘unlashtirish.

4. Davlat qarzini samarali boshqarish:

– Davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish va valyuta xatarlarini boshqarish;

– 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish orqali davlat qarzining YIMga nisbati 50 foizdan oshmasligini ta’minlash.

5. Aholi farovonligini ta’minlash:

– aholining real daromadlarini oshirish maqsadida budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va nafaqalarni har yilgi inflatsiya darajasidan yuqori miqdorlarda oshirib borish.

6. Fiskal siyosatning ijtimoiy yo‘naltirilganligini ta’minlash:

– inson kapitaliga budjet xarajatlarining ustuvorligini oshirish, jumladan, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish.

Mazkur Fiskal strategiya yuqorida qayd etilgan maqsadlarga erishish uchun Hukumat tomonidan o‘rta muddatda amalga oshirilishi rejalashtirilgan makroiqtisodiy, soliq va budjet siyosati yo‘nalishlari hamda chora-tadbirlarini belgilaydi.

II. Makroiqtisodiy koʻrsatkichlar prognozlari

2.1. Asosiy makroiqtisodiy va budjet koʻrsatkichlarining hamda davlat qarzining 2025-yil yakuniga qadar kutilmalari

2.1.1. Asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlarning 2025-yil oxirigacha kutilmalari

Soʻnggi yillarda global iqtisodiyotda kuzatilayotgan murakkab vaziyatga qaramasdan, iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan islohotlarning davom ettirilishi hamda tarmoq, soha va hududlarni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan dasturlarning amalga oshirilishi, shuningdek, asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlarning joriy yil I chorak natijalarini inobatga olgan holda **2025-yilda** iqtisodiy oʻsish surʼatlari tasdiqlangan prognoz *(6 foiz)* koʻrsatkichidan yuqoriroq, yaʼni **6,2 foiz** darajada shakllanishi kutilmoqda.

Bunda, uy-xoʻjaliklari isteʼmolining yuqori faolligi, DXSH asosida investitsiya loyihalarining keng joriy etilishi, xizmatlar eksportining jadal oshib borishi iqtisodiy oʻsishning asosiy talab omillari boʻlishi kutilmoqda.

Xususan, 2025-yilda:

uy-xoʻjaliklari isteʼmoli real hajmi **7-7,5 foiz** atrofida shakllanishi;

*Bunda, aholi isteʼmol faolligini qoʻllab-quvvatlovchi asosiy omil sifatida pul oʻtkazmalari hajmi mehnat migrantlarini qabul qiluvchi mamlakatlar valyuta kurslarining mustahkamlanishi, shuningdek, mehnat migrantlari geografiyasining diversifikatsiyalashuvi natijasida yil yakuni bilan **17-18 foiz**ga oshishi kutilmoqda.*

isteʼmol va investitsion faollikni qoʻllab-quvvatlash maqsadida iqtisodiyotga ajratilgan kredit qoldigʻining oʻsish surʼati YIMning nominal oʻsishi darajasida shakllanishi;

Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalarning real hajmi **9-10 foiz** atrofida shakllanishi;

oltinsiz eksport hajmi **17-18 foiz**ga oshishi;

oltin narxining yuqori shakllanishi umumiy eksport hajmiga ijobiy taʼsir koʻrsatib, joriy operatsiyalar hisobi defitsitining yaxshilanishini qoʻllab-quvvatlovchi omil boʻlishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, **tarmoqlar kesimida** iqtisodiy oʻsishning asosiy drayveri bozor xizmatlari sohasi boʻlib, uning oʻsish surʼati **15,4 foiz** darajasida shakllanayotgan boʻlsa, sanoat – **6,1 foiz**ga, qurilish ishlari – **9,8 foiz**ga va qishloq xoʻjaligi – **4,1 foiz**ga oʻsishi kutilmoqda.

Bunda tarmoqlarda o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi omillar bo‘lib quyidagilar hisoblanishi kutilmoqda:

Sanoat tarmog‘ida:

- **Metallurgiya tarmog‘ida*:***

“Navoiy KMK” AJda “Kokpatas” va “Daugiztau” oltin konlarida ma’dan qazib olish 3-bosqichining ishga tushishi natijasida qo‘shimcha **2 tonna** oltin ishlab chiqariladi;

“Navoiyuran” DKda yangi burg‘ilash uskunalarini xarid qilish, yangi quduqlarni ishga tushirish va yil davomida sulfat kislota bilan uzluksiz ta’minlab borilishi natijasida uran ishlab chiqarish **1,3 barobar**ga oshiriladi.

- **Energetika tarmog‘ida.** Jami **2,7 gVt** quvvatga ega **12 ta** yangi quyosh fotoelektr stansiyalari, **752 mVt** quvvatga ega **4 ta** shamol elektr stansiyalari hamda **1,7 gVt** quvvatga ega **13 ta** elektr energiyasi saqlash tizimi batareyalari loyihalari ishga tushirilib, **elektr energiyasi** ishlab chiqarish **87,5 mlrd kVt soatga** yetkaziladi *(o‘sish – 7,4 foiz)*.
- **Avtomobilsozlik tarmog‘ida. 465 ming** dona yengil avtomobillar ishlab chiqariladi.
- **Elektrotexnika tarmog‘ida. 655,8 mln** AQSH dollarlik **71 ta** investitsiya loyihalari ishga tushirilib, jami **43 trln** so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqariladi hamda qo‘shimcha **500 mln** AQSH dollarlik mahsulotlar eksporti amalga oshiriladi.
- **Neft va gaz tarmog‘ida.** 2025-yilda **GTL** zavodida tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi **8,2 trln so‘m**gacha oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligi:

- Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotiga asosan 2025-yil hosili uchun asosiy va bog‘-tok qator oralari maydonlarga ekilgan **418,7 ming** gektar sabzavot, **125,1 ming** gektar kartoshka va **77,3 ming** gektar poliz ekinlaridan **15,3 mln** tonna **63,4 trln** so‘mlik *(o‘tgan yilga nisbatan qo‘shimcha 1,1 mln tonna va 5,2 trln so‘m)* mahsulot hosili olish;
- G‘alladan bo‘shagan takroriy maydonga ekilishi kutilayotgan **110 ming** gektar sabzavot, **48,6 ming** gektar kartoshka va **45,7 ming** gektar poliz ekinlaridan **4,6 mln** tonna *(17,7 trln so‘m)* hosil olish. Bunda, asosiy maydonlarda intensiv usulda **33,6 ming gektar** sabzavotlar yetishtirish yo‘lga qo‘yiladi. Natijada hosildorlik **350-400 s/ga** *(an’anaviy usulda 200-220 s/ga)* yetkazish;

- 2020-2022-yillarda alohida loyiha doirasida tashkil etilgan **42 ming** gektar intensiv bog‘lar hosilga kirishi hisobiga qo‘shimcha **100 ming tonna**dan *(1 trln so‘m)* ziyod meva olish;
- 2025-yilda 1 mln gektar *(23 foiz)* maydonlarga suv tejovchi texnologiyalar joriy qilish;
- Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yangi zaxiralarni yaratish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilishini ko‘paytirish maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarining dala chetlari, aholi tomorqasi, xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko‘chalariga **28 ming** gektar hamda kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarga **9,3 ming** gektar mevali daraxt ko‘chatlari ekish;

Mazkur maydonlarga 11,1 ming gektar olcha, 6,4 ming gektar olxo‘ri, 5,6 ming gektar tut, 3,9 ming gektar uzum, 3,6 ming gektar bodom, 3,4 ming gektar jiyda, 3 ming gektar behi va 236,4 gektar boshqa daraxt ko‘chatlari ekildi.

- Hududiy investitsiya dasturlariga asosan umumiy qiymati **21 trln** so‘mlik **1 421 ta** qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat loyihalari amalga oshirilishi kutilmoqda.

<u>Bozor xizmatlari:</u>

Transport sohasini rivojlantirish yo‘nalishida:

- transport xizmatlari hajmini **185 trln so‘mdan**, eksportini **2,3 mlrd AQSH dollaridan** oshirish;
- qo‘shimcha **6 ta** yuk va **15 ta** yo‘lovchi havo kemasini xarid qilish va lizingga olish hamda aviaqatnovlar sonini **128,7 mingta**ga yetkazish;
- jamoat transporti uchun yangi zamonaviy jami **700 ta** avtobuslar va **14 ta** poyezd (metro) xarid qilish;

Turizm sohasini rivojlantirish yo‘nalishida:

- Xorijiy turistlar sonini **15,8 mln nafar**, mahalliy (ichki) sayyohlar sonini **40 mln nafarga** va turizm eksportini **4 mlrd AQSH dollariga** yetkazish va **378 ta** turoperatorlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- yangi **108 ta** mehmonxona, **375 ta** oilaviy mehmon uyi va **123 ta** xostel qurish, **745 ta** kapsula va o‘tov uylari, apart-otel, modulli mehmonxonalar hamda **12 ta** turizm qishlog‘i va turizm mahallasini tashkil etish;
- **230 ming** xorijiy fuqaroni davolash va ularga diagnostika xizmatlari ko‘rsatishni tashkil qilib, tibbiy xizmatlar eksportini **250 million AQSH dollariga** yetkazish.

Moliyaviy xizmatlar sohasini rivojlantirish yo‘nalishida:

- xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun **67,4 trln so‘m** miqdorida kredit mablag‘larini ajratish;

- xizmat koʻrsatish obyektlarini tashkil etish uchun developerlar orqali tadbirkorlik subyektlariga noturar joylarni lizingga berish uchun **4,5 trln soʻm** miqdoridagi mablagʻlar yoʻnaltirish.

Savdo va boshqa xizmatlar sohasini rivojlantirish yoʻnalishida:

- hududlarda savdo va servis obyektlarini tashkil etish uchun **1,8 ming gektar** *(24 mingta lotlarga ajratilib)* boʻsh yer maydonlarini va koʻchma savdo faoliyati uchun moʻljallangan **18,3 mingta** yer maydonlarini auksion savdosiga chiqarish;
- hududlarda jami **652 ta** drayver loyihalarni ishga tushirish, bunda **72 ta** sohil boʻyi, **62 ta** istirohat bogʻi, **154 ta** markaziy koʻcha va **364 ta** boshqa turdagi loyihalar;
- hududlarda **52,2 mingta** savdo va servis obyektlarini tashkil etish;
- hududlarda zamonaviy **43 ta** yirik savdo komplekslarini tashkil etish orqali **635 ta** savdo-servis obyektlarini barpo etish hamda **3 315 ta** ish oʻrinlarini yaratish;

“Yangi Oʻzbekiston” massivlari hududida **624 ta** yirik va kichik zamonaviy xizmat koʻrsatish obyektlarini tashkil etish orqali **1 365 ta** yangi ish oʻrinlarini tashkil etish.

2.1.2. Konsolidatsiyalashgan budjetning 2025-yil yakuni bo‘yicha kutilayotgan ijrosi

Soliq ma’murchiligini yaxshilash chora-tadbirlari hamda jahon bozorida asosiy eksport tovarlarining narxi prognozlarga nisbatan ko‘proq oshishi natijasida 2025-yil oxirigacha Davlat budjeti daromadlari tasdiqlangan prognozga nisbatan 8,8 foizga ko‘p yoki **335,6 trln so‘m**ni tashkil etishi kutilmoqda.

Xususan, bevosita soliqlardan 112,4 trln so‘m, bilvosita soliqlardan 103 trln so‘m, resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘idan 43,9 trln so‘m va boshqa daromadlardan 75,7 trln so‘m tushishi kutilmoqda.

2024-yilning 4-choragida va 2025-yilning o‘tgan davri mobaynida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari bilan tasdiqlangan dastur va tadbirlar uchun qo‘shimcha xarajatlarning kelib chiqishi natijasida 2025-yilgi Davlat budjeti xarajatlari qayta ko‘rib chiqilib, xarajatlarning kutilayotgan ijrosi 378,7 trln so‘mni tashkil etishi yoki tasdiqlangan Davlat budjeti xarajatlari parametrlarga nisbatan 9,8 foizga oshishi kutilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2025-yil oxirigacha konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari prognozi 474,9 trln so‘m, xarajatlarining kutilayotgan ijrosi 526,9 trln so‘mni tashkil etadi.

Bunda, joriy yil oxirigacha konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi 3 foiz miqdorida bo‘lishi ta’minlanadi.

Davlat budjeti hamda DMJ budjetlari daromadlari va xarajatlarining, shuningdek TTJning tushumlari va xarajatlarining 2025-yil oxiriga qadar kutilayotgan ijrosi bo‘yicha to‘liqroq ma’lumotlar bilan mazkur Fiskal strategiyaning IV bo‘limidagi jadval va diagrammalarda tanishish mumkin.

2.1.3. Davlat qarzining 2025-yil oxirigacha kutilmalari

Davlat qarzi qoldig‘i 2025-yil 1-yanvar holatiga 40,2 mlrd AQSH dollarini (shundan, davlat tashqi qarzi – 33,7 mlrd AQSH doll., davlat ichki qarzi – 6,5 mlrd AQSH doll.) yoki YIMga nisbatan 35 foizni tashkil etdi.

2-diagramma. O‘zbekiston Respublikasining davlat tashqi qarzi iqtisodiyot tarmoqlari kesimida, 2025-yil 1-yanvar holatiga, *mlrd AQSH doll.*



3-diagramma. Davlat qarzining valyutadagi ulushi, 2025-yil 1-yanvar holatiga, *foizda*



Mazkur loyihalar iqtisodiyotimizda uzoq yillar davomida investitsiyalarga bo‘lgan yuqori talab shakllangan holatda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, ularni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

4-diagramma. Davlat ichki va tashqi qarzi, 2025-yil 1-yanvar holatiga



5-diagramma. Davlat tashqi qarzining kreditorlar kesimida taqsimlanishi, 2025-yil 1-yanvar holatiga, *mlrd AQSH doll.*



XVJning mamlakatlar iqtisodiyotiga bag‘ishlangan hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining davlat qarzi bugungi kunda “mo‘tadil” darajada hisoblanadi. Xususan, XVJning 2024-yil iyul oyidagi IV modda (Article IV) doirasida e’lon qilgan hisobotiga[3] ko‘ra, hozirda O‘zbekiston davlat qarzi va davlat tashqi qarzi bo‘yicha xatarlar past darajada hamda davlat qarziga xizmat ko‘rsatish salohiyati “yuqori” hisoblanadi. Shuningdek, hisobotda davlat tashqi qarzi asosan XMIning uzoq muddatli imtiyozli shartlardagi kreditlaridan iboratligi hisobiga qayta moliyalashtirish xatari pastligi qayd etilgan.

[3] https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2024/07/11/Republic-of-Uzbekistan-2024-Article-IV-Consultation-Press-Release-and-Staff-Report-551710

2.2. Jahon va O‘zbekiston iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy tendensiyalar

XVJning 2025-yil aprel oyidagi hisobotiga[4] ko‘ra, 2024-yilda jahon iqtisodiyotida o‘sish nisbatan barqarorligi qayd etilgan bo‘lsa-da, biroq tarixiy o‘rtacha ko‘rsatkichlardan past bo‘ldi. Yangi tashqi savdo mojarolari, xususan, AQSHning keng qamrovli import tariflari *(joriy yilning aprel oyi boshida joriy etilgan)* global iqtisodiy faoliyatga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ushbu hisobotga ko‘ra, yangi geosiyosiy va siyosiy shoklar ta’sirida 2025-2026-yillarga oid prognozlar sezilarli ravishda qayta ko‘rib chiqilib, 2025-yilda jahon iqtisodiyoti o‘sishi **2,8 foiz**gacha **pasayishi** *(2024-yildagi hisobotda 3,3 foiz)* va 2026-yilda o‘sish **3 foiz** bo‘lishi prognoz qilingan.

Shuningdek, mamlakatimizning asosiy savdo hamkorlari, jumladan, Rossiya iqtisodiyoti 2024-yildagi **4,1 foiz**dan 2025-yilda **1,5 foiz**gacha, Xitoyda **5 foiz**dan **4 foiz**gacha, Turkiya iqtisodiyoti **3,2 foiz**dan **2,7 foiz**gacha **pasayishi** hamda Qozog‘istonda **4,8 foiz**dan **4,9 foiz**gacha o‘sishi prognoz qilingan.

Rivojlangan mamlakatlarda esa iqtisodiy o‘sish **1,4 foiz** *(AQSH – **1,8 foiz** (o‘tgan prognozdan 0,4 foiz bandga past) va Yevrohudud – **0,8 foiz**)* prognoz qilinmoqda.

6-diagramma. XVJning global iqtisodiy kutilmalari, *foizda*



[4] https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2025/04/22/world-economic-outlook-april-2025

2025-2026-yillar uchun XVJ tomonidan tayyorlangan O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sish prognozlariga ko‘ra, 2025-yilda YIMning o‘sishi **5,9 foiz** va 2026-yilda **5,8 foiz** atrofida bo‘lishi prognoz qilingan.

1-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha xalqaro tashkilotlar prognozi va milliy prognozlar, *foizda*

		2025	2026	2027	2028
OTB[5]	YIM o‘sishi	6,6	6,7	x	x
	Inflatsiya	8	7	x	x
JB[6]	YIM o‘sishi	5,9	5,9	5,8	x
	Inflatsiya	8,9	7	5,4	x
XVJ[7]	YIM o‘sishi	5,9	5,8	5,7	5,7
	Inflatsiya	8,8	7,2	5,8	5
Milliy prognoz	YIM o‘sishi	6,2	6,1	6,3	6,1
	Inflatsiya	8	6-7	5-6	5

[5] https://www.adb.org/outlook/editions/april-2025#special-analyses
[6] https://www.worldbank.org/en/publication/macro-poverty-outlook
[7] https://www.imf.org/en/Publications/WEO/weo-database/2025/april

2.3. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlari va iqtisodiy o‘sish uchun zamin yaratishga qaratiladigan asosiy yo‘nalishlar

2.3.1. Iqtisodiy o‘sish uchun zamin yaratishga qaratiladigan asosiy yo‘nalishlar

2026-2028-yillar uchun belgilanayotgan **maqsadlarga erishishda** quyidagi **asosiy** yo‘nalishlardagi **islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar** amalga oshirilishi inobatga olingan. Jumladan:

Birinchi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan asosiy tadbirlar amalga oshiriladi. Bunda:

a) **inflatsiyani maqsadli boshqarish mexanizmlarini** keng joriy etish asosida, 2026-yilda umumiy inflatsiya darajasini **6-7 foiz** va bazaviy inflatsiyani esa **5-6 foiz** atrofida, 2027-yildan esa umumiy inflatsiyaning **5 foiz** atrofida shakllanishiga sharoit yaratish choralari ko‘riladi;

b) **fiskal barqarorlikni** ta’minlashda **fiskal qoidalarga qat’iy** amal qilinadi. Bunda, (i) **konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini** YIMga nisbatan **3 foiz**, (ii) soliq ma’murchiligini yaxshilash, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish orqali **daromadlar bazasini oshirish**, (iii) davlat xarajatlarining maqsadli va oqilona yo‘naltirilishini ta’minlash, samarasiz budjet ssuda va subsidiyalarini kamaytirish hamda **xarajatlar natijadorligini oshirish** choralari ko‘riladi;

v) **davlat qarzi va shartli majburiyatlarni** samarali boshqarish **maqsadli limit** qoidalari asosida **qat’iy amalga** oshiriladi, bunda (i) davlat qarzining xavfsiz darajada (YIMga nisbatan **50 foiz**) bo‘lishini ta’minlash uchun yangi imzolanadigan **tashqi qarz** bitimlari hajmini 2026-yil uchun belgilangan limitdan **oshirmaslik**; (ii) o‘rta muddatli davrda davlatning shartli majburiyatlari bo‘yicha fiskal xatarlar kuchayishining oldini olish maqsadida 2026-yilda **yangi imzolanadigan** DXSH loyihalarini **chegaraviy miqdorlardan oshirmaslik** choralari ko‘riladi.

Ikkinchi, 2026–2028-yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari **o‘rtacha yillik 6 foiz**dan kam bo‘lmagan darajada ta’minlanadi va 2025-yilga nisbatan **1,2 barobar**ga ortadi. Bunda, quyidagi tarmoqlardagi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish sanoat mahsulotlarining o‘sishi uchun asosiy zamin yaratadi.

a) metallurgiya sanoatida:

– **Navoiy KMK**da keyingi 3 yilda jami qiymati **1,3 mlrd** AQSH dollarlik **5 ta** yirik loyihalar amalga oshiriladi hamda qo‘shma korxonalar tashkil etiladi;

– **Olmaliq KMK**da **2,8 mlrd** AQSH dollarlik **4 ta** yirik loyiha foydalanishga topshirilib, mis katodi hamda oltin ishlab chiqarish quvvatlari oshiriladi.

b) O‘zavtosanoat korxonalarida avtomobillar ishlab chiqarish hajmlari **1,3 barobar**gacha oshiriladi.

v) Elektr energetikasi tarmog‘ida yangi **11,7 GVt** qo‘shimcha quvvatlar yaratiladi. Bunda, **2 GVt** fotoelektr stansiyalari, **5,4 GVt** shamol elektr stansiyalari, **3,7 GVt** DXSH asosidagi zamonaviy IESlar, **560 MVt** elektr energiyasi saqlash tizimi quvvatlari ishga tushirilishi hisobiga **2028-yil**ga borib jami elektr energiya ishlab chiqarish hajmi **108,5 mlrd KVt soat**ga yetkaziladi.

Bundan tashqari, energiya sarfi yuqori bo‘lgan issiqlik elektr stansiyalarda **3,2 GVt** quvvatdagi eski energiya bloklari bosqichma-bosqich konservatsiya qilinadi, shundan joriy yilda **1 GVt**, 2026-yilda **160 MVt** quvvatlar **foydalanishdan chiqariladi.**

g) Elektrotexnika sanoatida yuqori texnologiyalarga asoslangan elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha jami qiymati **3,3 mlrd** AQSH dollarlik **121 ta** yangi ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilib, misni qayta ishlash hajmi **145 ming** tonnadan oshadi *(1,3 barobar)*.

Natijada elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **1,4 barobar**ga ortib, sohada qo‘shilgan qiymat ulushi o‘rtacha **21 foiz**dan **30 foiz**ga yetkaziladi hamda eksport hajmi **3 mlrd** AQSH dollaridan ortadi *(1,8 barobar)*.

Shuningdek, hududlar “**solishtirma ustunligi**”dan kelib chiqib sanoat zonalarida va yuqori texnologik parklarda yangi turdagi yuqori **texnologik mahsulotlar** ishlab chiqarish, mavjud quvvatlarni kengaytirish va **chuqur qayta ishlashga** qaratilgan sanoat loyihalari, shuningdek, **talab yuqori** bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga qaratilgan loyihalar amalga oshiriladi.

Uchinchi, xizmatlar sohasini rivojlantirishda yuqori bilim va texnologiyaga asoslangan va hayot farovonligini oshirishga qaratilgan xizmatlar kengaytiriladi. Bunda:

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli xizmatlarni kengaytirish, xususan, (i) raqamli iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish, (ii) IT-autsorsing va fintex xizmatlarini eksportga yo‘naltirishni kengaytirish hamda (iii) elektron savdo va elektron hukumat xizmatlarini, shuningdek,

(iv) kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt va ma’lumotlarni tahlil qilish sohasidagi xizmatlar rivojlantiriladi;

– ta’lim xizmatlarini rivojlantirishda, (i) uning turlarini diversifikatsiya qilish, ya’ni gibrid ta’lim modellarini kengaytirish, (ii) til o‘rgatish, tadbirkorlik, texnologiyalar va kasb-hunarga yo‘naltirilgan qisqa muddatli kurslar, oromgohlarni (bootcamp) rivojlantirish, (iii) xususiy ta’limda STEM ta’lim dasturlarini keng joriy qilish, (iv) xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlar va innovatsion o‘quv markazlari tashkil etiladi;

– turizm va madaniy xizmatlarni kengaytirishda, xususan, (i) tibbiyot, ta’lim turizmi va ekoturizm yo‘nalishlarini rivojlantirish, (ii) turistlar uchun raqamli xizmatlar, AR/VR (“to‘ldiriladigan reallik” va “virtual reallik”) texnologiyalari asosidagi madaniy loyihalarni yaratish, (iii) milliy hunarmandchilik va servis sohalarini integratsiyalash tadbirlari amalga oshiriladi;

– moliyaviy xizmatlarni inklyuziv va raqamli asosda rivojlantirishda (i) fintex loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va raqamli to‘lov tizimlarini rivojlantirish, (ii) mikromoliyalash va kichik biznesga kredit xizmatlarini ommalashtirish, (iii) moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan axborot xizmatlari kengaytiriladi;

– hududiy xizmatlarni diversifikatsiya qilish, jumladan, har bir hududda mutaxassislashtirilgan xizmat turlarini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash, qishloq joylarda ijtimoiy va axborot xizmatlarini kengaytirish, hududlarda biznes uchun servis xablari va texnologik parklarni tashkil etish tadbirlari amalga oshiriladi.

To‘rtinchi, atrof-muhit muhofazasini ta’minlash, iqlim o‘zgarishi ta’sirini yumshatish, suv resurslari tanqisligi sharoitida **qishloq va suv xo‘jaligi**da **samaradorlikni** oshirishga va aholining **oziq-ovqat xavfsizligini** ta’minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish davom ettiriladi. Bunda:

a) dehqonchilik va chorvachilikda **iqlim o‘zgarishiga** chidamli turlarini yaratish va keng joriy etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

b) **yer** va **suv resurslari**dan **samarali** va **barqaror** foydalanish tizimlarini joriy qilish, xususan, **agroekologik monitoring** va raqamli suv nazorati **platformalarini** joriy qilish, **suv tejovchi** texnologiyalardan ommaviy foydalanish kabi suv sarfini qisqartirishga doir izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish;

v) **degradatsiyaga** uchragan *(masalan, sho‘rlangan va qumli)* yerlarni tiklash, shuningdek, **tomorqa yerlari** va **dehqon xo‘jaliklari yer maydonlaridan** samarali foydalanish, **mahallalarning**

ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda yuqori daromadli va eksportbop mahsulotlar yetishtirishni **moliyaviy qo‘llab-quvvatlash**;

g) **oziq-ovqat xavfsizligini** ta’minlashda strategik ahamiyatga ega mahsulotlar (go‘sht, guruch, kartoshka, sabzavot va meva) yetishtirish hajmini oshirish va uning uchun zaruriy **moliyaviy** va **texnologik** resurslarni **yo‘naltirish**;

d) sohada **agrosanoat klasterlari** va **kooperatsiya** tizimini keng joriy qilish va texnologik o‘zgarishlarni o‘zlashtirish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash **salohiyatini oshirish** va **zanjirni mustahkamlash** tadbirlarini amalga oshirish.

Beshinchi, urbanizatsiya jarayonlari asosida hududlarni kompleks rivojlantirishning hamda unda zarur ishlab chiqarish va infratuzilmani yaxshilashning 2026-yilda yaxlit dasturi amalga oshiriladi. Bunda:

a) hududlarda yalpi hududiy mahsulot hajmini **6 foiz**dan kam bo‘lmagan darajada o‘sishini ta’minlash choralari ko‘riladi;

b) **30 ta** tuman (shahar)larni jadal rivojlantirish dasturlari, iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi **650 ta** drayver loyihalar, **38 ta** hududlarning master rejalari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi;

v) zarur ishlab chiqarish va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda XMI qarz mablag‘lari asosida natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish dasturi (PforR) asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish boshlanadi;

g) tasdiqlangan DXSH asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturi doirasida hududlardagi infratuzilmani rivojlantirish loyihalarini amalga oshirishga ustuvorlik beriladi. Xususan:

– 2026-yildan boshlab har yili kamida 100 tadan MTTini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash;

– XMI texnik ko‘magida respublika hududlarida jami 86 ming o‘rinli 130 ta umumta’lim maktablarini qurish va jihozlash;

– Farg‘ona, Samarqand va Xorazm viloyatlarida nur bilan davolash markazlarini hamda Buxoro va Andijon viloyatlarida 650 o‘rinli ko‘p tarmoqli shifoxonalar tashkil etish loyihalarini amalga oshirish boshlanadi.

Shuningdek, dastur doirasida issiqlik ta’minoti tizimlari, ichimlik suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari bo‘yicha hududlardagi DXSH loyihalarining amalga oshirilishi jadallashtiriladi.

d) davlat ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida ham **Davlat budjeti mablag‘lari** hisobidan 2026-yilda **19 trln** so‘m mablag‘ ajratiladi.

Oltinchi, mamlakat hududlari hamda qo’shni davlatlar o’rtasida o’zaro **bog‘liqligini** (connectivity) yaxshilashga qaratilgan yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga ustuvorlik qaratiladi. Xususan, **2026-yilda**:

a) avtomobil yo‘llari sohasida “Toshkent – Samarqand” va “Toshkent – Andijon” yo‘nalishlarida pulli avtomobil yo‘llarini qurish loyihalarini amalga oshirish, XMI mablag‘lari hisobidan xalqaro avtomagistral yo‘llarni ta’mirlash va barpo etish choralari ko‘riladi.

Shu bilan birga, ilg‘or tajribani inobatga olgan holda **mavjud yo‘llarning o‘tkazuvchanligi qobiliyatini oshirish va xavfsizligini yaxshilash** bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi amalga oshiriladi.

b) temir yo‘l transporti sohasida “**O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy**” va “**O‘zbekiston–Afg‘oniston–Pokiston**” xalqaro temir yo‘llarini barpo etishda **faol** ishtirok etish, “**Toshkent – Samarqand**” yo‘nalishida tezyurar poyezdlar uchun qo‘shimcha yangi temir yo‘l qurish loyihasini boshlash hamda “**Nukus–Miskin–Urganch–Buxoro**” yangi tez yurar temir yo‘l liniyasini ishga tushirish hamda yangi tezyurar poyezdlarning doimiy qatnovlarini yo‘lga qo‘yish choralari ko‘riladi;

v) aeroportlar va havo transporti sohasida Toshkent, Buxoro va Urganch yangi xalqaro aeroportlarini qurish loyihalarini amalga oshirishni boshlash, respublikada havo qatnovini kamida **1,5 barobar**ga oshirish hamda xizmat bozorida raqobat muhiti uchun kamida **6 ta** xalqaro aviakompaniyalarni jalb qilish ishlari amalga oshiriladi;

g) mahalliy va jamoat transportida shaharlardagi ichki avtobus qatnovlari uchun yangi yurish yo‘laklarini tashkil qilish (Toshkent shahrida avtobuslar uchun alohida liniyalar), shaharlarda avtobus parklarini kengaytirish va uni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini keng joriy qilish choralari ko‘riladi.

Yettinchi, davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va xususiylashtirish jadallashtiriladi hamda raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan:

a) xususiylashtirish dasturi asosida davlat korxonalarini **xususiylashtirish jadallashtiriladi**, shuningdek, **samarasiz** davlat

korxonalari faoliyati **qayta ko‘rib** chiqilib, dasturga kiritgan holda ularni **xususiylashtirish** tadbirlari amalga oshiriladi.

b) tovar va xizmatlar bozorida **davlat sektorining ulushi bosqichma-bosqich qisqartirilib** boriladi. Bunda, JST talablari hamda raqobat muhitini yaratish asosida eksklyuziv huquqlar va yengilliklarni bekor qilish davom ettiriladi.

Sakkizinchi, xususiy **tadbirkorlikni rivojlantirish** va **biznes muhitni** yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlar davom ettiriladi. Xususan:

a) kichik va o‘rta biznes subyektlarini rivojlantirishda **soddalashtirilgan ma’muriy tartib-taomillar** joriy qilinadi. Bunda:

– kichik va o‘rta biznes subyektlari zimmasiga yangi majburiyatlar yuklashga **moratoriy** belgilanadi va **mezonlarga** asoslangan holda ularni **ixtiyoriy tugatish soddalashtiriladi**;

– tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni **litsenziyalash**, **ruxsatnomalar** berish **tartibotlari** vakolatli davlat organlarida **raqamlashtirishning** kengayishi hisobiga **maqbullashtiriladi**;

– kichik va o‘rta biznes subyektlarining **yiriklashuvini** davlat tomonidan **qo‘llab-quvvatlash** davom ettiriladi;

– mahsulot ishlab chiqarishda **milliy** va **xalqaro standartlarga** rioya etish **tizimi kuchaytiriladi**.

b) **tadbirkorlik subyektlari**, jumladan, “**chempion tadbirkorlar**” uchun zaruriy va qulay biznes muhitini tashkil qilishga qaratilgan ishlarni **davlat** tomonidan qo‘llab-quvvatlash davom ettiriladi. Bunda:

– kichik va o‘rta biznesga **moliyaviy xizmatlardan** keng foydalanishda **mikromoliyalash** va **lizing xizmatlari** ommalashtiriladi;

– **moliyaviy inklyuzivlikni** oshirishga qaratilgan choralar ko‘rishni davom ettirish, bunda moliyaviy xizmatlar turlarini kengaytirishda raqamli bank xizmatlari va islom moliyasi institutlaridan keng foydalaniladi;

– tadbirkorlik subyektlariga bozor iqtisodiyoti prinsiplariga asoslangan sifatli **konsalting xizmatlarini** ko‘rsatish infratuzilmasi shakllantiriladi;

– yoshlar va xotin-qizlarni jalb etgan holda kichik biznes ehtiyojlariga mos kasbiy tayyorgarlik, biznes boshqaruvi va raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini qamrab olgan tadbirkorlik ta’limi tizimi rivojlantiriladi;

– mahalliy xomashyo va butlovchi mahsulotlardan samarali foydalangan holda hududlarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va tarmoqlararo klasterlar qo‘llab-quvvatlanadi;

– ilg‘or xorijiy tajriba asosida biznes boshqaruvi va raqamli savodxonlikka oid zamonaviy o‘quv kurslarini tashkil etish orqali tadbirkorlik savodxonligini oshirish choralari ko‘riladi.

v) **startap** hamda **innovatsion** ishlanmalarni joriy etishga qaratilgan loyihalarni rivojlantirish uchun mavjud infratuzilmani yanada kengaytirish choralari ko‘riladi. Xususan:

– startap loyihalarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlashda venchur jamg‘armalari, “kraudfanding”, investitsion kompaniyalar mablag‘larini jalb qilish qo‘llab-quvvatlanadi. Bunda 2026-yilning yakuniga qadar venchur jamg‘armalar ishtirokida yangi biznes yo‘nalishlarida kamida **200 ta** startap loyihalar amalga oshirilishi ta’minlanadi;

– **inkubatsiya** va **akseleratsiya** dasturlarini oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirish hamda yetakchi ekspert va biznes mentorlarni jalb qilgan holda startap loyihalarga uslubiy yordam ko‘rsatishni nazarda tutuvchi startap studiyalar tashkil etiladi.

2.3.2. Asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlar prognozlari

2030-yilga qadar YIMning yillik oʻsishini kamida 6 foiz hamda uning hajmini 200 mlrd AQSH dollariga yetkazish hamda joriy makroiqtisodiy tendensiyalarning oʻzgarishlaridan kelib chiqib, Oʻzbekiston Respublikasining 2026-2028-yillar uchun asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlarning dastlabki prognozlari hamda unga erishishning asosiy yoʻnalishlari ishlab chiqildi.

2-jadval. Asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlar prognozlari

	Ijro		Kutilma	Prognoz	Moʻljal	
	2023	**2024**	**2025**	**2026**	**2027**	**2028**
YIM, *trln soʻm*	**1 204**	**1 455**	**1 707**	**1 954**	**2 226**	**2 520**
YIM oʻsish surʼati, *foizda*	**6,3**	**6,5**	**6,2**	**6,1**	**6,3**	**6,1**
Aholi jon boshiga YIM hajmi, *AQSH doll.*	**2 818**	**3 093**	**3 404**	**3 810**	**4 008**	**4 356**
Sanoat mahsulotlarining oʻsish surʼati, *foizda*	6,3	6,8	6,1	6,3	6,5	6,1
Qurilish ishlarining oʻsish surʼati, *foizda*	7	8,8	9,8	10,2	7,3	7,8
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklarida ishlab chiqarishning oʻsish surʼati, *foizda*	4,1	3,1	4,1	4,2	4,3	4,3
Bozor xizmatlarining oʻsish surʼati, *foizda*	14,1	12,9	15,4	13,6	14,3	15,1

Shundan kelib chiqib, iqtisodiy oʻsish surʼatlarini 2026-yilda **6,1 foiz**, 2027-yilda **6,3 foiz** va 2028-yilda **6,1 foiz** darajasida taʼminlash orqali aholi jon boshiga YIM hajmini 2025-yildagi **3,4 ming AQSH dollari**dan 2028-yilga borib **4,4 ming AQSH dollari**ga yetkazish prognoz qilinmoqda.

3-jadval. . Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar yangilangan prognozlarining amaldagi ko‘rsatkichlardan farqi

	O‘RQ–1011 bo‘yicha prognozlar		Yangilangan prognozlar		Farqi (+/-)	
	2025	**2026**	**2025**	**2026**	**2025**	**2026**
YIM, *trln so‘m*	1 630	1 866	1 707	1 954	+77	+88
YIM o‘sish sur’ati, *foizda*	6,0	6,1	6,2	6,1	+0,2	-
Iste’mol narxlari indeksi, o‘tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, *foizda*	8	5-6	8	6-7	-	+1
Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, *foizda*	6,1	6,2	6,1	6,3	-	+0,1
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, *foizda*	4,1	4,2	4,1	4,2	-	-
Bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati, *foizda*	14,5	15,1	15,4	13,6	+0,9	-1,5
Qurilish ishlarining o‘sish sur’ati, *foizda*	14,2	10,2	9,8	10,2	-4,4	-

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning yangilangan prognozlarining 2025-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonun bilan belgilangan ko‘rsatkichlardan farqi asosan quyidagilar bilan izohlanadi.

2025-yil uchun o‘sish sur’atlarining belgilangan prognozga nisbatan **0,2 foiz** bandga tezlashishiga 2025-yil I chorak yakunlari bilan iqtisodiy faollikning oshishi natijasida YIM o‘sishining **6,8 foiz**ga *(prognoz – 5,7 foiz)* tezlashishi kuzatildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–78-son qarori bilan 2025-yil uchun bozor xizmatlari sohasida qo‘shimcha choralarning belgilanishi natijasida bozor xizmatlarida o‘sish sur’atlari **15,4 foiz**ni *(prognoz – 14,5 foiz)* tashkil etishi belgilandi.

Bunda, 2025-yilda xizmatlar sohasidagi loyihalarga **67,4 trln** so‘m miqdorida kredit mablag‘larini ajratish, hududlarda **652 ta** drayver loyihalarni infratuzilma bilan ta’minlash uchun Davlat budjetidan **1 trln** so‘m yo‘naltirish kabi sohaning o‘sishini ta’minlaydigan qo‘shimcha choralar belgilandi.

Pensiyalar, nafaqalar, kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordam to‘lovlari, shuningdek, budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi va stipendiyalar miqdorlarining ertaroq oshirilishi, asosiy savdo hamkorlarimiz valyutalarining mustahkamlanishi fonida respublikamizga kirib keladigan pul o‘tkazmalari hajmining dastlabki prognozlarga nisbatan yuqori darajada *(2025-yil yakunlari bilan 15 foiz darajada)* shakllanishi, shuningdek, investitsiyalarning prognoz darajasidan *(9-10 foiz)* kam bo‘lmagan miqdorda shakllanishi iqtisodiy o‘sishning qo‘shimcha zaxiralarini moliyalashtirish imkonini yaratishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, jahonda oltin narxlarining kutilmalarga nisbatan sezilarli o‘sishi va yil yakunlariga qadar saqlanib qolishi sharoitida, YIM deflyatorining ham belgilangan prognozga nisbatan **1,5-2 foiz band** yuqori darajada shakllanishi 2025-2026-yillar uchun YIM nominal hajmini oshiruvchi omil bo‘lishi kutilmoqda.

III. Fiskal barqarorlikni ta’minlash

“O‘zbekiston–2030” strategiyasida mamlakat iqtisodiyotining izchil o‘sishi uchun fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilab berilgan.

2024-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonunga muvofiq, konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi YIMga nisbatan 4 foiz miqdorida tasdiqlangan bo‘lib, o‘tgan moliya yili davomida budjet intizomini yaxshilash choralari ko‘rilishi natijasida taqchillikni YIMning 3,3 foizigacha pasaytirishga erishildi.

Joriy yildan boshlab, makroiqtisodiy va budjet barqarorligini ta’minlash bo‘yicha uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini o‘rta muddatda YIMning 3 foiz darajasidan oshirmaslik ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Bunda, Davlat budjeti daromadlarini oshirish uchun o‘rta muddatda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish hisobiga soliq to‘lovchilar qamrovini oshirish va qo‘shimcha daromadlar manbasini yaratish, soliq-bojxona imtiyozlarini tanqidiy ko‘rib chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy samara bermayotgan imtiyozlarni bekor qilish hamda daromadlarni diversifikatsiya qilish ishlari davom ettiriladi.

Shuningdek, Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligi va manzilliligi ko‘rib chiqiladi hamda samarasiz deb topilgan xarajatlar va subsidiyalarni optimallashtirish choralari ko‘riladi.

Moliya yili davomida qo‘shimcha qabul qilinadigan loyihalarni joriy yilgi tushumlar doirasida amalga oshirish orqali jamg‘arma taqchilligiga yo‘l qo‘ymaslik choralari amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, davlat korxonalarini moliyaviy “sog‘lomlashtirish” orqali davlat korxonalariga ajratiladigan ssudalarni qisqartirib borish choralari ko‘riladi.

Yuqoridagilar natijasida budjet taqchilligi oshishining oldi olinadi hamda davlat qarzining YIMga nisbati 50 foizdan oshmasligini ta’minlash bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar kuchaytiriladi, shuningdek, uzoq muddatda qarzga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha budjet xarajatlari oshishining oldi olinadi.

Shuningdek, o‘rta muddatda Davlat budjetining **birlamchi taqchilligi**, ya’ni Davlat budjeti xarajatlaridan davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha foiz to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda hisoblanadigan Davlat budjeti taqchilligini **qisqartirish** choralari ko‘riladi.

Yuqoridagilar bilan birga fiskal xatarlarni boshqarish makrofiskal va DXSH loyihalari bo‘yicha xatarlar hamda ularning budjetga ta’sirini turli ssenariylarda tahlil qilish va bu borada kadrlar salohiyatini oshirish hamda makrofiskal xatarlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ochiqligini ta’minlash orqali yanada takomillashtiriladi.

3.1. Soliq siyosati

Tadbirkorlar uchun teng raqobat muhitini yaratish, soliq tizimini JST talablariga muvofiqlashtirishni jadallashtirish, “yashil soliqqa tortish” tamoyillari asosida soliq tizimini takomillashtirish, soliq tizimining adolatlilik tamoyillari asosida yuritilishini hamda budjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash soliq siyosatining o‘rta muddatdagi asosiy yo‘nalishlari sifatida saqlab qolinadi. Jumladan:

1) **Daromaddan olinadigan soliq stavkalarini takomillashtirish:**

– jismoniy va yuridik shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda gorizontal tenglikni ta’minlash, daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish va foyda solig‘i stavkalarini optimallashtirish;

– kichik tadbirkorlik subyektlari hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortishni soddalashtirish;

– pensiya jamg‘armasi daromadlari barqarorligini ta’minlash maqsadida ijtimoiy soliqdan imtiyozlar berishni qat’iylashtirish.

2) **QQS zanjirining yaxlitligini va uzluksizligini ta’minlash:**

– QQS zanjirining uzluksizligini ta’minlash uchun QQS bo‘yicha taqdim etilgan imtiyozlarni optimallashtirish ishlarini davom ettirish;

– QQSni qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish.

3) **Aksiz solig‘ini takomillashtirish:**

– JST talablariga muvofiq, alkogol mahsulotlaridan undiriladigan mahalliy va import tovarlariga aksiz solig‘i stavkalarini birxillashtirish;

– aksiz solig‘i stavkalarini inflatsiya darajasini inobatga olgan holda indeksatsiya qilib borish;

– aksizosti tovarlar ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish va aksiz solig‘ini hisoblash mexanizmini takomillashtirish.

4) **Atrof-muhitni asrashni rag‘batlantirish maqsadida resurs solig‘i stavkalarini qayta ko‘rib chiqish:**

– suvdan samarali foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish tizimini takomillashtirib borish;

– soliq solish maqsadida ko‘chmas mulkning bozor qiymatini aniqlash tizimini respublika bo‘ylab bosqichma-bosqich joriy etish va ko‘chmas mulk solig‘i stavkalarini shu asosda pasaytirish;

– yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini optimallashtirish hamda mazkur soliqlardan mahalliy budjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash;

– resurs soliqlari bo‘yicha taqdim etilgan barcha imtiyozlarning samaradorligini tahlil qilish va ularni bekor qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

5) Soliq tizimida adolatli, shaffof va barqaror muhit yaratish maqsadida soliq imtiyozlarini qisqartirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish.

– xalqaro tashkilotlar hamkorligida soliq xarajatlarini baholash bo‘yicha metodologiya ishlab chiqish;

– to‘lovlarda naqd pulsiz hisob-kitob ulushini oshirish va iqtisodiyotda tovarlar oqimining shaffofligini ta’minlash.

3.2. Budjet siyosati

3.2.1. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasidan kelib chiqib, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish uchun Davlat budjeti mablag‘lari ustuvor ravishda ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlash hamda islohotlarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladi.

1. Ta’lim va fan sohasini yangi bosqichga olib chiqish hamda qamrovini oshirish. Jumladan:

davlat MTTni to‘liq didaktik materiallar bilan ta’minlash;

maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga 1 500 nafar xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;

umumta’lim maktablari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, binolarni energiya saqlovchi materiallar bilan qayta ta’mirlash, energiya samarador isitish moslamalari bilan qayta qurish;

o‘quvchilar soni o‘sishini inobatga olgan holda yangi umumta’lim maktablarini qurish, mavjudlarining sig‘imini oshirish, xususan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 2026-yilda 360,5 mingdan, 2027-yilda 239 mingdan va 2028-yilda 313,7 mingdan ortiq qo‘shimcha yangi o‘quv o‘rinlarini yaratish;

umumiy o‘rta ta’lim sohasiga xususiy sektorni keng jalb qilish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilab borish;

umumta’lim maktablari uchun har yili 10 ming donadan ortiq yangilangan sport jihozlari to‘plamlari xarid qilishga mablag‘ ajratish orqali ularni to‘liq zamonaviy sport jihozlari bilan ta’minlash;

ta’lim tashkilotlarini sanitariya-gigiyena vositalari bilan to‘liq ta’minlash, ichimlik suvi ta’minoti va sanitariya-gigiyena obyektlari infratuzilmasini yaxshilash;

oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini jami bitiruvchilar soniga nisbatan **50 foizga** yetkazish, bunda oliy ta’lim sifatini va xususiy sektorlar rolini oshirish yuzasidan islohotlarni amalga oshirish;

davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura yo‘nalishida to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlar kontrakt to‘lovlarini budjetdan qoplab berish orqali ular ulushini jami magistrlar soniga nisbatan 30 foizdan oshirish;

oliy va professional ta’lim tashkilotlari bakalavr hamda magistraturaning kunduzgi ta’lim shaklida to‘lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun ta’lim krediti ajratish maqsadida resurslar ajratib borish;

doktoranturaga ajratilayotgan kvotalar sonini oshirib borish.

2. Sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish

a) 2026-yildan boshlab davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi mexanizmlarini respublikaning barcha hududlarida tatbiq etish va shu orqali sog‘liqni saqlash tizimida xususiy sektorni rag‘batlantirish.

Ma’lumot uchun: Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida joriy etilgan.

b) Ilg‘or xorijiy tajriba asosida **aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishning yangi tizimini** joriy etish:

xalqaro ilg‘or tajribaga asoslangan aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishning yangi modelini joriy qilish;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari, xususan, tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalari, oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar, mahalla tibbiyot punktlari faoliyatini yagona yondashuv asosida tashkil qilish orqali aholiga tibbiyotni yanada yaqinlashtirish;

aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishda oilaviy shifokor ulushini 70 foizga yetkazish;

sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish hamda tibbiyotda qog‘ozbozlikni kamaytirish orqali tibbiyot xodimlari yuklamasini 30 foizgacha kamaytirish;

aholining birlamchi tibbiy-sanitariya yordamidan roziligini 85 foizdan oshirish;

tibbiyot xodimlarini samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida moddiy rag‘batlantirish tizimini joriy qilish;

tibbiyot brigadalarining xodimlarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish.

v) Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektor ulushini oshirish va bosqichma-bosqich ular tomonidan aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarni davlat buyurtmasi sifatida xarid qilishni kengaytirish maqsadida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni ko‘rsatish borasida davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlarining hamkorligini ta’minlash va ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish.

3. Madaniyat va sport sohalarini yanada rivojlantirish

Madaniyat va sport sohalariga ajratiladigan mablag‘lar samaradorligini yanada oshirish uchun moliyalashtirish tartibini takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

a) Davlat teatrlari Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davlat buyurtmasini bajarish sharti bilan bosqichma-bosqich loyihaviy moliyalashtirish tizimiga o‘tkaziladi. Bunda, davlat buyurtmasini shakllantirishda o‘rtacha yillik spektakllar soni, bilet narxi, budjetdan tashqari tushumlarni hisobga olgan holda loyihaviy moliyalashtirish tizimini takomillashtirish.

Shuningdek, davlat teatrlarini saqlash bilan bog‘liq xarajatlarning budjetdan tashqari tushumlari hisobiga qoplanadigan ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish reja-jadvalini tasdiqlash.

b) Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan sport federatsiyalari faoliyatini Davlat buyurtmasi sifatida moliyalashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Bunda, mablag‘lar milliy terma jamoa a’zolarining Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari, jahon va Osiyo chempionatlarida erishgan natijalari, aholi, ayniqsa, yoshlarni ommaviy sportga jalb etish bo‘yicha amalga oshirgan ishlari va ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib mablag‘lar ajratiladi.

v) Madaniyat va sport sohasiga tegishli ko‘chmas mulk obyektlaridan samarali foydalanishni DXSH asosida tashkil etish maqsadida madaniyat va sport obyektlarini tadbirkorlarga DXSH asosida quyidagi shartlarda berish nazarda tutilmoqda:

– xususiy sherikka bino va inshootlarni qurish, ta’mirlash hamda jihozlash taklifi bilan berish;

– xususiy sherikka madaniyat markazlari faoliyatini boshqarish taklifi bilan berish.

3.2.2. Aholi farovonligini ta’minlash

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlashga qaratilgan budjet siyosatini yuritish mazkur Fiskal strategiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Aholi turmush darajasini oshirish, fuqarolarning real daromadlari o‘sishini ta’minlash va ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish maqsadida **budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorlari yillik inflatsiya darajasidan yuqori miqdorlarda oshirib boriladi**.

7-diagramma. Ish haqi o‘sish sur’atlari va inflatsiya darajasi, foizda



Izoh:

2023-yilda pensiya miqdori 1-apreldan va 1-dekabrdan hamda ish haqi 1-maydan va 1-dekabrdan 7 foizga oshirildi.

2024-yilda budjet tashkilotlarida ishlovchi pedagog va tibbiyot xodimlarining ish haqi 15 foizga oshirildi.

4-jadval. Ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdori qo‘shimcha oshirilishining budjetga ta’siri

	Oshuvchi miqdor	**Budjetga qo‘shimcha xarajat*** (yillik), *mlrd so‘m*
Budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi	+1 foiz	1 675
Pensiya	+1 foiz	861
Ijtimoiy nafaqalar	oilalar sonining qo‘shimcha 10 foizga oshishi	1 596

“” – 2026-yilgi prognoz ko‘rsatkichlar misolida.*

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-aprel holatiga respublika bo‘yicha o‘rtacha ish haqi miqdori 5,8 mln so‘mni tashkil etgan.

5-jadval. O‘rtacha oylik ish haqi dinamikasi

	2023	2024	**2025** 1-aprel
O‘rtacha oylik ish haqi* *(nominal), ming so‘m*	4 105,8	4 911,1	**5 796,1**
Nominal o‘sish, *foizda*	20,1	19,6	**18**
Inflatsiya darajasi, foizda *(dekabrdan dekabrgacha)*	8,8	9,8	**8****

“” Milliy statistika qo‘mitasi[8] ma’lumotlari; “**” – 2025-yil yakuni bilan kutilayotgan ijro.*

Aholi farovonligini ta’minlash uchun kelgusi yillarda ko‘p qavatli uy-joylarni qurish ko‘lamini kengaytirish, “Yangi O‘zbekiston” massivlarini barpo etishni jadallashtirish, **ipoteka bozorini** moliyaviy resurslar bilan ta’minlashda kapital bozorining rolini oshirish hamda tijorat banklari tomonidan ajratiladigan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish davom ettiriladi.

Uy-joy sharoitini yaxshilash dasturi doirasida 2026-yilda Davlat budjetidan jami **15,5 trln so‘m**, bunda:

ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badalning va foiz to‘lovlarining bir qismini qoplash uchun **2,7 trln so‘m subsidiya** mablag‘lari;

ipoteka kreditlarini ajratish uchun Davlat budjetidan tijorat banklariga **12,8 trln so‘m resurs mablag‘lari** yo‘naltirilishi prognoz qilinmoqda.

8-diagramma. Ipoteka dasturi doirasida jismoniy shaxslarga ajratiladigan mablag‘lar





[8] https://stat.uz/img/ish-haqi--kr_p98599.pdf

“Yangi O‘zbekiston” massivlarida yangi quriladigan infratuzilma inshootlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari (quyosh panellari va shu kabilar) hamda energiya tejovchi materiallar va uskunalardan keng foydalanish, massivlarning issiqlik ta’minotini qurishda muqobil issiqlik tizimlaridan (issiqlik nasoslari, quyosh suv isitish qurilmalari va shu kabilar) keng foydalanish amaliyoti davom ettiriladi.

Shuningdek, banklar tomonidan **“yashil”** uy-joy standarti talablari asosida qurilgan uy-joylarni sotib olish uchun jismoniy shaxslarga **“yashil”** ipoteka kreditlarini ajratish ko‘lami kengaytiriladi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi tomonidan mazkur kreditlarni qayta moliyalashtirish uchun XMI mablag‘larini jalb qilish choralari ko‘rib boriladi.

Shu bilan birga, **“eskrou”** tizimi *(shartnomaning tegishli shartlari bajarilganga qadar alohida hisobvaraqlarda mablag‘larni saqlash)* doirasida kamida **50 foiz**ga qurilgan ko‘p kvartirali uy-joylardan xonadon sotib olish uchun kreditlar ajratishga hamda ushbu kreditlar bo‘yicha Davlat budjetidan subsidiyalar to‘lashga ruxsat etiladi.

Shuningdek, **rasmiy daromadga ega bo‘lmagan fuqarolarga** ipoteka kreditini ajratish maqsadida ularning to‘lov qobiliyatini xarajatlar orqali “skoring” qilish tartibini takomillashtirish uchun **“Elektron hukumat”** tizimining idoralararo integratsion platformasiga vazirlik va idoralar tomonidan zarur ma’lumotlar o‘z vaqtida va uzluksiz kiritib borish amaliyoti joriy etiladi.

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” orqali to‘lanadigan nafaqalarning manzilliligini oshirish, muhim ijtimoiy soha va ijtimoiy himoya tadbirlariga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini ko‘paytirish choralari davom ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan JB bilan hamkorlikda olib borilgan tadqiqotlarga[9] muvofiq 2024-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 8,9 foizgacha pasaygan va 719 ming kishi kambag‘allikdan chiqarilgan.

[9] https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099062824104017042

9-diagramma. Kambag‘allik darajasi, *foizda*



Bunga asosiy omillar sifatida uy xo‘jaliklari daromadlarining oshishi, ish haqi miqdorining muntazam oshirib borilishi hamda Hukumat tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash dasturlarining kengaytirilganligi keltirilgan.

“**Kambag‘allikdan farovonlik sari**” dasturi doirasida aholini kambag‘allikdan chiqarish maqsadlari uchun 2026-yilda Davlat budjetidan 3,6 trln so‘m mablag‘ ajratilishi prognoz qilingan. Shu jumladan:

tanlab olingan tuman va shaharlarni jadal kompleks rivojlantirish uchun 1,1 trln so‘m;

tuman va shaharlarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida tadbirkorlikni rivojlanishiga turtki beruvchi “drayver” loyihalar uchun zarur infratuzilmani yaratishga 1 trln so‘m;

eng og‘ir ahvoldagi 1 000 ta mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun 1,5 trln so‘m mablag‘lar ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Kambag‘allikdan chiqarish dasturi doirasida “Nuroniy” jamg‘armasiga 0,3 trln so‘m mablag‘ ajratilishi rejalashtirilgan.

3.2.3. Davlat investitsiyalarini rivojlantirish

Investitsiya dasturlarini shakllantirish va ijro etish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2025-yilning fevral oyida xalqaro ekspertlar tomonidan Davlat investitsiyalarini boshqarishni baholash (PIMA Update and Climate PIMA) mezonlari asosida baholash o‘tkazildi.

Baholash natijalariga ko‘ra, budjet qoidalarining joriy etilganligi, kapital qo‘yilmalar budjetini rejalashtirish takomillashtirilganligi, investitsiya loyihalarini baholash, tanlash va monitoring qilishni kuchaytirish uchun yangi tartib-taomillarning tasdiqlanganligi, DXSH sohasida markazlashtirilgan nazorat va hisobotni, shu jumladan, ularning fiskal xatarlarini tasdiqlashdan oldin baholash va ko‘rib chiqish talabining kuchaytirilganligi bo‘yicha ijobiy baho berildi.

Shuningdek, davlat investitsiyalarini boshqarishni rivojlantirish maqsadida quyidagi ustuvor vazifalar maqsad qilib olindi:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi namunaviy metodologiyani ishlab chiqish:

– ijtimoiy, kommunal va yo‘l-transport sohalarini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibi;

– ushbu strategiyalarni iqlim bilan bog‘liq maqsad va vazifalar, iqlim o‘zgarishini yumshatish uchun kapital qo‘yilmalarga ehtiyojlar va tegishli KPI ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash va yangilash;

– investitsiya rejalarining milliy iqlim strategiyasiga muvofiqligini ta’minlash bo‘yicha tartibotlarni joriy etish.

2. XMI ekspertlarining tavsiyalarini inobatga olgan holda, shu jumladan, DXSH mexanizmlariga “Gateway”*(loyihani amalga oshirish jarayonida oraliq nazorat nuqtalarini tashkil etish. Har bir nazorat nuqtasida loyihaning maqsadga muvofiqligi, xatarlari, moliyalashtirilishi va keyingi bosqichga tayyorligini baholash)* jarayonlarini joriy qilish bo‘yicha davlat investitsiyalari boshqaruvini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani qayta ko’rib chiqish.

3. Amaldagi DIB tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar yuzasidan takliflar ishlab chiqish, jumladan:

– budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan kapital qo‘yilmalarning o‘rta muddatli ko‘rsatkichlarini aniqlash orqali investitsiya dasturlarini shakllantirish muddatlarini budjet jarayonlariga bog‘lash;

– investitsiya loyihalari ustuvorligini aniqlashda moliyalashtirish manbalari va amalga oshirish mexanizmlaridan qat’i nazar, loyihalarni iqlim o‘zgarishiga moslashtirish va uning oqibatlarini yumshatish mezonlarini joriy qilish;

– dastlabki loyihalarni ishlab chiqish, tanlash va baholash, shuningdek, vazirlik va idoralar o‘rtasida konsolidatsiyalashgan investitsiya dasturini muvofiqlashtirish bo‘yicha majburiyatlarni taqsimlash uchun yagona standart yondashuvlar va boshqarish mexanizmlarini joriy etish.

4. Xorijiy konsultantlarni jalb qilgan holda davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini o‘rganish va gender tahlilini o‘tkazish, gender nomuvofiqliklarni aniqlash (transport, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqalar) hamda o‘rganish va tahlillar asosida infratuzilma loyihalarini shakllantirish, tanlash va baholashda gender mezonlarini joriy etish uchun mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartishlar kiritish va (yoki) yangi hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar kiritish.

5. Cheklangan (yoki yagona) ishtirokchilar soniga ega bo‘lgan davlat xaridlari tartib-qoidalarini o‘rganish va tahlil qilish hamda o‘tkazilgan tahlil asosida davlat xaridlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

6. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga o‘zgartirishlar kiritish, jumladan:

– budjet tashkilotlari va muassasalarining xarajatlar smetalarida o‘rta muddatli istiqbolda ko‘zda tutilgan loyihalar bo‘yicha saqlash va texnik xizmat ko‘rsatish uchun ko‘zda tutilgan xarajatlarni alohida qatorda belgilash;

– davlat infratuzilmasini rivojlantirish doirasida infratuzilma loyihalarining iqlimga ta’siri bilan bog‘liq xatarlarni tahlil qilish.

7. Binolar, inshootlar va boshqa obyektlarning qiymati va texnik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan asosiy vositalar reyestrini ishlab chiqish hamda “DMBAT” va “Kapital qo‘yilmalar” axborot tizimlari bilan integratsiya qilish.

8. Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida budjetdan moliyalashtiriladigan yirik loyihalar ro‘yxati va ularni amalga oshirish jarayoni, loyihaning butun davri uchun kapital xarajatlarni ko‘rsatgan holda joylashtirish.

9. “Kapital qo‘yilmalar” axborot tizimini yanada takomillashtirish, baholash mezonlarining iqlim maqsadlariga muvofiqligini hisobga olgan holda loyihalarni dastlabki ishlab chiqish, tanlash va baholash jarayonlarini kiritish.

10. Bajarilgan loyihalarni investitsiyadan keyin monitoring qilish tartibiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqish. Bunda quyidagilarni ko‘zda tutish:

– amalga oshirilgan loyihalarni baholash tizimlari *(ex-post project evaluation – investitsiyadan keyingi monitoring)* hamda topshirilgan quvvatlardan foydalanish bo‘yicha standart hisobot shakllari va samaradorlik ko‘rsatkichlari, shu jumladan, moliyaviy, ijtimoiy, ishlab chiqarish, ekologik va iqlim ko‘rsatkichlarini;

– vazirlik va idoralar tomonidan tugallangan loyihalarni iqtisodiy baholash jarayonlariga ekspertlarni jalb qilish hamda yangi loyihalarni amalga oshirishda foydalanish uchun tahliliy ma’lumotlarni shakllantirish tizimlarini joriy qilish.

11. DIB sohasidagi vazirlik va idoralarning mansabdor shaxslari va mutaxassislari salohiyatini oshirish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda:

– PIMA va C-PIMA bo‘yicha yangi boshqaruv tamoyillari asosida loyihalarni tayyorlash, baholash, tanlash va monitoring qilish bo‘yicha o‘quv kurslari;

– iqlim jihatlarini tarmoq strategiyalari va investitsiya rejalarida inobatga olish, shu jumladan, iqlim bilan bog‘liq davlat investitsiyalari qiymatini baholash bo‘yicha treninglar;

– iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda tugallangan loyihalarni investitsiyadan keyin baholash bo‘yicha treninglar;

– DXSH shartnomalarini tuzish va boshqarish bo‘yicha o‘quv kurslarini muntazam ravishda o‘tkazish.

12. Investitsiya dasturlarini aniqlash, asosiy natijalar va moliyalashtirish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni aniqlash, dasturlarni texnik, ijtimoiy va ekologik ta’sirlar bo‘yicha baholash, salohiyatni oshirish, tizim samaradorligini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlashda PforR (Natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish dasturi) instrumentlaridan foydalanish.

13. Davlat resurslari hisobidan moliyalashtiriladigan kapital loyihalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar shaffofligini ta’minlash maqsadida budjetdan moliyalashtiriladigan asosiy kapital loyihalar ro‘yxati, shu jumladan, o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan mablag‘lar va loyihaning ekspluatatsiya davri davomidagi umumiy xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoritib borish choralari ko‘riladi.

3.2.4. Budjet xarajatlari samaradorligini oshirish

Budjet xarajatlari samaradorligini oshirishda kelgusi yillar uchun rejalashtiriladigan budjet xarajatlarining asosliligi va manzilliligiga hamda sohaga doir strategik maqsadlarga muvofiqligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Moliya yili davomida budjet xarajatlari va subsidiyalarning muhimliligi va natijadorligini doimiy o‘rganib borish orqali samarasiz deb topilgan hamda iqtisod qilinishi mumkin bo‘lgan xarajatlar optimallashtirib boriladi.

Shu bilan bir qatorda, vazirlik va idoralarning boshqaruv xodimlari ish haqi miqdorlarini oshirish bo‘yicha takliflar kiritish, **asosiy vositalar** va **tovar-moddiy zaxiralari**ni xarid qilish jarayonlari qo‘shimcha tartiblarni joriy etish yordamida takomillashtiriladi.

Shuningdek, 2026-yilda mebel va ofis jihozlari hamda tovar-moddiy zaxiralarini xarid qilish xarajatlari miqdorini joriy yilgi miqdorda saqlash (ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalaridan tashqari) taklif etilmoqda.

Davlat dasturlari natijadorligini ta’minlash va samaradorligini oshirish maqsadida XMIning **Natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish dasturi** instrumentidan foydalangan holda moliyalashtirishga bosqichma-bosqich o‘tish choralari ko‘riladi.

Misol uchun: PforR (Program for Results) – JB tomonidan davlat dasturlarini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatiladigan moliyalashtirish mexanizmi hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati shundaki, mablag‘lar faqat belgilangan va aniq natijalarga erishish uchun ajratiladi.

Bu yondashuv moliyalashtirishni bevosita natijadorlik va samaradorlik bilan bog‘laydi hamda an’anaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirish (Investment Project Financing) va rivojlanish siyosatini moliyalashtirish (Development Policy Financing) instrumentlaridan farq qiladi.

Mazkur moliyalashtirish mexanizmi Hukumat tashabbusi bilan ishlab chiqilgan dasturlar doirasida natijadorlik va samaradorlikni oshirish bilan birga, moliyaviy intizomni kuchaytirish hamda islohotlarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

XMIning natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish dasturlari yordamida davlat resurslari maqsadli yo‘naltiriladi, dastur natijalari esa doimiy monitoring va baholash orqali nazorat qilinadi. Bu esa islohotlarni amalga oshirishda hisobdorlik va shaffoflikni oshiradi.

XMIning natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish instrumentini qo‘llashdagi asosiy talablardan biri moliyalashtiriladigan dastur Hukumatning amaldagi strategiyasiga mos bo‘lishi va aniq natijalarga bog‘langan ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, dastur texnik jihatdan amalga oshiriladigan darajada tayyorlangan bo‘lishi va mamlakatning rivojlanish maqsadlariga muvofiq bo‘lishi talab etiladi.

3.3. Davlat qarzini boshqarish

Davlat qarzini mo‘tadil darajada saqlash va samarali boshqarish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan:

– “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi Qonunda davlat qarzining eng yuqori miqdori YIMning yillik prognoz ko‘rsatkichiga nisbatan 60 foizdan oshishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilandi. Bunda, davlat qarzining miqdori YIMga nisbatan 50 foizga yetgan taqdirda Vazirlar Mahkamasi davlat qarziga belgilangan me’yorlardan oshmasligini ta’minlovchi chora-tadbirlarni Parlamentga kiritadi;

– 2020-yildan boshlab yangi jalb qilinadigan davlat qarzi miqdorlarini qonuniy chegaralash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi;

– Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalarini va davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish hamda valyuta xatarlarini boshqarish maqsadida milliy valyutada qarz jalb qilish hamda ichki moliya bozorlarini rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda.

Davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish maqsadida yillik davlat g‘aznachiligi obligatsiyalarini joylashtirish hajmi oshirilib borilmoqda. 2025-yilning 1-yanvar holatiga davlat g‘aznachiligi obligatsiyalari qoldig‘i 39,2 trln so‘mni tashkil qildi. Shuningdek, 2020–2024-yillarda 11,8 trln so‘mlik milliy valyutadagi suveren xalqaro obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirildi.

Davlat g‘aznachiligi obligatsiyalari bozorini rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilgan chora-tadbirlar:

- **“Birlamchi dilerlik”** tizimi yo‘lga qo‘yildi va bugungi kunda 9 ta tijorat banklari (*O‘zbekiston “Milliy banki”, “Ipoteka bank”, “Xalq banki”, “Sanoat qurilish banki”, “Biznesni rivojlantirish banki”, “Asaka bank”, “Asia Alliance Bank”, “Ipak yo‘li bank”, “Kapital bank”)* tomonidan birlamchi dilerlik vazifasi bajarilmoqda;

- davlat g‘aznachiligi obligatsiyalarining **auksion kalendari** e’lon qilinishi yo‘lga qo‘yildi;

- bozorda oldindan e’lon qilingan auksion kalendariga asosan uzluksiz davlat g‘aznachiligi obligatsiyalari *(turli muomala davriga ega)* taklif qilinishi natijasida birlamchi bozorda **davlat g‘aznachiligi obligatsiyalari muomala davri 10 yilgacha uzaytirildi** hamda **foiz stavkalari sezilarli darajada barqarorlashdi**;

- xalqaro identifikatsiya kodlarini (ISIN) berish orqali davlat g‘aznachilik obligatsiyalarini joylashtirish amaliyoti va 1 ta identifikatsiya kodi (ISIN) doirasida **benchmark obligatsiyalari** chiqarilishi yo‘lga qo‘yildi;

- davlat g‘aznachilik obligatsiyalari bozorini rivojlantirish doirasida 2022–2024-yillarda XVJning **texnik ko‘mak**lari jalb qilindi va ekspertlar tavsiyalari amalda tatbiq etilmoqda;

•auksion natijalari bo‘yicha hisob-kitoblar **T + 0**, **T + 1 va T + 2** xalqaro standartlari asosida amalga oshirilmoqda;

•davlat g‘aznachilik obligatsiyalari bo‘yicha foiz to‘lovlarini to‘lash xalqaro standartlarga mos **har olti oyda** amalga oshirilmoqda;

•davlat g‘aznachilik obligatsiyalari bozoridagi operatsiyalar to‘g‘risidagi **axborotlar** *(auksion o‘tkazish bo‘yicha e’lonlar, auksion natijalari va investorlar uchun zaruriy ma’lumotlar)* muntazam ravishda Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank va O‘zbekiston Respublika valyuta birjasining rasmiy **veb-saytlarida** e’lon qilib kelinmoqda.

– Davlat korxonalari va banklari o‘z loyihalarini moliyalashtirish uchun, transformatsiya jarayonlariga muvofiq, jahon moliya bozorlarida davlat kafolatisiz mablag‘ jalb qilishga o‘tkazilmoqda;

*Davlat korxonalari hamda banklari tomonidan xalqaro me’yorlar va talablar asosida o‘z moliyaviy hisobotlarining shaffofligini ta’minlash, “Fitch”, “S&P” va “Moody‘s” xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holda xalqaro kredit reytingi olinishi natijasida 2019–2024-yillarda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “O‘zmilliybank” AJ, “Ipoteka-bank” ATIB, “Agrobank” ATB, “UzAvto Motors” AJ, “O‘zbekneftgaz” AJ va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ tomonidan umumiy hajmi qariyb **4,7 mlrd** AQSH dollarlik mablag‘lar xalqaro obligatsiyalar chiqarish orqali jalb qilindi.*

– XVJ tavsiyalariga asosan har chorakda davlat qarziga oid statistik ma’lumotlar[10] Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb-sahifasida doimiy ravishda e’lon qilinib kelinmoqda.

Budjet taqchilligi chegarasiga rioya qilish orqali taqchillikni hamda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun yangi jalb qilinadigan tashqi qarz mablag‘lari bo‘yicha belgilangan limitlarga amal qilinadi.

Bundan tashqari, jami davlat qarzida davlat g‘aznachilik obligatsiyalarini chiqarishning cheklangan sof hajmi ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish orqali **valyuta xatarlarini kamaytirish** hamda davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish bo‘yicha ishlar davom ettiriladi.

[10] *https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval*

IV. Konsolidatsiyalashgan budjet prognozlari

Konsolidatsiyalashgan budjetning 2026–2028-yillardagi prognozlari jahon iqtisodiyotida noaniqliklar saqlanib qolinishini inobatga olib, makro-fiskal barqarorlikni ta’minlash uchun budjet taqchilligining cheklangan miqdori doirasida ishlab chiqildi.

6-jadval. Konsolidatsiyalashgan budjet parametrlari, *trln so‘m*

	Ijro		Parametr	Kutilma	Prognoz*		
	2023	**2024**	**2025**		**2026**	**2027**	**2028**
Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari	**321,9**	**381,4**	**431**	**474,9**	**509,8**	**578,4**	**648,8**
Davlat budjeti	231,7	274,4	308,5	335,6	372,4	426,6	484,7
DMJ*	47	55,2	66,4	68,1	73,8	81,6	90,5
TTJ	11,3	16	22,2	28,6	23,7	25,4	26,6
Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari	32,4	36,5	33,8	42,5	39,9	44,8	47
Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari	**381**	**429,3**	**480,5**	**526,9**	**568,6**	**645,4**	**724,7**
Davlat budjeti	281,1	310,9	344,8	378,7	408,9	468,3	532,9
DMJ*	43,3	50,2	62,8	65,2	71,1	77,4	85,8
TTJ	16,2	20,4	20,3	27	23,7	25,4	26,6
Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari	31,2	34,7	33,8	40,2	39,9	44,8	47
Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	9,3	15	18,8	18,8	25	29,6	32,4
DMJga transfertlar	**31**	**34,8**	**54,4**	**56,9**	**61**	**69**	**74,8**
Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi	**-59,2**	**-47,8**	**-49,5**	**-52,1**	**-58,8**	**-67**	**-75,9**
Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi YIMga nisbatan, foizda	**-4,9**	**-3,3**	**-3**	**-3**	**-3**	**-3**	**-3**
Davlat budjeti va DMJ taqchilligi	-46,2	-32,1	-32,6	-40,1	-33,8	-37,5	-43,5
Davlat budjeti va DMJ taqchilligi YIMga nisbatan, foizda	-3,8	-2,2	-2	-2,3	-1,7	-1,7	-1,7
Davlat budjetining birlamchi taqchilligi YIMga nisbatan, foizda	-3,2	-1,2	-0,7	-1,1	-0,4	-0,2	-0,2

** – Budjetlararo transfertlarsiz*

10-diagramma. 2026-yil uchun konsolidatsiyalashgan budjet tarkibi



* *transfertlarsiz*

Budjet taqchilligi va budjet oldidagi boshqa majburiyatlar hamda uni moliyalashtirish manbalari.

11-diagramma. Konsolidatsiyalashgan budjet balansi, *YIMga nisbatan foizda.*



**.- 2025-yil – kutilayotgan ijro*

2024-yilda soliq ma'murchiligini yaxshilash bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida Davlat budjeti daromadlarining tasdiqlangan budjetga nisbatan oshishi, moliya yili davomida samarasiz xarajatlarning optimallashtirilishi natijasida budjet taqchilligi tasdiqlangan ko'rsatkichga nisbatan 0,7 foiz bandga past (YIMning 3,3 foizi) bajarilishiga erishildi.

12-diagramma. Taqchillik, *YIMga nisbatan foizda.*



2026-2028-yillarda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini, shuningdek, davlat qarzining asosiy qismini qaytarish hamda tijorat banklariga joylashtiriladigan resurslar, shu jumladan, uy-joy dasturi uchun ajratiladigan xarajatlarni 7-jadvalda ko‘rsatilgan manbalar hisobidan qoplash rejalashtirilgan.

7-jadval. Budjet majburiyatlarini moliyalashtirish manbalari, *trln so‘m*

	2023	2024	2025*	2026	2027	2028
Tashqi qarz	38,4	56,5	39	39,9	41,1	42,3
Ichki qarz**	16,1	26,2	25,2	25,2	25,2	25,2
Davlat aktivlarini xususiylashtirish hisobidan	5,7	5,4	10	12	14	15
Budjet ssudalarining qaytishi, respublika budjetining, DMJ budjetlarining va budjetdan tashqari jamg‘armalarning qoldiq mablag‘lari hamda boshqa manbalar	23,9	12,8	40,1	10,6	13,2	37,7

** – 2025-yil yakuni bilan kutilayotgan ijro;*

*** – Davlat g‘aznachilik obligatsiyalarini chiqarishdan tushadigan tushumlar*

13-diagramma. 2026-yilda budjet majburiyatlarini moliyalashtirish manbalari, *mlrd AQSH doll.*



8-jadval. O‘zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan budjet ko‘rsatkichlari milliy prognozining xalqaro tashkilotlar prognozlari bilan taqqoslama jadvali, *YIMga nisbatan foizda*.

		2023	2024	2025	2026	2027	2028
JB[11]	Daromadlar	25,9	25,9	25,6	25,8	25,7	x
	Xarajatlar	31,5	29,2	28,6	28,8	28,7	x
	Fiskal balans	-5,5	-3,3	-3	-3	-3	x
XVJ[12]	Daromadlar	26,7	26,5	26,3	26,4	x	x
	Xarajatlar	31,6	29,7	29,3	29,4	x	x
	Fiskal balans	-4,9	-3,2	-3	-3	x	x
Milliy prognoz	Daromadlar	26,7	26,2	27,8	26,1	26	25,7
	Xarajatlar	31,6	29,5	30,8	29,1	29	28,7
	Fiskal balans	-4,9	-3,3	-3	-3	-3	-3

[11] https://www.worldbank.org/en/publication/macro-poverty-outlook/mpo_eca
[12] https://www.imf.org/en/News/Articles/2025/04/23/mcs-042325-uzbekistan-staff-concluding-statement-of-the-2025-article-iv-mission

14-diagramma. XVJning O‘zbekiston va uning asosiy hamkor davlatlari budjet ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumoti.

Manba: https://www.imf.org/en/Publications/FM/Issues/2025/04/23/fiscal-monitor-April-2025.

4.1. Davlat budjeti daromadlari prognozlari va tahlillari

2026-yilda Davlat budjeti daromadlari prognozi **372,4 trln so‘mni** yoki YIMga nisbatan 19,1 foizni tashkil etishi prognoz qilingan.

9-jadval. Davlat budjeti daromadlari, *trln so‘m*

	Ijro		Parametr	Kutilma	Prognoz		
	2023	2024	2025	2025	2026	2027	2028
Davlat budjeti daromadlari, jami	**231,7**	**274,4**	**308,5**	**335,6**	**372,4**	**426,6**	**484,7**
Bevosita soliqlar	**73,1**	**90,9**	**100,3**	**112,4**	**122,3**	**142,2**	**161,1**
Foyda solig‘i	40,8	52,7	54,8	66,2	69,7	80,5	89,5
Aylanmadan olinadigan soliq	2,4	2,8	3,5	3,4	3,7	4,4	5,3
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	29,9	35,4	42	42,8	48,8	57,3	66,3
Bilvosita soliqlar	**83,3**	**88,3**	**104,7**	**103**	**121,5**	**137,9**	**159,8**
QQS	57,9	59,3	71,8	71,1	84,1	96,4	112,9
Aksiz solig‘i	15,8	19,1	21,4	21,8	24,8	28,2	32,2
Bojxona boji	9,6	10	11,5	10,1	12,6	13,3	14,6
Resurs soliqlari	**28,1**	**36,4**	**38,7**	**43,9**	**46,7**	**53,8**	**60,8**
Mol-mulk solig‘i	5,1	6,8	7,7	8	9,2	10,8	12,9
Yer solig‘i	6,9	8,2	9,2	9,9	11,2	13,1	15,7
Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	15,3	20,2	20,7	24,9	25,2	28,6	30,7
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,8	1,2	1,2	1,1	1,1	1,3	1,5
Boshqa daromadlar	**47,2**	**58,8**	**64,6**	**75,7**	**81,9**	**92,6**	**102,9**

15-diagramma. Soliq turlarining jami daromadlar ulushidagi dinamikasi, *foizda*



Bevosita soliqlar 2026-yilda **122,3 trln so‘mni** yoki Davlat budjeti umumiy daromadlarining **32,6 foizini** yoki YIMga nisbatan **6,3 foizni** tashkil qilishi prognoz qilingan.

Bilvosita soliqlar daromadlarning asosiy tarkibini tashkil qilishda davom etgan holda **121,5 trln so‘mni** tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Bunda Davlat budjeti umumiy daromadlarining **32,6 foizini** yoki YIMga nisbatan **6,2 foizni** tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i bo‘yicha tushumlar **46,7 trln so‘mni,** Davlat budjeti daromadlarining **12,5 foizini** yoki YIMga nisbatan **2,4 foizni** tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

Davlat budjetining **boshqa daromadlari va soliqsiz tushumlari** 2026-yilda **81,9 trln so‘mni**, Davlat budjeti umumiy daromadlarining **22 foizini** yoki YIMga nisbatan **4,2 foizni** tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

2027-2028-yillar uchun Davlat budjeti daromadlarining dastlabki mo‘ljallari asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozidan va soliq-bojxona siyosatida ko‘zda tutilayotgan o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Ko‘zda tutilayotgan o‘zgarishlar, iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, 2027-yil uchun Davlat budjeti daromadlari mo‘ljallari **426,6 trln so‘m**, 2028-yilda **484,7 trln so‘m** miqdorida prognoz qilinmoqda.

4.2. Davlat budjeti xarajatlarining prognozlari va tahlili

Davlat budjeti jami xarajatlari 2026-yilda YIMga nisbatan 2023-yilgi 23,3 foizdan 19,1 foizgacha pasayishi va 2028-yilgacha ushbu miqdor atrofida saqlanishi prognoz qilinmoqda.

2026-yilda Davlat budjeti xarajatlari 408,9 trln so‘m miqdorida yoki 2025-yil uchun kutilayotgan ijroga nisbatan 8 foiz ko‘p mablag‘lar ajratilishi prognoz qilingan.

Budjet barqarorligini ta’minlash bo‘yicha qat’iy choralarni amalga oshirish orqali 2028-yilga kelib Davlat budjeti birlamchi taqchilligini bosqichma-bosqich qisqartirish, ya’ni davlat qarziga xizmat ko‘rsatish foiz to‘lovlarisiz Davlat budjeti xarajatlari miqdorini kamaytirish choralari ko‘riladi.

10-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining budjet darajalari bo‘yicha tahlili, *trln so‘m*

	Ijro		Parametr	Prognoz		
	2023	**2024**	**2025**	**2026**	**2027**	**2028**
Davlat budjeti	**281,1**	**310,9**	**344,8**	**408,9**	**468,3**	**532,9**
Respublika budjeti	179,4	224,1	263,2	319,4	373,7	432,2
Mahalliy budjetlar	101,7	86,8	81,6	89,5	94,5	100,7

Izoh:

2024-yilda nasos stansiyalarini saqlash, ijtimoiy nafaqalar, mehribonlik uylari, maxsus maktab-internatlarini saqlash xarajatlari mahalliy budjetlardan respublika budjetiga o‘tkazildi.

2025-yilda MTT va umumta’lim tashkilotlari hamda ixtisoslashtirilgan maktablarini qurish-ta’mirlash va jihozlashga doir xarajatlar respublika budjetiga o‘tkazildi.

4.2.1. Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnif bo‘yicha prognozlari

Vazifa jihatdan tasnif bo‘yicha Davlat budjeti xarajatlarining tarkibi XVJning GFS–2014 standartida keltirilgan Davlat funksiyalarini tasniflash mezoni asosida qayta shakllantirildi (11-jadval).

Bunda avvalgi yillardan farqli ravishda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish xarajatlari (markazlashgan investitsiya) har bir soha tarkibida ko‘zda tutildi.

Shuningdek, aholi uchun yetkazilgan tabiiy gaz va issiqlik ta’minoti hamda jamoat transportida aholiga past tariflarni qo‘llanilishi natijasida ko‘rilgan zararni qoplash uchun davlat budjetidan ajratiladigan subsidiyalar ijtimoiy soha tarkibida inobatga olindi.

16-diagramma. Davlat budjeti xarajatlari tarkibi



Izoh: 2025-yil – kutilayotgan ijro

11-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining vazifa tasnifi bo‘yicha tahlili, *trln so‘m*

		Ijro		Parametr	Kutilma	Prognoz		
		2023	2024	2025	2025	2026	2027	2028
	Xarajatlar, jami	**281,1**	**310,9**	**344,8**	**378,7**	**408,9**	**468,3**	**532,9**
	shundan, markazlashgan investitsiya	*17,4*	*19,7*	*16,2*	*22,3*	*19*	*22,1*	*25,1*
1	**Ijtimoiy soha**	**163,3**	**174,4**	**197,4**	**205,6**	**228,9**	**261,7**	**295,9**
	Ta’lim	65,4	77,2	88,3	92,1	96,8	117,7	133,2
	Sog‘liqni saqlash	32,4	37,6	42,6	44	46,4	52,6	59,7
	Madaniyat	3,1	3,3	4	4,3	4	4,9	5,2
	Sport	3	3,7	3,5	4	3,7	4	4,3
	Fan	1,8	2	2,3	2,2	2,5	2,8	3
	Nafaqalar, moddiy yordam va aholiga boshqa imtiyozli to‘lovlar	19,2	15,5	17,3	17,4	16,5	20,6	22,8
	Aholi uchun past narxda yetkazilgan energo resurslar va jamoat transportida aholini tashish xarajatlarining bir qismini qoplash	20,8	15,8	15,3	15,3	12,9	12,8	12,6
	Aholi bandligi va farovonligini oshirish xarajatlari	2,7	1,7	2,2	2,3	2,3	2,8	2,9
	Pensiya jamg‘armasiga transfertlar	13,8	16,3	18,5	20,2	23	24,8	26
	Ipoteka krediti bo‘yicha subsidiyalar	1,1	1,4	2,5	2,5	2,7	3	3,3
	Uy-joy dasturi uchun tijorat banklariga resurs mablag‘lari					12,8	12	11
2	**Iqtisodiyot xarajatlari**	**41,1**	**40,7**	**45,8**	**52,7**	**54,5**	**56,9**	**64,3**
3	**Davlat boshqaruvi va hokimiyati organlari**	**18,2**	**20,2**	**19,5**	**20,7**	**21,7**	**24,6**	**26,7**
4	**O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash hamda NNTni qo‘llab-qo‘vvatlash**	**0,6**	**1,3**	**1,4**	**1,4**	**1,5**	**1,5**	**1,5**
5	**Zaxira jamg‘armalari**	**1,7**	**2,8**	**1,8**	**1,8**	**2,1**	**2,2**	**2,3**
	Yer uchastkalarining olib qo‘yilishi bilan bog‘liq aholi zararlarini qoplash	**0,7**	**0,6**	**0,6**	**0,6**	**0,7**	**0,8**	**0,8**
6	**Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha foiz to‘lovlari**	**8,2**	**14,5**	**21,1**	**20,9**	**25,6**	**33,1**	**39,5**
7	**Boshqa xarajatlar**	**47,3**	**56,6**	**57,3**	**75**	**73,9**	**87,5**	**101,9**

Izoh:

– Markazlashgan investitsiya xarajatlari har bir soha tarkibida inobatga olingan bo‘lib, investitsiya xarajatlarining sohalar bo‘yicha yoyilmasi mazkur Fiskal strategiyaning 12-jadvalida keltirilgan.

– Ijtimoiy himoya xarajatlarining 2025-yilda tasdiqlangan budjetga nisbatan oshishi asosan 02.04.2025-yildagi PQ–134-son qarorga muvofiq aholining ehtiyojmand qatlamiga bir martalik moddiy yordam hamda kompensatsiya to‘lovlari uchun qo‘shimcha xarajatlar ajratilishi bilan izohlanadi.

17-diagramma. Ta’lim xarajatlari tarkibi, *trln so‘m*



18-diagramma. Energo resurslar va jamoat transportida aholini tashish xarajatlarining bir qismini qoplash xarajatlari, trln so‘m



19-diagramma. Iqtisodiyot sohasi yirik xarajatlari, trln so‘m



12-jadval. Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi, *trln so‘m*

	Ijro		Parametr	Prognoz	Mo‘ljal	
	2023	**2024**	**2025**	**2026**	**2027**	**2028**
Jami	**17,4**	**19,7**	**16,2**	**19**	**22,1**	**25,1**
Ijtimoiy soha, shu jumladan:	**5,7**	**7,8**	**5,6**	**7,2**	**6,6**	**7,5**
Umumta’lim maktablari	2,2	3,8	3	4,4	3,5	4,1
MTT	0,9	1	1	1	1,3	1,5
Tibbiy va tibbiy-ijtimoiy muassasalar	1,3	1,4	1,2	1,3	1,3	1,5
Oliy ta’lim muassasalari	0,7	0,7	0,1	0,2	0,1	0,1
Jismoniy tarbiya va sport	0,4	0,5	0,2	0,2	0,2	0,2
Madaniyat va san’at	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari	**3**	**1,6**	**1,7**	**2,1**	**2,3**	**2,8**
Suv ta’minoti va kanalizatsiya	2,6	1,3	1,2	1,5	1,8	2,2
Issiqlik ta’minoti	0,5	0,3	0,5	0,7	0,5	0,5
Yo‘l-transport infratuzilmasini yaxshilash bilan bog‘liq xarajatlar	**3,1**	**3**	**2,7**	**2,6**	**4,1**	**5,5**
Irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish ta’mirlash ishlari uchun	**1,3**	**2**	**1,4**	**1,7**	**1,7**	**1,7**
Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hamda yirik ishlab chiqarish loyihalarini infratuzilma bilan ta’minlash	**0,4**	**1**	**1,7**	**1,8**	**4,6**	**4,9**
Turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo‘l infratuzilmalarini yaxshilash	**0,1**	**0,3**	**0,4**	**0,4**	**0,5**	**0,5**
Boshqa yo‘nalishlar	**3,8**	**4**	**2,7**	**3,2**	**2,2**	**2,2**

4.2.2. Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo‘yicha prognozlari

Iqtisodiy tasnif bo‘yicha Davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismini **ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari** tashkil etib, ushbu xarajatlar jami Davlat budjeti xarajatlarining 2026-yilda 41,9 foizini tashkil etishi yoki YIMga nisbatan 8,8 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Jumladan, 2026-yilda ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari uchun 171,4 trln so‘m yoki 2025-yilgi tasdiqlangan rejaga nisbatan 17,1 trln so‘mga ko‘p mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Shundan ijtimoiy sohaning ish haqi xarajatlari 106,6 trln so‘mni yoki jami ish haqi xarajatlarining 62,2 foizini tashkil qiladi.

13-jadval. Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo‘yicha yoyilmasi*, trln so‘m*

		ijro	ijro	parametr	prognoz	mo‘ljal	
		2023	2024	2025	2026	2027	2028
	Jami xarajatlar	**281,1**	**310,9**	**344,8**	**408,9**	**468,3**	**532,9**
	shundan:						
1	**Ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari**	**114,4**	**131,2**	**154,3**	**171,4**	**193**	**215,9**
2	**Stipendiyalar**	**1,5**	**1,7**	**2**	**2,3**	**2,5**	**2,8**
3	**Markazlashgan investitsiya xarajatlari**	**17,4**	**19,7**	**16,2**	**19**	**22,1**	**25,1**
4	**Tovar va xizmatlar bo‘yicha xarajatlar**	**24,5**	**25,3**	**26,4**	**29**	**31,9**	**35,1**
4.1	Xizmat safarlari xarajatlari	0,2	0,3	0,4	0,4	0,4	0,4
4.2	Kommunal to‘lovlar, shundan:	8,4	8,7	10,3	10,6	10,9	11,7
	elektroenergiya	7,4	7,4	8,4	8,4	8,6	9,2
	tabiiy gaz	0,4	0,4	0,6	0,7	0,7	0,8
	issiq suv va issiqlik energiyasi	0,3	0,5	0,7	0,9	1	1,1
	sovuq suv va kanalizatsiya	0,3	0,3	0,5	0,4	0,5	0,5
	chiqindi	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
4.3	Saqlash va joriy ta’mirlash	2,1	1,2	1,7	1,7	1,7	1,7
4.4	Tovar-moddiy zaxiralariga xarajatlar, shu jumladan:	8,5	9,7	13,5	14,8	16,3	17,9
	oziq-ovqat mahsulotlari	3,3	3,7	6,1	6,7	7,6	8,4
	dori-darmonlar va tibbiy vositalar	3,1	3,3	4,2	4,6	5,1	5,6
	yonilg‘i va YOMM	0,7	0,8	1,7	1,9	2	2,3
5	**Asosiy vositalar bo‘yicha xarajatlar**	**5,1**	**5,1**	**5,3**	**5,3**	**5,3**	**5,3**
	asosiy vositalarni sotib olish	4	4,2	3,8	3,8	3,8	3,8
6	**Foiz to‘lovlari**	**8,2**	**14,5**	**21,1**	**25,6**	**33,1**	**39,5**
7	**Subsidiyalar**	**29,4**	**25,9**	**28,3**	**28,8**	**29**	**30,2**
8	**DMJ va boshqa jamg‘armalarga budjetdan ajratiladigan transfertlar**	**30,7**	**34,8**	**39,5**	**38,8**	**43,4**	**45,7**
9	**Nafaqalar, moddiy yordam va aholiga boshqa imtiyozli to‘lovlar**	**19,2**	**15,5**	**17,3**	**16,5**	**20,6**	**22,8**

14-jadval. Ijtimoiy soha tashkilotlarining ish haqi xarajatlari, *trln so‘m*

		ijro	ijro	parametr	prognoz	mo‘ljal	
		2023	2024	2025	2026	2027	2028
	Jami	**65**	**83,9**	**95,5**	**106,6**	**120,6**	**135,4**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi	37,5	47,1	54,1	61,5	69,7	78,5
2	Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim	4,3	5,3	6,9	5,3	6,2	6,8
3	Sog‘liqni saqlash	19,9	27,3	29,6	34	38,4	43,2
4	Madaniyat	1,2	1,6	1,9	2,4	2,6	2,9
5	Sport	1,4	1,7	2	2,2	2,4	2,7
6	Fan	0,7	0,9	1	1,2	1,3	1,4

20-diagramma. Iqtisodiy tasnif bo‘yicha 2026-yilgi xarajatlar ulushi, *jami xarajatga nisbatan foizda*



4.2.3. Davlat dasturlari uchun ajratiladigan mablag‘lar prognozlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlariga muvofiq qabul qilingan **Davlat dasturlari va tadbirlarni** amalga oshirish uchun Davlat budjetidan 2026-yilda jami **70,9 trln so‘m** mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Ushbu mablag‘lar iqtisodiyot, ijtimoiy soha, transport-kommunikatsiya, texnik-muhandislik, energetika obyektlarini qamrab olgan infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlash imkonini beradi.

Jami budjetdan ajratiladigan subsidiyalar miqdori 2023-yilda jami Davlat budjeti xarajatlarining 10,4 foizini tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2026-yilda 7,1 foiz, 2028-yilga kelib 6 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

15-jadval. Davlat dasturlari va tadbirlar bo‘yicha jami xarajatlar, *trln so‘m*

		ijro	ijro	parametr	prognoz	mo‘ljal	
		2023	2024	2025	2026	2027	2028
	Jami xarajatlar*	**15,4**	**26,6**	**23**	**33,3**	**36,2**	**38**
1	Ta’lim	4,1	5	6	5,5	7	7,5
	Maktabgacha va maktab ta’limi	2,1	2,2	2,8	3,2	3,7	4,3
	Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim	2	2,8	3,2	2,3	3,2	3,3
2	Fan	1,4	1,8	2	2,1	2,5	2,7
3	Sog‘liqni saqlash	1,4	2,1	2,5	2,8	3,4	3,7
4	Madaniyat	0,6	0,6	0,8	0,6	0,7	0,8
5	Sport	0,6	0,9	0,7	0,7	0,8	0,9
6	Uy-joy dasturi uchun tijorat banklariga resurs mablag‘lari				12,8	12	11
7	Boshqa ijtimoiy himoya tadbirlari	0,3	0,5	0,6	0,8	1	1
8	Tadbirkorlik va aholi bandligini ta’minlash	0,6	0,6	0,7	0,6	0,7	0,8
9	Qishloq va suv xo‘jaligi, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish	0,9	0,9	1,5	1,4	1,6	1,9
10	Iqtisodiyot	1,1	1,7	1,9	1,7	1,6	1,7
11	Boshqalar	4,6	12,4	6,1	4,4	5,1	6,1

** - Subsidiyalarsiz*

16-jadval. Budjet subsidiyalari*, trln so‘m*

		ijro	ijro	Parametr	Prognoz	Mo‘ljal	
		2023	2024	2025	2026	2027	2028
	Jami subsidiyalar	**29,4**	**25,9**	**28,4**	**28,8**	**29**	**30,2**
1	**Ijtimoiy ahamiyatga ega subsidiyalar**	**25,3**	**21,4**	**22,4**	**23**	**23,5**	**24,2**
	shundan						
	Nodavlat MTTlarga subsidiyalar	2,7	3,3	3,8	4,4	4,8	5,5
	Aholi tomonidan uy-joylar sotib olish uchun subsidiyalar	1,1	1,4	2,5	2,7	3	3,3
	Jamoat transporti zararlarini qoplash	0,9	1,9	2,2	2,2	2,4	2,7
	Issiqlik ta’minoti korxonalari zararini qoplash	1,7	3,9	4,8	4	4	4
	Tabiiy gazni sotib olish va sotish narxlaridagi tafovutni qoplash	18	9,5	7	5,9	5,5	5
	Elektr energiyani sotib olish va sotish narxlaridagi tafovutni qoplash	-	0,5	0,5	-	-	-
2	**Tadbirkorlikni rivojlantirish va aholini bandligini ta’minlash**	**1,9**	**2**	**2,6**	**1,7**	**2**	**2,1**
	shundan						
	Kredit foiz xarajatlarini kompensatsiya qilish jamg‘armasi xarajatlari	-	0,7	0,8	0,6	0,6	0,5
	Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasiga ajratiladigan mablag‘lar	-	0,7	0,7	0,5	0,6	0,7
3	**Qishloq va so‘v xo‘jaligi sohasi**	**1,1**	**1,7**	**2,5**	**3,4**	**2,8**	**3,3**
	shundan						
	Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi orqali moliyalashtiriladigan xarajatlar	0,8	0,7	0,8	0,8	0,9	1,1
	Paxta xom ashyosini yetishtiruvchilar tomonidan tomchilatib sug‘orishni joriy etish xarajatlarining bir qismini qoplash	0,1	0,2	0,3	0,3	0,4	0,4
	Qishloq xo‘jaligida paxtani mashina orqali terish xarajatlarini bir qismini subsidyalash	-	-	0,4	0,4	0,4	0,5
5	**Geologiya-qidiruv ishlari**	**1**	**0,9**	**0,9**	**0,7**	**0,7**	**0,7**

4.2.4. Xarajatlarning “Davlat moliyasi statistikasi-2014” xalqaro standart bo‘yicha tahlili

Konsolidatsiyalashgan budjet ko‘rsatkichlarini XVJning Davlat moliyasi statistikasi (GFS – 2014) qo‘llanmasiga muvofiqlashtirishdan maqsad iqtisodiy hodisalarning davlat moliyasiga, jumladan, soliq siyosatiga, davlat qarzi siyosatiga hamda investitsiya siyosatiga ta’sirini tahlil qilish va baholash hisoblanadi.

Bundan tashqari, davlat moliyaviy sektorining likvidligi va barqarorligini izchil va tizimli ravishda baholash imkonini beradi.

17-jadval. Davlat moliyasi statistikasi GFS-2014 bo‘yicha yoyilmasi, *2026-yil uchun, mlrd so‘m*

	Daromad	Xarajat	Balans	YIMga nisbatan
A. Milliy konsolidatsiyalashgan budjet balansi	**509 799**	**568 639**	**-58 840**	**-3,0**
A1 Davlat budjeti	372 383	408 893	-36 510	
A2. DMJ	73 844	71 141	2 702	
A3. TTJ	23 717	23 717	0	
A4. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari	39 856	39 856	0	
A5. Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar		25 032	-25 032	
B. Xalqaro standartlarga muvofiq chegirib tashlangan moliyaviy operatsiyalar, jami	**-18 071**	**-31 420**	**13 350**	**0,7**
Moliyaviy operatsiyalarni chegirib tashlash (-):	**-18 071**	**-31 420**	**13 350**	**0,7**
Moliyaviy operatsiyalardan kirim:	**-18 071**	**-40**	**-18 031**	
TTJ	*-16 066*		*-16 066*	
DMJ tomonidan ajratiladigan kreditlar	*-2 004*	*-40*	*-1 964*	
Moliyaviy operatsiyalardan chiqim:	**0**	**-31 380**	**31 380**	
Tashqi manbalar hisobidan moliyalashtirilgan kreditlar		*-8 344*	*8 344*	
TTJ investitsiya portfeli		*-8 759*	*8 759*	
TTJning kredit portfeli		*-14 277*	*14 277*	
C. Davlat moliyasi statistikasi (GFSM 2014) uslubiyoti asosida daromad, xarajat va sof kreditlash/ qarz olish hajmi (A+B)	**491 729**	**537 219**	**-45 490**	**-2,3**
D. Konsolidatsiyalashgan budjet tarkibida ajratiladigan kreditlar hajmi (+)	**18 071**	**31 420**	**-13 350**	**-0,7**
TTJ				
Avval ajratilgan kreditlardan tushum	*16 066*		*16 066*	
Kredit portfeli		*14 277*	*-14 277*	
Investitsiya portfeli		*8 759*	*-8 759*	
Tashqi manbalar hisobidan moliyalashtirilgan kreditlar		8 344	-8 344	
DMJ tomonidan ajratiladigan kreditlar	2 004	40	1 964	
E. Umumiy fiskal balans (C+D)	**509 799**	**568 639**	**-58 840**	**-3,0**

4.2.5. Xarajatlarning BRMM bo‘yicha tahlili

Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarida nazarda tutilgan ko‘rsatkichlarning sifatli bajarilishi, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishilishini ta’minlash maqsadida Davlat budjeti xarajatlari BRMMning 16 ta maqsadi kesimida tahlil qilindi.

2026-yilda Davlat budjeti jami xarajatlarining 72,6 foizi BRMMni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi prognoz qilinmoqda.

21-diagramma. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat budjeti xarajatlari

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar	2026		2027		2028	
	mlrd so‘m	Xarajatlar-dagi ulushi, foizda	mlrd so‘m	Xarajat lardagi ulushi, foizda	mlrd so‘m	Xarajat-lardagi ulushi, foizda
Jami	**296 674,5**	**72,6**	**346 200,8**	**73,9**	**386 947,6**	**72,6**
1-maqsad. Barcha joylarda aholining kam ta’minlanganlik darajasini pasaytirish	41 201,8	10,1	46 780,5	10	50 224,2	9,4
2-maqsad. Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish	2 318,2	0,6	2 578,0	0,6	2 727,3	0,5
3-maqsad. Sog‘lom turmush tarzini ta’minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko‘maklashish	44 854,0	11,0	50 472,2	10,8	58 455,4	11,0
4-maqsad. Umumqamrovli va adolatli sifatli ta’limni ta’minlash hamda barchaga butun umri davomida ta’lim olish imkoniyatini rag‘batlantirish	92 151,4	22,5	112 130,8	23,9	126 201,5	23,7
5-maqsad. Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish	591,2	0,1	648,1	0,1	710,8	0,1
6-maqsad. Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash	12 593,3	3,1	14 137,8	3,0	15 685,9	2,9
7-maqsad. Arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta’minlash	66,60	0,02	71,53	0,02	76,95	0,01

21-diagramma. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat budjeti xarajatlari *(davomi)*

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar	2026		2027		2028	
	mlrd so‘m	Xarajat-lardagi ulushi, foizda	mlrd so‘m	Xarajat-lardagi ulushi, foizda	mlrd so‘m	Xarajat-lardagi ulushi, foizda
8-maqsad. Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta’minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashish	3 178,0	0,8	3 337,1	0,7	3 459,7	0,6
9-maqsad. Barqaror infratuzilmani yaratish, umumqamrovli va barqaror sanoatlashuv va innovatsiyalarga ko‘maklashish	28 992,2	7,1	30 738,7	6,6	35 778,9	6,7
10-maqsad. Mamlakat ichida tengsizlikni uning barcha ko‘rinishlarida qisqartirish	200,00	0,05	300,00	0,1	300,00	0,1
11-maqsad. Shaharlar va aholi yashash punktlarining ochiqligi, xavfsizligi va ekologik barqarorligini ta’minlash	29 707,2	7,3	36 581,3	7,8	38 356,0	7,2
12-maqsad. Iste’mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o‘tishni ta’minlash	53,56	0,01	57,36	0,01	61,54	0,01
13-maqsad. Iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo‘yicha tezkor choralarni qabul qilish	723,4	0,2	751,0	0,2	757,1	0,1
15-maqsad. Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to‘xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketish jarayonini to‘xtatish	1 361,8	0,3	1 530,3	0,3	1 605,5	0,3
16-maqsad. Barqaror rivojlanish maqsadlari yo‘lida tinchliksevar va ochiq jamiyatlar barpo etilishiga ko‘maklashish, barcha uchun odil sudlov imkoniyatidan foydalanishni ta’minlash va barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng ishtirokka asoslangan muassasalarni tashkil etish	7 879,8	1,9	8 589,9	1,8	9 256,5	1,7
17-maqsad. Barqaror rivojlanish maqsadlarida Global sheriklik doirasida amalga oshirish vositalarini mustahkamlash va ishlarni faollashtirish	30 802,0	7,5	37 496,2	8,0	43 290,4	8,1

Izoh: O‘zbekiston Respublikasi hududi okean yoki dengiz bilan chegaradosh bo‘lmaganligi bois, 14-maqsad “Okean, dengiz va dengiz resurslarini saqlash va oqilona foydalanish” tasniflanmagan.

4.2.6. Xarajatlarning atrof-muhitga ta’siri bo‘yicha tahlili

Davlat budjeti xarajatlari “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash 4 ta guruhga bo‘lingan holda amalga oshirildi.

18-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash natijalari, *trln so‘m*

Toifalar	2024-yil ijro	2025-yil parametr	2026-yil prognoz	2027-yil *mo‘ljal*	2028-yil *mo‘ljal*
Jami	**310,9**	**344,5**	**408,9**	**468,3**	**532,9**
“A” toifa	27,5	36,3	49,2	53,2	58,6
ulushi, foizda	*8,8*	*10,5*	*12*	*11,4*	*11*
“B” toifa	9,7	9,1	10	11,3	12,1
ulushi, foizda	*3,1*	*2,6*	*2,4*	*2,4*	*2,3*
“C” toifa	0,5	0,1	0,1	0,1	0,1
ulushi, foizda	*0,1*	*0,0*	*0,0*	*0,0*	*0,0*
“D” toifa	273,3	299,1	349,6	403,7	462,2
ulushi, foizda	*87,9*	*86,8*	*85,5*	*86,2*	*86,7*

Davlat budjeti xarajatlarining 2026-yilgi prognozi **408,9 trln so‘m** bo‘lib, xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida **tasniflash natijalariga** ko‘ra:

“A” toifa bo‘yicha, ya’ni atrof-muhit maqsadlaridan kamida bittasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan va salbiy ta’sirga ega emas xarajatlar miqdori 49,2 trln so‘m bo‘lib, jami xarajatlardagi ulushi 12 foizni tashkil etadi. Ushbu toifada suv xo‘jaligi tashkilotlarini saqlash va suv bilan ta’minlashga oid tadbirlar xarajatlari *(suv tadbirlari iqlim o‘zgarishi sharoitida muhim o‘rin tutadi)*, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va obodonlashtirish bo‘yicha xarajatlar *(hududlarda infratuzilmalarni rivojlantirilishi, obodonlashtirish iqlim o‘zgarishiga moslashtirish tadbirlari hisoblanadi),* o‘rmon xo‘jaligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishi vazirligini saqlash xarajatlari, jamoat transporti bo‘yicha xarajatlar va boshqa atrof-muhit maqsadlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlar inobatga olingan.

“B” toifa bo‘yicha, ya’ni atrof-muhit maqsadlariga ijobiy va salbiy ta’sirlarning kombinatsiyasiga ega bo‘lgan xarajatlar miqdori 10 trln so‘m bo‘lib, jami xarajatlardagi ulushi 2,4 foizni tashkil etadi. Ushbu toifada issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari *(tashkilot tomonidan issiqlik ishlab chiqarishda ko‘mir, mazut yoqilg‘ilaridan foydalanilishi iqlim o‘zgarishi, ekologiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatsa-da, arzonlashtirilgan issiqlik ta’minoti ko‘mir, o‘tin kabi muqobil yoqilg‘i sarfini kamaytiradi)*, geologiya-qidiruv ishlari xarajatlari *(faoliyat atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatsa da, kam uglerodli faoliyatlar uchun zarur bo‘lgan minerallarni aniqlaydi)*, veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi va hududiy bo‘linmalari xarajatlari *(veterinariya xizmati hayvonlarni iqlim o‘zgarishi ta’siriga moslashtirishga yordam ko‘rsatsa-da, chorvachilik faoliyati iqlim o‘zgarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi)* ko‘zda tutilgan.

“C” toifa bo‘yicha, ya’ni atrof-muhit maqsadlaridan kamida bittasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan va ijobiy ta’sirga ega emas xarajatlar miqdori 0,1 trln so‘mni tashkil etadi. Bu toifaga issiqxona gazlari emissiyalarini oshishiga olib keluvchi, suv sarfini oshiruvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi tadbirlar, biologik xilma-xillik va ekotizimga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tadbirlar kiradi.

“D” toifa bo‘yicha, ya’ni atrof-muhit maqsadlarining barchasiga neytral ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlar miqdori 349,6 trln so‘m bo‘lib, jami xarajatlardagi ulushi 85,5 foizni tashkil etadi. Ushbu toifada iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit maqsadlariga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydigan, tashkilotlarni saqlash xarajatlari kiritiladi.

19-jadval. Atrof-muhitga ijobiy ta’sirga ega xarajatlar, *mlrd so‘m*

	2024	2025	2026	2027	2028
Jami	**27 509,6**	**36 288,6**	**49 238,1**	**53 243,1**	**58 613,2**
shu jumladan,					
Suv xo‘jaligi tashkilotlarini saqlash va suv bilan ta’minlashga oid tadbirlar xarajatlari	8 550,1	9 332,9	9 504,7	10 148,6	10 843,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar transport boshqarmalarining maxsus jamg‘armalari	772,9	2 200	2 500	2 500	2 500
Metropoliten xarajatlari	419,2	683,2	760,2	764,7	769,7
Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash obyektlarini ta’mirlash va tiklash xarajatlari	319,4	421,8	421,8	421,8	421,8
Davlat o‘rmon xo‘jaliklarini saqlash xarajatlari	249,2	273,7	294,7	318,2	344
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining hududiy bo‘linmalarini saqlash xarajatlari	245,6	251,6	260,8	270,8	281,9
O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi hamda uning hududiy bo‘linmalarini saqlash xarajatlari	233,9	248,7	272,2	298,4	327,1
Hayvonlarning o‘ta xavfli yuqumli kasalliklarining oldini olish xarajatlari	140	160	200	217,6	237
Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish xarajatlari	251,6	150	187,5	187,5	187,5
O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi agentligi tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlarni saqlash xarajatlari	71,5	66,4	72,2	78,5	85,5

4.2.7. Xarajatlarning “budjet dasturlari” bo‘yicha tahlili

Mazkur kichik bo‘limda **vazirlik va idoralarning**, jumladan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2026–2028-yillardagi budjet mablag‘larining “**budjet dasturlari**” kesimidagi tahlili keltirilgan.

20-jadval. 2026–2028-yillar uchun ayrim vazirlik va idoralarning budjet dasturlarining dastlabki ro‘yxati, *mlrd so‘m*

	2026 prognoz	Mo‘ljal	
		2027	2028
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budjet dasturlari:	**17 877**	**19 994**	**21 994**
Ma’muriy-boshqaruv dasturi	153	168	185
Oliy ta’lim sohasida malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish dasturi	16 303	18 263	20 089
Kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish dasturi	169	186	205
Ilm-fan va ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish dasturi	1 252	1 377	1 514
Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budjet dasturlari:	**119 766**	**134 871**	**150 943**
Ma’muriy boshqaruv budjet dasturi	130	143	157
Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash budjet dasturi	6 407	5 592	5 101
Fiskal siyosat va budjet ijrosi budjet dasturi	26 733	33 243	39 704
Markazlashgan investitsiyalarni samarali boshqarish va urbanizatsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish budjet dasturi	2 842	3 066	3 373
Davlat xaridlari va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish budjet dasturi	34	37	41
Davlat aktivlarini muvofiqlashtirish va davlat xususiy sheriklik budjet dasturi	22	25	27
Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish budjet dasturi	35	39	43
Soliq-budjet sohasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish budjet dasturi	21	24	26
O‘quv markazida malaka oshirish faoliyatini tashkil etish budjet dasturi	13	14	16
Ma’muriy binolardan foydalanish budjet dasturi	34	36	38
Davlat budjeti g‘azna ijrosini ta’minlash budjet dasturi	52	58	63
Davlat asillik darajasi nazorati budjet dasturi	18	19	20
Tarmoq bozorlari va ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi tadqiqotlari budjet dasturi	14	16	17
Pensiya jamg‘armasining budjet dasturi	83 139	92 306	102 039

	2026 prognoz	Mo‘ljal	
		2027	2028
Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish, geodeziya va kartografiya ishlar budjet dasturi	273	253	278
Qishloq xo‘jaligi vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budjet dasturlari:	**2 784**	**3 269**	**3 616**
Ma’muriy boshqaruv budjet dasturi	87	100	116
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish dasturi	160	155	173
Agrar sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturi	351	429	472
Qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish dasturi	1 057	1 287	1 447
Qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish dasturi	90	115	84
Respublikada veterinariya va chorvachilik sohasini rivojlantirish, epizootik barqarorlikni ta’minlash va chorva hayvonlarini mahsuldorligini oshirish budjet dasturi	480	542	610
O‘simliklar karantini va himoyasi budjet dasturi	377	412	452
Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish budjet dasturi	182	227	262
Suv xo‘jaligi vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning bo‘yicha budjet dasturlari:	**11 085**	**11 675**	**12 316**
Ma’muriy boshqaruv budjet dasturi	284	287	293
Suv resurslaridan oqilona foydalanish budjet dasturi	2 049	2 416	2 605
Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish budjet dasturi (Irrigatsiya obyektlarini boshqarish)	8 371	8 549	8 894
Suv xo‘jaligini rivojlantirish loyihalari hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etish budjet dasturi	381	422	524
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budjet dasturlari:	**1 318**	**1 624**	**1 685**
Ma’muriy boshqaruv budjet dasturi	77	81	85
O‘rmon xo‘jaligi budjet dasturi	612	827	844
Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish budjet dasturi	185	188	191
Gidrometeorologiya budjet dasturi	205	226	248
Ekologiya sohasida fan, ta’lim va axborot xizmatlari budjet dasturi	54	60	66
Turizm budjet dasturi	185	243	251
Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budjet dasturlari:	**20 666**	**24 273**	**28 528**
Ma’muriy boshqaruv dasturi	1 172	1 255	1 342

	2026 prognoz	Mo‘ljal	
		2027	2028
Professional ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish dasturi	1 090	1 167	1 248
Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish dasturi	5 786	6 662	7 682
Bolalarni ijtimoiy himoya qilish dasturi	6 247	7 037	7 943
Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash dasturi	305	340	373
Nuroniylarni tibbiy-ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlash dasturi	1 317	1 603	1 958
Kambag‘al va boshqa ehtiyojmand aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish dasturi	4 749	6 210	7 982
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budjet dasturlari:	**190**	**209**	**230**
Ma’muriy boshqaruv budjet dasturi	68	75	82
Davlat mulkini xususiylashtirish budjet dasturi	25	27	30
Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish budjet dasturi	41	45	49
Davlat aktivlarining hisobini yuritish budjet dasturi	15	16	18
Baholash va riyeltorlik faoliyatini muvofiqlashtirish budjet dasturi	6	6	7
To‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini yuritish budjet dasturi	6	6	7
Davlat mulki obektlaridan samarali foydalanish budjet dasturi	22	24	27
Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish budjet dasturi	9	10	11

Izoh: Vazirlik va idoralarning budjet dasturlari uchun nazarda tutilgan mablag‘lar budjet va budjetdan tashqari mablag‘larni o‘z ichiga oladi.

“Dasturiy budjetlashtirish” tizimini yanada takomillashtirish maqsadida bir qator xalqaro ekspertlar jalb etilgan. Xususan:

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Suv xo‘jaligi vazirligiga JBning institutsional salohiyatni oshirish loyihasi doirasida Ernst & Young Advisory LLC (Ecroys Niderlandiya) konsalting tashkiloti:

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga BMTTDning O‘zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan xalqaro ekspert;

Ijtimoiy himoya milliy agentligiga UNICEF tomonidan xalqaro ekspertlar jalb etilgan.

Xalqaro ekspertlar bilan birgalikda vazirlik va idoralarning 2026–2028-yillar uchun budjet dasturlarini ishlab chiqish bilan bir vaqtda mavjud tizimni takomillashtirish bo‘yicha metodologik qo‘llanma tayyorlanishi rejalashtirilgan.

4.3. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining prognozlari

O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksiga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo‘lishi lozimligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining taqchilligiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan.

Mahalliy budjetlar xarajatlarining tegishli daromadlar prognozlaridan oshgan qismini qoplash O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetidan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar ajratish orqali amalga oshiriladi.

2026–2028-yillar uchun O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetiga va viloyatlarning viloyat budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar mazkur strategiyaning **3-ilovasi**da keltirilgan.

Mahalliy budjetlar barqarorligini ta’minlash va ularning mustaqilligini oshirish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Mahalliy budjetlardan amalga oshirilishi belgilangan ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini **respublika budjetida** qayta taqsimlanadigan mablag‘lar sifatida rejalashtirish amaliyotiga o‘tish;

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining tartibga soluvchi **daromadlardan ajratmalarning normativ miqdorlarini kamida 3 yilga belgilashni** joriy qilish.

4.4. DMJ hamda TTJ daromadlari va xarajatlarining prognozlari

2026-yilda DMJ hamda TTJning **daromadlari** tushumi prognozlari tegishincha **87 trln so‘m** va **23,7 trln so‘mni, xarajatlari 145,4 trln so‘m** va **23,7 trln so‘mni** tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, DMJning 2027–2028-yillardagi **daromadlari** mo‘ljallari tegishincha **97,1 trln so‘m** va **107 trln so‘mni, xarajatlari** mo‘ljallari **161,9 trln so‘m** va **177,1 trln so‘mni** tashkil etadi.

TTJning 2027–2028-yillardagi **daromadlari** mo‘ljallari tegishincha **25,4 trln so‘m va 26,6 trln so‘mni, xarajatlari** mo‘ljallari tegishincha **25,4 trln so‘m va 26,6 trln so‘mni** tashkil etadi.

Davlat budjetidan DMJga ajratiladigan transfertlar miqdorining 2026-yilgi prognozi **61 trln so‘m,** 2027–2028-yillardagi mo‘ljallari **69 trln so‘m va 74,8 trln so‘m**ni tashkil etadi.

22-diagramma. DMJ va TTJ budjetlarining prognozlari, *trln so‘m*





Izoh: 2026-yildan boshlab DMJ tarkibiga Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi kiritildi.

DMJ daromadlari, xarajatlari va ularga davlat budjetidan ajratiladigan transfertlar miqdorlarining prognozlari bilan mazkur strategiyaning **2-ilovasi**da tanishish mumkin.

Konsolidatsiyalashgan budjet qamrovini oshirish bo‘yicha amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ishlar

So‘nggi yillarda vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklar huzurida ayrim budjetdan tashqari jamg‘armalar tashkil etilgan bo‘lib, ularning daromadlari va xarajatlari konsolidatsiyalashgan budjet tarkibiga kiritilishi zarur.

Bunda budjet qamrovining to‘liqligini ta’minlash davlatning iqtisodiyotdagi ulushini aniq o‘lchash imkonini beradi.

Ushbu budjetdan tashqari jamg‘armalar daromadlari respublika budjeti, DMJ mablag‘lari, mahalliy budjet va uning qo‘shimcha manbalari, XMI va xorijiy davlatlar grant mablag‘lari hamda boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

Mazkur jamg‘armalarning hisobdorligini oshirish, daromadlari va xarajatlarini konsolidatsiyalashgan budjetda to‘liq aks ettirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi.

4.5. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari daromadlari va xarajatlarining tahlili

Xalqaro tashkilotlar ekspertlarining tavsiyalariga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti qamrovini oshirish, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda budjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘larining ishlatilishida budjet tashkilotlari rahbarlarining hisobdorligini va mas’uliyatini kuchaytirish maqsadida 2022-yildan boshlab barcha budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti bilan qamrab olindi.

2023-yildan boshlab soliqlar, majburiy yig‘imlar, bojlar va jarimalar hisobidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar va idoralarning budjetdan tashqari jamg‘armalariga kelib tushgan mablag‘larning hamda mazkur jamg‘armalarning bo‘sh turgan mablag‘larini tijorat banklariga joylashtirishdan olingan daromadlarning 40 foizini har oy yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetiga o‘tkazish tartibi joriy etildi.

2026-yilda barcha budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari daromadlari va xarajatlari mos ravishda 39,9 trln so‘m miqdorida prognoz qilingan.

Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari samaradorligini oshirish va budjetdan tashqari mablag‘larni ishlatishda respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining hisobdorligi va mas’uliyatini oshirish maqsadida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari hisobidan xizmat avtomobillari (maxsus avtotransport vositalari bundan mustasno), qimmatbaho yumshoq mebellar va ofis jihozlarini xarid qilish jarayoni tartibga solib boriladi.

23-diagramma. Jami budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari, *trln so‘m*



24-diagramma. 2026-yilda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari manbalari, *mlrd so‘m*



4.6. Budjetdan ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

Budjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari:

2026–2028-yillar uchun asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning dastlabki prognozi;

2026–2028-yillar uchun Davlat budjeti daromadlari prognozi va shundan kelib chiqqan holda aniqlangan taqchillikning cheklangan miqdori;

birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning davlat dasturlari va tadbirlariga qo‘shimcha talab etiladigan mablag‘lar hisob-kitoblari;

kapital qo‘yilmalar to‘g‘risidagi dastlabki takliflar;

mahalliy budjetlar va DMJ tomonidan transfertlarning miqdorlari bo‘yicha takliflar asosida ishlab chiqildi.

Birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan budjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari, shuningdek, obyektlarni loyihalashtirish, qurish *(rekonstruksiya qilish)* va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalarning cheklangan miqdorlari ushbu Strategiyaning **1-ilovasiga** muvofiq miqdorlarda yetkazib beriladi.

4.7. Yangilangan prognozlarning 2025-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonunida belgilangan budjet ko‘rsatkichlaridan farqi

Soliq va budjet siyosatidagi o‘zgarishlar, jumladan, tushumlarni oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, 2024-yilning IV choragida va 2025-yilning o‘tgan davri mobaynida qabul qilingan dastur va tadbirlar uchun qo‘shimcha xarajatlarning kelib chiqishi natijasida 2025-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonun bilan tasdiqlangan **2025–2026-yillar uchun budjet ko‘rsatkichlari taqchillikning tasdiqlangan prognozi doirasida** qayta ko‘rib chiqildi.

21-jadval. 2025-2026-yillar uchun yangilangan prognozlarning 2025-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonunida belgilangan prognozlardan farqi, *trln so‘m*

		Yangilangan prognoz		O‘RQ–1011 *“+” ko‘p, “-” kam*	
		2025*	**2026**	**2025**	**2026**
I.	**Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari**	**474,9**	**509,8**	**+43,9**	**+13,3**
	Davlat budjeti **	335,6	372,4	+27,1	+18,6
	DMJ**	68,1	73,8	+1,7	-7,9
	TTJ	28,6	23,7	+6,4	-0,8
	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari	42,5	39,9	+8,7	+3,4
II.	**Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari**	**526,9**	**568,6**	**+46,4**	**+16,6**
	Davlat budjeti**	278,7	311,4	-11,7	-32,2
	DMJ	123,3	129,1	+6,1	-0,3
	TTJ	27,0	23,7	+6,7	+2,2
	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari	40,2	39,9	+6,4	+3,4
	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	18,8	25,0	-	+4,0
III.	**DMJga transfertlar**	**56,9**	**61,0**	**+2,5**	**+8,8**
IV.	**Konsolidatsiyalashgan budjet saldosi**	**-52,1**	**-58,8**	**-2,5**	**-3,3**
V.	**Davlat budjeti va DMJ saldosi**	**-40,1**	**-33,8**	**-7,5**	**+3,7**

** – kutilayotgan ijro, ** – budjetlararo transfertlarsiz*

Konsolidatsiyalashgan budjet ko‘rsatkichlarining qayta ko‘rib chiqilishi natijasida kelib chiqqan **farqlar, asosan, quyidagilar bilan tushuntiriladi**:

2025-yil:

Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlaridagi farqning asosiy sabablari:

– prognozda ko‘zda tutilgan asosiy eksport tovarlarining jahon bozoridagi narxining o‘zgarishi;

– soliq ma’murchiligining kuchaytirilishi natijasida mahalliy soliqlar bo‘yicha tushumlarning ko‘payishi;

– sohalar kesimida tovarlar va xizmatlar bo‘yicha ishlab chiqarish hajmining o‘zgarganligi.

Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlaridagi farqning asosiy sabablari:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga muvofiq mamlakatdagi ijtimoiy farovonlikka xizmat qiladigan dasturlar va muhim infratuzilma xarajatlari uchun qo‘shimcha mablag‘lar ajratilishi;

– yoqilg‘i-energetika sohasida bosqichma-bosqich bozor mexanizmlarining joriy etilishi munosabati bilan ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha xarajatlar ajratilishi;

– ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorlarining 2025-yilgi tasdiqlangan budjet parametrlarida belgilangan muddatlardan oldin va yuqori miqdorlarda oshirilishi;

– yil boshidagi qoldiq mablag‘lari va mablag‘larning o‘zlashtirilishiga qarab DMJlariga transfertlarning iqtisod qilinishi;

– moliya yili davomida qabul qilingan qarorlar bilan strategik loyihalarni moliyalashtirish hisobiga TTJ xarajatlarining oshishi va boshqalar.

2026-yil:

Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlaridagi farqning asosiy sabablari:

– jahon bozorida tovar va xizmatlar narxlari o‘zgarishining budjet daromadlariga ta’siri;

– DMJ daromadlari prognozlari qayta ko‘rib chiqilishi;

– budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari daromadlari prognozlarining aniqlashtirilishi va boshqalar.

Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlaridagi farqning asosiy sabablari:

– Davlat budjeti xarajatlari prognozlari aniqlashtirilishi;

– Strategik loyihalarni moliyalashtirish uchun TTJ xarajatlarining oshishi;

– Yangi dasturlarni moliyalashtirish uchun tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlarning oshishi;

– budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari xarajatlari prognozlarining aniqlashtirilishi va boshqalar.

V. Davlat qarzi prognozlari va maqsadli ko‘rsatkichlari.

5.1. Davlat qarzining prognoz ko‘rsatkichlari

O‘rta muddatli istiqbol uchun makroiqtisodiy prognozlar, tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari va strategiyalarida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga asoslangan ko‘p ssenariyli tahlillarga ko‘ra, 2025–2028-yillarda davlat qarzi YIMga nisbatan 35 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilinmoqda.

25-diagramma. O‘zbekiston Respublikasining davlat qarzi dinamikasi



Izoh: Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 2025-2028-yillar uchun jami davlat qarzining prognoz ko‘rsatkichlari.

5.2. Davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar

Davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab olindi:

– Davlat qarzini to‘lashning o‘rtacha muddatini uzaytirish (masalan, o‘rta va uzoq muddatli davlat qimmatli qog‘ozlari chiqarishni ko‘paytirish), shuningdek, davlat qarzini manbalar bo‘yicha diversifikatsiya qilish;

– Davlat g‘aznachilik obligatsiyalari bozoriga xalqaro investorlarni keng jalb qilish jarayonini jadallashtirish;

– Davlat qarzi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xatarlarning oldini olish, ularni bartaraf etish yoki kamaytirish yuzasidan qat’iy choralar ko‘rish;

– Davlat qarziga oid ma’lumotlar ochiqligini ta’minlash.

VI. Makro-fiskal xatarlar bahosi

6.1. Makroiqtisodiy va fiskal xatarlar

Makroiqtisodiy va budjet barqarorligini ta’minlashda makrofiskal xatarlarni monitoring qilish, baholash va ularni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Global tashqi savdoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, jumladan, yirik davlatlar o‘rtasidagi savdo nizolari global noaniqliklarni oshirmoqda. Mazkur holatning O‘zbekistonga bevosita ta’siri kichik bo‘lsada, uning bilvosita ta’siri *(global savdodagi o‘zgarishlar orqali)* saqlanib turibdi.

Jumladan, XVJ yirik davlatlar tashqi savdosidagi keskin o‘zgarishlar davom etishi fonida 2025-2026-yillar uchun global iqtisodiy o‘sish bo‘yicha kutilma va prognozlarini sezilarli pasaytirgan[13].

Mazkur bo‘limda yuqoridagi vaziyatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlar va ularning 3 ta ta’sir kanallari bo‘yicha alternativ ssenariylar tahlil qilinadi.

Davom etayotgan savdo nizolari hamda global noaniqliklar O‘zbekiston iqtisodiyotiga asosan 3 ta kanallar: (i) tashqi savdo; (ii) global inflatsiya; (iii) investitsion oqimlar orqali ta’sir etishi tahmin qilinmoqda.

1. Tashqi savdo. JST tahlillariga[14] ko‘ra AQSHning barcha davlatlar uchun import tariflarini oshirishi va buning ortidan Xitoy tomonidan ham qarshi choralar kiritilishi ikki davlat o‘rtasidagi savdo aylanmasini 80 foizgacha kamaytirishi, global iqtisodiy o‘sishini uzoq muddatda 7 foizgacha qisqartirishi mumkin.

Joriy yilning aprel oyidan boshlab AQSH hukumati import bo‘yicha yangi tarif siyosatini joriy etdi. Unga ko‘ra AQSH tomonidan 1 059 turdagi tovarlar uchun umumiy qiymati 1 trln AQSH dollarni yoki jami importning 30 foizini tashkil etuvchi mahsulotlarga bazaviy tariflar saqlanib qolingan bo‘lsa, qolgan tovarlarga kelib chiqish davlatiga qarab 10 foizdan 145 foizgacha import tariflari o‘rnatildi.

Xususan, AQSH tomonidan Xitoydan import qilinadigan 412 mlrd AQSH dollarlik tovarlarga *(Xitoydan umumiy importning 89 foizi)* yuqori boj stavkalari amal qilishi belgilandi. Bu esa, o‘z navbatida, Xitoy tomonidan ushbu investitsiya va iste’mol tovarlarini muqobil bozorlarga yo‘naltirishga yoki ishlab chiqarish hajmini qisqartirishga olib kelishi mumkin.

[13] https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2025/04/22/world-economic-outlook-april-2025
[14] https://www.wto.org/english/news_e/news25_e/dgno_09apr25_e.htm

Mazkur jarayon, o‘z navbatida, O‘zbekistonga Xitoydan import qilinadigan investitsiya va iste’mol tovarlari narxlarining pasayishiga hamda ushbu tovarlar importi hajmining oshishiga olib kelishi mumkin.

Xususan, O‘zbekistonda ushbu turdagi tovarlar importi 504 mln AQSH dollarini *(shundan Xitoydan – 235 mln AQSH doll.)* tashkil etib, arzon narxlar hisobiga mazkur tovarlar importiga talab ortishi mumkin.

Shuningdek, Xitoyda ichki talabning sekinlashishi hisobiga O‘zbekistonning Xitoyga ip-kalava, metal va ulardan tayyorlangan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmlariga ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Jumladan, UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda Xitoy AQSHdan 1,5 mlrd AQSH dollarlik paxta tolasi import qilgan bo‘lsa, AQSHga 48 mlrd AQSH dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksport qilgan, bu Xitoyning jami to‘qimachilik eksportida 19 foizni tashkil qiladi.

26-diagramma. 2024-yilda O‘zbekistonning Xitoyga tovarlar eksporti tarkibi, *mln AQSH doll.*



Bunda, Xitoy mazkur mahsulotlarga o‘rnatilgan yuqori boj tufayli paxta tolasi iste’molini pasaytirishi mumkin.

Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonning Xitoyga ip-kalava mahsulotlari eksportiga *(287 mln AQSH doll. yoki Xitoyga jami tovar eksportining 24 foizi)* salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, 2024-yilda Xitoy AQSHga 257 mlrd AQSH dollarlik mashina, asbob va uskunalar eksportini *(jami 1,9 trln AQSH doll., shundan AQSHning ulushi 14 foiz)* amalga oshirgan. Shundan, 160 mlrd AQSH dollarlik tovarlarga 145 foizlik bojxona bojlari amal qilib, mazkur holat misga bo‘lgan talabni pasaytirishi mumkin.

Xususan, O‘zbekistondan Xitoyga metal va ulardan tayyorlangan buyumlar eksportining hajmiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

27-diagramma. Tashqi savdo kanalining ta’siri



Umuman olganda, yirik davlatlar o‘rtasidagi savdo nizolari O‘zbekistonda oltinsiz eksportning asosiy ssenariyga nisbatan 2,9 foiz bandga (-556 mln AQSH doll) qisqarishiga, bu esa, o‘z navbatida, 2025-yilda YIM o‘sish sur’atini 0,4 foiz bandga sekinlashtirishi, fiskal taqchillikning YIM ga nisbatini 0,1 foiz bandga oshirishi mumkin.

2. Global inflatsiya. Bir qator xalqaro tashkilotlar tomonidan import tariflarining ko‘tarilishi asosiy iste’mol tovarlari narxlarining oshishiga va global inflatsiya darajasining sekinlashish fazasidan to‘xtab, tezlashish fazasiga o‘tishi mumkinligi borasida kutilmalar e’lon qilgan.

Xususan, XVJning aprel oyidagi hisobotida 2025-yil uchun global inflatsiya kutilmalarini yanvar oyidagi kutilmalarga nisbatan 0,1 foiz bandga oshirgan.

Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) mart oyidagi hisobotida 2025-yil uchun inflatsiya prognozini oldingi prognozlariga nisbatan 0,3 foiz bandga oshirgan hamda savdo nizolarining davom etishi yana qo‘shimcha 0,4 foiz bandga oshirishi mumkinligi baholangan.

Umuman olganda, bir qator xalqaro tashkilotlar tahlillariga ko‘ra tariflar hisobiga AQSHda iste’mol tovarlari narxining o‘sishi, global ta’minot zanjirlarining o‘zgarishi va yangi savdo ittifoqlarining paydo bo‘lishi jahon bozorida nafaqat qisqa muddatda, balki uzoq muddatda yuqori o‘zgaruvchanlik saqlanib qolishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur xatarning ta’sirini baholashda global oziq-ovqat va metal narxlarining 3 foiz bandga tezlashishi tahmin qilingan holda uning inflatsiya, YIM hamda fiskal taqchillikka ta’siri baholandi.

Tahlillarga ko‘ra mazkur o‘zgarishlar 2025-yildagi makroiqtisodiy holatga ta’siri kichik bo‘lib, asosiy ta’siri 2026 yilda kechikish (lag) orqali ta’siri yuqoriroq baholanmoqda. Xususan, global narxlarning oshishi inflatsiya darajasini 2025-yilda 0,3 foiz bandga 2026-yilda esa 0,5 foiz bandgacha tezlashtirishi mumkin.

Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimiz YIM real o‘sish sur’atini 2025-yilda 0,1 foiz bandga, 2026-yilda esa 0,3 foiz bandgacha sekinlashishiga, shuningdek, inflatsiya oshishi sharoitida oylik ish haqi va ijtimoiy to‘lovlarning yuqoriroq indeksatsiya qilinishi natijasida fiskal taqchillikning YIMga nisbatini 2025-yilda 0,02 foiz bandga, 2026-yilda esa 0,3 foiz bandga oshirishi mumkin.

28-diagramma. Global inflatsiya oshishining ta’siri



3. Investitsiya. Global moliya bozori va tovar bozorlarida keskin o‘zgaruvchanlik va yuqori noaniqliklar sharoitida investorlar tomonidan ishonchli va xavfsiz aktivlarga investitsiya kiritishga urinish kuchayadi.

Bunda, investitsiya yo‘nalishlari rivojlangan mamlakatlardagi real sektor loyihalariga qaratilishi, shuningdek, AQSH tomonidan yirik kompaniyalar va asosiy hamkorlarga investitsiya oqimlarini yo‘naltirish bo‘yicha kelishuv majburiyatlarni yuklanishi xalqaro kapitalni rivojlangan davlatlarga yo‘naltirilishiga olib keladi.

Jumladan, UNCTAD hamda XVJ tahlillarida 2018-2019-yillarda AQSH hamda Xitoy o‘rtasida yuzaga kelgan savdo nizolari davrida global iqtisodiyotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi keskin pasayganligi qayd etilgan.[15]

[15] https://unctad.org/system/files/official-document/WIR2019_CH2.pdf

29-diagramma. Jahon iqtisodiyoti va O‘zbekistonga kiritilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, *mlrd AQSH doll.*



Bundan tashqari, AQSH hukumati tomonidan xalqaro yordam va grant mablag‘larining qisqartilishi yoki bekor qilinishi rivojlanayotgan mamlakatlarga bu turdagi moliyaviy oqimlarning qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi holatning ta’sirini baholashda, o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining bazaviy ssenariyga nisbatan 2,2 foizga *(382 mln AQSH doll.)* qisqarishi faraz qilingan bo‘lib, bunda YIM o‘sish sur’ati 0,2 foiz bandga sekinlashishi, fiskal taqchillikning 0,04 foiz bandga oshishi mumkinligi aniqlandi.

30-diagramma. Investitsiyalar kanali ta’siri



4.Yuqorida qayd etilgan omillarning barchasi bir vaqtda sodir bo‘lishi YIM o‘sishini 0,8–1 foiz bandga, budjet daromalarining YIMga nisbatan, 0,1 foiz bandga, xarajatlarnining YIM nisbatan 0,2 foiz bandga, fiskal taqchillikni esa 0,1 foiz bandga oshishiga olib kelishi mumkin.

22-jadval. Tashqi xatarlarning qisqa muddatda ta’siri

	Real YIM o‘sish sur’ati	Fiskal daromadlar *(YIMga nisbatan)*	Fiskal xarajatlar *(YIMga nisbatan)*	Fiskal taqchillik *(YIMga nisbatan)*
1-ssenariy: Tashqi savdo	6,2% *(-0,4 f.b.)*	25,7% *(+0,1 f.b.)*	28,7% *(+0,2 f.b.)*	-3% *(-0,1 f.b.)*
2-ssenariy: Inflatsiya	6,2% *(-0,1 f.b.)*	25,7% -	28,7% *(-0,02 f.b.)*	-3% *(-0,02 f.b.)*
3-ssenariy: Investitsiya oqimi	6,2% *(-0,2 f.b.)*	25,7 *(+0,02 f.b.)*	28,7 *(+0,06 f.b.)*	-3% *(-0,04 f.b.)*
4-ssenariy: Barcha shoklar	6,2% *(-0,8 f.b.)*	25,7 *(+0,1 f.b.)*	28,7 *(+0,2 f.b.)*	-3% *(-0,1 f.b.)*

** f.b. – foiz band*

Izoh: Qayd etish lozimki, yuqoridagi ssenariylarda, boshqa omillar o‘zgarmagan hamda Hukumat tomonidan choralar ko‘rilmagan holat faraz qilingan. Shuningdek, global noaniqliklar fonida oltin narxining oshishi inobatga olinmagan bo‘lib, oltin narxining prognozlarga nisbatan yuqori shakllanishi tashqi xatarlar ta’sirini yumshatuvchi omil bo‘lib ximat qiladi.

6.2. Davlat korxonalari va banklarining moliyaviy holati va transformatsiya jarayonlari

Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy holati tahlili

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-martdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 107-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq 26 ta yirik davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

23-jadval. Moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlil qilingan 26 ta yirik davlat korxonalari ro‘yxati

1	“O‘zbektelekom” AJ	**14**	“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ
2	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ	**15**	“Uzbekistan airports” AJ
3	“O‘zbekneftgaz” AJ	**16**	“O‘zkimyosanoat” AJ
4	“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ	**17**	“Uzbekgidroenergo” AJ
5	“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	**18**	“Navoiyuran” DK
6	“O‘zavtosanoat” AJ	**19**	“Toshkent metropoliteni” UK
7	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	**20**	“O‘zbekko‘mir” AJ
8	“O‘ztransgaz” AJ	**21**	“Toshshahartransxizmat” AJ
9	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	**22**	“Angren issiqlik elektr stansiyasi” AJ
10	“Uzbekistan airways” AJ	**23**	“Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi” AJ
11	“O‘zsuvta’minot” AJ	**24**	“O‘zaeronavigatsiya markazi” DUK
12	“Hududgazta’minot” AJ	**25**	“Maxsustrans ishlab chiqarish boshqarmasi” DUK
13	“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ	**26**	“O‘zbekiston pochtasi” AJ

31-diagramma. Moliyaviy holati baholab boriladigan yirik davlat ishtirokidagi korxonalar soni, tarmoqlar kesimida



24-jadval. Korxonalarning moliyaviy ko‘rsatkichlari

	2021	2022	2023	2024
Jami aktivlar, *trln so‘m*	484,1	572	622,8	653,6
Jami majburiyatlar, *trln so‘m*	233,7	312,3	338,4	350,6
O‘z mablag‘lari, *trln so‘m*	250,5	259,7	284,4	303
Sof foyda, *trln so‘m*	22,2	23,7	31,5	49,4
Jami tashqi qarz qoldig‘i (mlrd AQSH doll.), *shundan:*	11,3	12,7	12,7	14,1
Davlat kafolati ostida jalb qilingan qarz qoldig‘i (mlrd AQSH doll.)	4,7	5,1	4,8	3,6

2024-yil yakuni bo‘yicha 26 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy ko‘rsatkichlari o‘sish tendensiyasini ko‘rsatdi. Jumladan, jami aktivlar 2024-yilda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 5 foizga, jami majburiyatlar 3,6 foizga hamda o‘z mablag‘lari manbalari 6,6 foizga ko‘paydi.

32-diagramma. Korxonalarning moliyaviy holati



33-diagramma. Davlat korxonalarining tashqi qarzi va ularga taqdim etilgan davlat kafolati, *mlrd AQSH doll.*



2024-yilda korxonalarning tashqi qarz qoldig‘i ortgan bo‘lsada, ularga beriladigan davlat kafolatlari keskin kamaygan. Jalb etilgan tashqi qarz miqdorlari korxonalarning samaradorligini oshirish maqsadida mavjud loyihalarni modernizatsiya qilish, yangi loyihalarni amalga oshirish hamda texnologiyalar jalb qilish maqsadida ajratilgan.

Tashqi qarzga beriladigan davlat kafolati 2023-yilda jami tashqi qarzning 37,8 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich ijobiy o‘zgarish bilan 2024-yilda 25,5 foiz ulushni tashkil qildi.

2024-yilning yakuni bo‘yicha, 26 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning likvidlik hamda to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari yaxshilandi. Shuningdek, korxonalarning daromadlik qobiliyati ko‘rsatkichlarida sezilarli darajada o‘sish kuzatildi.

2024-yil yakunlari bo‘yicha 26 ta yirik davlat korxonalarining o‘rtacha likvidlik ko‘rsatkichlari 4 yil mobaynida ijobiy o‘zgargan. Jumladan, joriy likvidlik hamda tez likvidlik darajalari bu yilga kelib “past xatar” darajasini tashkil etdi.

Shuningdek, joriy hamda tez likvidlik ko‘rsatkichlari 2023-yilgacha korxonalarning balansidagi joriy aktiv va majburiyatlari orasidagi tafovut o‘zgarmay saqlanib qolgani oqibatida “o‘rta xatar” darajasida toifalanib kelayotgan edi. Biroq, 2024-yilga kelib joriy aktivlarning ko‘payishi va joriy majburiyatlarning kamayishi natijasida bu tafovut sezilarli darajada yaxshilandi va korxonalarning likvidlik ko‘rsatkichlarining ijobiy o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

25-jadval. Davlat ishtirokidagi korxonalarning fiskal xatar ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot

	2021	2022	2023	2024
Likvidlik				
Joriy likvidlik darajasi (nisbat)	1,42	1,36	1,46	1,54
Yuqori likvidlik darajasi (nisbat)	1,07	0,97	1	1,03
Kunlik debitor qarzlar aylanmasi (kun)	38,9	49,2	34,6	34,5
To‘lov qobiliyati				
Majburiyatlarning kapitalga nisbati	0,93	1,2	1,19	1,15
Majburiyatlarning aktivlarga nisbati	0,48	0,55	0,54	0,54
Daromadlik				
Sof foyda marjasi, foizda	10	9,2	8,4	11,4
Operatsion foyda marjasi, foizda	22,8	17,5	16,5	21
Aktivlarning rentabelligi, foizda	4,6	4,1	5,1	7,6
Kapitalning rentabelligi, foizda	8,9	9,1	11,1	16,3

Izoh: Davlat ishtirokidagi korxonalar taqdim etgan ma’lumotlar asosida tayyorlandi.

34-diagramma. Likvidlik ko‘rsatkichlari



A. Joriy likvidlik ko‘rsatkichi:
- hisoblanishi: $\frac{\text{joriy aktivlar}}{\text{joriy majburiyatlar}}$
- past xatar darajasi – 1,5 dan yuqori*



B. Tez likvidlik ko‘rsatkichi:
- hisoblanishi: $\frac{\text{joriy aktivlar} - \text{moddiy zaxiralar}}{\text{joriy majburiyatlar}}$
- past xatar darajasi - 1,0 dan yuqori*



C. Joriy aktivlar va majburiyatlar o‘zgarish tendensiyasi (trln so‘m).

** Vazirlar Mahkamasining “Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 107-sonli qaroriga asosan*

Korxonalarning to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari joriy yil natijalariga ko‘ra, “o‘rta xatar” darajasini saqlab qoldi. Jumladan, majburiyatlarning aktivlarga nisbati o‘zgarishsiz 0,54 nisbatni hamda majburiyatlarning kapitalga nisbati o‘tgan yilning shu davri bilan solishtirganda yaxshilanib, 1,15 nisbatni qayd etdi. Bundan kelib chiqadiki, korxonalarning majburiyatlari va aktivlari proporsional ravishda o‘zgargan va o‘z mablag‘lari summasining ortishi natijasida majburiyatlar hamda kapital orasidagi farq kamaygan.

So‘nggi 3 yillikda majburiyatlarning kapitalga nisbati ko‘rsatkichi “o‘rta xatar” darajasida saqlanib qolmoqda. Majburiyatlarning aktivlarga nisbati ko‘rsatkichi ham xuddi shunaqa tendensiyani saqlagan. 2023-2024-yillarda korxonalarning majburiyatlari uning aktivlari va o‘z mablag‘lari bilan birgalikda proporsional o‘zgargan.

35-diagramma. To‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari







A. Majburiyatlarning aktivlarga nisbati:
- *hisoblanishi:* $\frac{\text{jami majburiyatlar}}{\text{jami aktivlar}}$
- *o‘rta xatar darajasi – 0,50 va 0,75 oralig‘i**

B. Majburiyatlarning kapitalga nisbati
- *hisoblanishi:* $\frac{\text{jami majburiyatlar}}{\text{jami o‘z mablag‘lari}}$
- *o‘rta xatar darajasi – 1 va 1,5 oralig‘i**

C. Jami aktivlar va passivlar o‘zgarish tendensiyasi (trln so‘m)

** Vazirlar Mahkamasining “Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 107-sonli qaroriga asosan*

Tahlillarga ko‘ra, 26 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning so‘nggi 4 yillikdagi o‘rtacha daromadlik ko‘rsatkichlarida energetika islohotlarining natijasida “past xatar” darajasi saqlanib kelmoqda.

Korxonalarning sof foyda marjasi so‘nggi 4 yilda “past xatar” darajasida saqlandi. Xususan, bu ko‘rsatkich 2024-yilda oldingi yilga qaraganda 8,4 foizdan 11,4 foizgacha o‘sib, 4 yil davomidagi eng yuqori darajaga yetdi.

Operatsion foyda marjasi ham bu yillar davomida “past xatar” darajasida saqlandi. Jumladan, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 16,5 foizdan 21 foizga ko‘tarilgan hamda ushbu natija bilan korxonalarning samarali ishlab chiqarish jarayonlari va xarajatlarni optimallashtirishga erishganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, bu yuqori foyda marjalari kompaniyaning bozor raqobatida kuchli pozitsiyani egallayotganini tasdiqlaydi.

36-diagramma. Daromadlik ko‘rsatkichlari





A. Sof foyda marjasi:
- *hisoblanishi:* $\frac{\text{sof foyda (zarar)}}{\text{jami daromadlar}}$
- *past xatar darajasi – 8 dan yuqori**

B. Operatsion foyda marjasi:
- *hisoblanishi:* $\frac{\text{operatsion foyda (zarar)}}{\text{jami daromadlar}}$
- *past xatar darajasi: 10 dan yuqori**



C. Aktivlarning rentabelligi:
- *hisoblanishi:* $\frac{\text{sof foyda (zarar)}}{\text{jami aktivlar}}$
- *past xatar darajasi – 4 dan yuqori**

D. Kapitalning rentabelligi:
- *hisoblanishi:* $\frac{\text{sof foyda (zarar)}}{\text{jami o‘z mablag‘lari}}$
- *past xatar darajasi: 8 dan yuqori**

** Vazirlar Mahkamasining “Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 107-sonli qaroriga asosan*

Shu bilan birga, davlat ishtirokidagi korxonalarning o‘rtacha rentabellik ko‘rsatkichlari 2024-yilgacha, ijobiy o‘zgarishlar bilan, “past xatar” darajasida saqlandi. Xususan, aktivlar va kapitalning rentabellik darajasi 2024-yilda o‘tgan yilgiga qaraganda 1,5 barobar o‘sdi. Korxonalar joriy yilda har bir aktiv miqdoridan 7,6 foiz, har bir kapital miqdoridan 16,3 foiz foyda ko‘rdi.

Davlat korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va transformatsiya jarayonlari

Energetika, transport va suv ta’minoti sohalaridagi tarif islohotlari korxonalarning sof foydasini o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 53 foizga oshirdi. Natijada, korxonalarning daromadlik ko‘rsatkichlarining barchasi “o‘rta xatar” dan “past xatar” darajasiga o‘zgarib, ularning budjetga bo‘lgan talablari kamaydi.

JBning “Institutsional salohiyatni oshirish” loyihasi doirasida 7 ta korxonada xalqaro konsalting kompaniyalari bilan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) asosida hisob siyosati, budjetlashtirishni joriy etish, risklarni boshqarish, xaridlar tizimini takomillashtirish va ular bo‘yicha o‘qitish jarayonlari davom ettirilmoqda.

Xalqaro konsultantlarni jalb qilgan holda “Navoiy KMK” AJ *(500 mln AQSH doll.)*, O‘zbekneftgaz” AJ *(850 mln AQSH doll.)* tomonidan yevroobligatsiyalar xalqaro bozorlarda joylashtirildi hamda “Navoiuran” DK *(300 mln AQSH doll.)* va “Olmaliq KMK” AJ *(1 mlrd AQSH doll.)* tomonidan joylashtirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

2024-yilda xususiylashtirilgan yirik korxonalar

- ✓ “Farg‘onaazot” AJ
- ✓ “Hyatt Regency Tashkent” mehmonxonasi
- ✓ “O‘zdonmahsulotlari” AK korxonalari
- ✓ “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ
- ✓ “Poytaxt bank” AJ
- ✓ “International hotel Tashkent” mehmonxonasi
- ✓ HUMO to‘lov tizimi va boshqalar.

2024-yil davomida 30,5 trln so‘mlik davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning aktivlari hamda yer uchastkalari savdolarga chiqarilib, 17,4 trln so‘mlik aktivlar va yer uchastkalari sotildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21-apreldagi “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni xalqaro bozorlarda xususiylashtirish to‘g‘risida”gi PQ-145-son qarorigi asosan 12 ta yirik korxonalarni xalqaro va mahalliy fond bozorlarida aksiyalarining birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifini o‘tkazish belgilandi.

2025-2026-yillarda davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni xususiylashtirish borasida 29 ta yirik korxona xalqaro bozorda ommaviy savdolarga chiqarilishi belgilandi. Xususan, “Universal Mobile Systems” MCHJ, “O‘zbekinvest EISK” AJ, “O‘zagrosug‘urta” AJ, “UzAuto Motors” AJ, “UzAuto Motors Powertrain” AJ, “O‘zmetkombinat” AJ, “Navoiyazot” AJ hamda 10 ta issiqlik elektr stansiyalarining aksiyalar paketlari ommaviy savdolarga chiqarilishi rejalashtirildi.

Xalqaro kredit reytingga ega davlat ishtirokidagi korxonalar

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining kredit reytingi davlatning nisbatan past darajadagi davlat qarzi, yuqori iqtisodiy o‘sish sur’ati va iqtisodiyotni liberallashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida “FITCH” va “S&P” kredit agentliklari tomonidan (barqaror) kutilmali “BB-”, “Moody‘s” kredit agentligi tomonidan esa (barqaror) kutilmali “Ba3” reyting darajasida baholangan.

26-jadval. Xalqaro kredit reytingiga ega davlat ishtirokidagi korxonalar, *2025-yil 1-aprel holatiga*

	“Fitch”	**“S&P”**	**“Moody’s”**
O‘zbekiston Respublikasi	**BB- (Barqaror)**	**BB- (Barqaror)**	**Ba3 (Barqaror)**
Davlat korxonalari			
“Navoiy KMK” AJ	BB-(Barqaror)	BB-(Barqaror)	
“Olmaliq KMK” AJ	BB- (Barqaror)	B+ (Barqaror)	-
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	BB- (Barqaror)	-	-
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	BB- (Barqaror)	-	-
“O‘zbekgidroenergo” AJ	BB- (Barqaror)	-	-
“UzAuto Motors” AJ	BB- (Barqaror)	B+ (Ijobiy)	-
“Uzmetkombinat” AJ	B+ (Barqaror)	-	-
“O‘zbekneftgaz” AJ	BB- (Barqaror)	B+ (Barqaror)	-
“O‘zkimyosanoat” AJ	BB- (Salbiy)	-	
“Navoiuran” DK		BB-(Barqaror)	

Davlat ishtirokidagi 26 ta korxonaning 10 tasi ushbu xalqaro kredit reyting tashkilotlari tomonidan baholangan. 2025-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, ularning aksariyati (barqaror) “BB-” uzoq muddatli kredit reyting natijasiga ko‘ra, toifalandi.

Xususan, FITCH kredit reytingi agentligining joriy yil fevraldagi xulosasiga ko‘ra, “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJning uzoq muddatli standart kredit reytingi “BB-” dan “B+” ko‘rsatkichga, mustaqil kredit profili esa “b+”dan “b” ko‘rsatkichga pasaydi.

Bu salbiy o‘zgarish korxonaning hajmini ikki baravar oshirishi mumkin bo‘lgan transformatsion temir-beton loyihasining tugallanishidagi kechikishlar va loyiha faoliyati natijasida pasayishi mumkin bo‘lgan yuqori leveraj ko‘rsatkichi hamda past likvidlik darajasi oqibatida sodir bo‘ldi.

Jumladan, FITCH kredit reyting tashkiloti tomonidan korxonaning leveraj darajasi 2025-yilga kelib 5,5 nisbatda taxmin qilingan (salbiy baholash sezgirligi maksimal normasi 3,5 nisbat). Biroq, qurilishdagi yangi loyiha ishga tushirilgandan so‘ng, jamiyatning leveraj ko‘rsatkichi 2026-yilga borib 3,4 nisbatga hamda 2027-yilda undan ham past nisbatga tushishi prognoz qilinmoqda.

2024-yil oktabrdagi FITCH kredit reytingi agentligining xulosasiga ko‘ra, “O‘zkimyosanoat” AJning kredit reytingi “BB-”reyting bilan baholandi va (barqaror) dan (salbiy) kutilmaga o‘zgardi. Bu natija korxonaning “Navoiyazot” AJdagi 50,59 foiz ulushini Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o‘tkazilganidan kelib chiqdi.

Jamiyatning mustaqil kredit profili ko‘rsatkichi esa “b” dan “b-” reyting natijasiga tushdi. Bunga sabab, jamiyatning yuqori leveraj ko‘rsatkichga ega ekanligi (2026-yilgacha 5 nisbatdan yuqori), o‘g‘itlar sektoridagi zaif bozor sharoitlari, yuqori kapital xarajatlar va korporativ boshqaruvning yomonlashuvi tufayli jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shunga qaramay, 2025-yildan boshlab korxonaning EBITDAsi sezilarli darajada o‘sishi (40 foiz) ortidan uning leveraj ko‘rsatkichi 1,1 nisbatga pastlashi hamda mustaqil kredit profili ko‘rsatkichi yaxshilanishi prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, FITCH kredit reytingi agentligining 2024-yil oktabrdagi xulosasiga ko‘ra, “Navoiy KMK” AJning mustaqil kredit profili “bb” reytingidan “bb+”ga o‘sdi.

Bu ko‘rsatkich kompaniyaning davlat kafolatisiz moliyaviy holatini mustahkam deb baholaganini bildiradi. Bunday ijobiy o‘zgarishga kompaniya o‘zining qarz to‘lash muddatini uzaytirgani, moliyalashtirish manbalari diversifikatsiya qilinganligi, jahon bo‘yicha to‘rtinchi yirik oltin ishlab chiqaruvchiga aylangani, ishlab chiqarish xarajatlari past, foyda marjalari yuqori va moliyaviy leveraj juda past darajada saqlangani sabab bo‘ldi.

Jamiyatning uzoq muddatli kredit reytingi (barqaror) “BB-” natijada o‘zgarishsiz qoldi.

Xalqaro kredit reyting agentliklari tomonidan e’lon qilingan eng so‘nggi hisobotlarga ko‘ra, qolgan korxonalarning kredit reyting natijalari va kutilmalari o‘zgarishsiz qoldi.

Davlat banklarining moliyaviy holati va transformatsiya jarayonlari

O‘zbekiston Respublikasida bank sektori faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi.

So‘nggi yillarda bir qator davlat banklarini xususiylashtirish, ularning korporativ boshqaruvini takomillashtirish, moliyaviy hisobdorlikni oshirish va samaradorligini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan Strategiyaga ko‘ra, XMI ko‘magida “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Asaka” AJ, “Aloqabank” AT va “Turonbank” ATBdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, bunda birinchi bosqichda ularni institutsional o‘zgartirishni (faoliyatini transformatsiya qilish), ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalari paketini sotish nazarda tutilgan.

27-jadval. Davlat ulushiga ega banklar ro‘yxati

Bank nomi	Xususiylashtirishning yakuniy bosqichi
O‘zsanoatqurilishbank	2025-2026 yy.
Asakabank	2026-2027 yy.
Aloqabank	2026-2027 yy.
Turonbank	2026-2027 yy.
O‘zmilliybank	Davlat ulushi saqlab qolinadi
Agrobank	Davlat ulushi saqlab qolinadi
Mikrokreditbank	Davlat ulushi saqlab qolinadi
Xalq banki	Davlat ulushi saqlab qolinadi
Biznesni rivojlantirish banki	Davlat ulushi saqlab qolinadi

Shuningdek, bank tizimini isloh qilish davrida aholining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish, investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmini keng joriy qilish, bank xizmatlarining hududiy qamrovini ta’minlash maqsadida “Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ, “Agrobank” ATB, “Xalq banki” AT, “Mikrokreditbank” va “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ustav kapitallaridagi davlat ulushini saqlab qolish maqsad qilingan.

Davlat banklarining moliyaviy barqarorligi tahlili

Iqtisodiy muhitdagi o‘zgarishlar va bank sektoridagi islohotlar jarayonida, davlat banklarining aktivlari tuzilishi, majburiyatlari dinamikasi va ular o‘rtasidagi muvozanat davlat banklarining barqarorligi va ishonchliligini belgilab beruvchi asosiy mezon sifatida qaraladi.

Davlat nazoratida bo‘lgan banklarning kapitali yil davomida 7 trln so‘mga ortgan va 70,2 trln so‘mga teng bo‘lgan. Ushbu banklarning kapitallari yig‘indisi umumiy bank tizimi jami kapitalining 61 foizini tashkil qiladi.

37-diagramma. Asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar, *trln so‘m*



2024-yil yakunlari bo‘yicha davlat banklarining aktivlari sezilarli darajada oshdi. Xususan, yil yakunlari bo‘yicha davlat banklarining aktivlari hajmi 503 187 mlrd so‘mga yetib, 2023-yilga nisbatan 14 foizga ko‘paydi. Shu bilan birga, davlat banklarining majburiyatlari hajmi bank aktivlari o‘sish sur’atiga nisbatan yuqoriroq bo‘ldi. 2023-yil yakunlari bo‘yicha jami majburiyatlari 378 483 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil yakuniga kelib ushbu ko‘rsatkich 433 012 mlrd so‘mga yetdi va 14,4 foizlik o‘sishni ko‘rsatdi.

Davlat banklaridagi depozit bazasi 154,5 trln so‘mga yetib, 2023-yilga nisbatan o‘sish 30,2 trln so‘mni yoki 24,3 foizni tashkil qildi. Mazkur banklar orasida depozit hajmining eng yuqori o‘sishi “O‘zsanoatqurilishbank” (+6,9 trln so‘m) va “Xalq banki”da (+6,7 trln so‘m) kuzatilgan.

2024-yil yakuni bo‘yicha davlat ulushi mavjud banklarning kredit portfeli 366,7 trln so‘mga yetdi. Bu ko‘rsatkich umumiy bank tizimi kredit portfelining 68,8 foizini tashkil etmoqda. Yil davomida ushbu banklarning kredit portfeli 33,5 trln so‘mga yoki 10 foizga o‘sdi.

Kredit portfeli o‘sish sur’ati bo‘yicha “Aloqabank” yetakchi bo‘lib, yillik 25,8 foizlik o‘sishni qayd etdi. Absolyut miqdorda esa “O‘zmilliybank” 8,6 trln so‘mga ko‘paytirilgan kredit portfeli bilan bozorda yetakchilik qildi. Bankning jami kredit portfeli 108 trln so‘mdan oshdi. Shu bilan birga, davlat banklari orasida “Asakabank”ning kredit portfelida kamayish kuzatildi (496 mlrd so‘mga qisqardi).

Davlat ulushi mavjud banklar jamlangan holda hisoblanganda 2024-yilni 317,2 mlrd so‘mlik zarar bilan yakunlagan bo‘lib, buning asosiy sababi – “Mikrokreditbank” (-1,7 trln so‘m) va “Biznesni rivojlantirish banki” (-2,2 trln so‘m) tomonidan katta miqdorda kreditlar bo‘yicha yo‘qotishlarga qarshi zaxiralar yaratilishi bo‘lgan.

38-diagramma. Davlat banklarining 2024-yil yakuni bilan sof foydasi (mlrd so‘m) va uning o‘rtacha kapitalga nisbati (ROE)



39-diagramma. Davlat banklarining sof foydasi (mlrd so‘m) va uning o‘rtacha aktivlarga nisbati (ROA)



So‘nggi yillarda davlat ulushi mavjud banklarning muammoli kreditlari dinamikasi kredit portfeli sifatining yaxshilanish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Muammoli kreditlar hajmi 2023-2024-yillarda qisman o‘sgani kuzatildi. Shu bilan birga, ularning umumiy kredit portfelidagi ulushi muntazam kamayib borib, 2023-yildagi 4 foizdan 2024-yilda 3,9 foizga tushdi.

40-diagramma. Davlat banklari muammoli kreditlari hajmi, *mlrd so‘m*



2024-yil yakunlari bo‘yicha davlat banklarining muammoli kreditlari miqdori 1,08 trln so‘mga ko‘payganiga qaramasdan, ularning umumiy portfeldagi ulushi pasaygan. Bu kredit portfelining umumiy hajmining 2023-yilga nisbatan yuqoriroq sur’atda (10 foiz) o‘sishi bilan bog‘liq.

Bugungi kunda barcha davlat ishtirokidagi banklar xalqaro kredit reytingiga ega bo‘lib, “Fitch Ratings” xalqaro reyting agentligi tomonidan deyarli barcha davlat banklarining xorijiy va milliy valyutadagi uzoq muddatli emitentning defolt reytinglari “Barqaror” kutilma bilan “BB-“ darajasida baholangan.

Xususan, “Aloqabank” ATB ham 2024-yilning iyul oyida mazkur reyting agentligi tomonidan reyting ko‘rsatkichiga ega bo‘ldi. 2024-yilda “S&P Global Ratings” “Xalq banki” ATB uchun kutilmasini salbiydan ijobiyga o‘zgartirib, uzoq va qisqa muddatli emitent kredit reytinglarini “B” darajasida tasdiqladi.

Bunday o‘zgarish Hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlash natijasida bank kapitalizatsiyasining barqarorlashuvi bo‘yicha kutilmalar hamda 2023-yil yakunlari bo‘yicha ijobiy moliyaviy natijalarga erishganligi bilan bog‘liq.

Shuningdek, davlat banklarida korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirib borilmoqda, xususan, davlat banklari kuzatuv kengashi a’zolari tarkibida mustaqil a’zolarning ulushi 40 foizga yetkazildi va 3 ta bankda (“Asaka bank” ATB, “Sanoatqurilishbank” ATB, “Xalq banki” ATB) kuzatuv kengashi raislari mustaqil a’zolardan saylandi.

28-jadval. Xalqaro kredit reytingiga ega davlat ishtirokidagi banklar

№	Bank nomi	**"Fitch Ratings"** kredit reyting bahosi va kutilmasi	**"S&P"** kredit reyting bahosi va kutilmasi	**"Moody's"** kredit reyting bahosi va kutilmasi
		2023-yil		
1.	"Agrobank" ATB	BB- (Barqaror)	-	Ba3 (Barqaror)
2.	"Aloqabank" ATB	-	-	B1 (Barqaror)
3.	"Asaka bank" ATB	BB- (Barqaror)	BB- (Barqaror)	Ba3 (Barqaror)
4.	"Biznesni rivojlantirish banki" ATB	BB- (Barqaror)	-	B1 (Salbiy)
5.	"Mikrokreditbank" ATB	BB- (Barqaror)	-	Ba3 (Barqaror)
6.	"Milliybank" ATB	BB- (Barqaror)	BB- (Barqaror)	Ba3 (Barqaror)
7.	"Sanoatqurilishbank" ATB	BB- (Barqaror)	BB- (Barqaror)	-
8.	"Turonbank" ATB	WD*	B (Barqaror)	-
9.	"Xalq banki" ATB	BB- (Barqaror)	B (Kuzatuvda)	-
		2024-yil		
1.	"Agrobank" ATB	BB- (Barqaror)	-	Ba3 (Barqaror)
2.	"Aloqabank" ATB	BB- (Barqaror)[16]	-	B1 (Barqaror)
3.	"Asaka bank" ATB	BB- (Barqaror)	BB- (Barqaror)	Ba3 (Barqaror)
4.	"Biznesni rivojlantirish banki" ATB	BB- (Barqaror)	-	B1 (Salbiy)
5.	"Mikrokreditbank" ATB	BB- (Barqaror)	-	Ba3 (Barqaror)
6.	"Milliybank" ATB	BB- (Barqaror)	BB- (Barqaror)	Ba3 (Barqaror)
7.	"Sanoatqurilishbank" ATB	BB- (Barqaror)	BB- (Barqaror)	-
8.	"Turonbank" ATB	-	B (Barqaror)	-
9.	"Xalq banki" ATB	BB- (Barqaror)	B (Ijobiy)[17]	-

[16] https://www.fitchratings.com/research/banks/fitch-rates-jsc-aloqabank-bb-outlook-stable-08-07-2024
[17] https://disclosure.spglobal.com/ratings/en/regulatory/article/-/view/type/HTML/id/3222299

6.3. DXSH loyihalarining tahlili

DXSH tizimining rivojlanishi

2023-yil yakuniga ko‘ra, mamlakatimizda DXSH tamoyillari asosida jami 978 ta loyiha doirasida bitimlar imzolangan bo‘lsa, 2024-yil yakuniga kelib ularning soni 1 134 tani hamda qiymati 365,1 trln so‘mni tashkil etdi *(2024-yil yakuni bo‘yicha qiymati 1 mln AQSH dollargacha bo‘lgan loyihalar 891 tani, qiymati 1 mln AQSH dollardan ortiq bo‘lgan loyihalar soni 243 tani tashkil etgan)*.

29-jadval. DXSH tamoyilidagi imzolangan loyihalar soni

	2023	2024	O‘zgarish (foizda)
Qiymati **1 mln AQSH dollarigacha** bo‘lgan loyihalar soni	796	891	+11,9
Qiymati **1 mln AQSH dollaridan ortiq** bo‘lgan loyihalar soni	182	243	+33,5

DXSH tamoyilida amalga oshirilayotgan 365,1 trln so‘m miqdoridagi loyihalar portfelining 93,1 foizi energetika sohasiga (339,8 trln so‘m) to‘g‘ri kelsa, kommunal xizmatlar 4,6 foizni (16,9 trln so‘m), boshqa sohalarning har biri esa 1 foizdan kamroq ulushga ega.

30-jadval. DXSH loyihalarining sohalar kesimidagi tahlili

	Loyihalar soni	**Qiymati,** *mlrd so‘m*	**Ulushi,** *foizda*
Jami	**1 134**	**365 079**	**100**
Energetika	68	339 848	93,1
Ekologiya	67	1 262	0,3
Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini modernizatsiya qilish	175	1 184	0,3
Kommunal	1	16 856	4,6
Sog‘liqni saqlash	57	640	0,2
Suv xo‘jaligi	514	401	0,1
Ta’lim	144	2 887	0,8
Transport	2	1 017	0,3
Boshqalar	106	986	0,3

Amalga oshirilgan tahlillar DXSH tamoyilidagi loyihalar sohalar kesimida turlicha taqsimlanganini ko‘rsatadi. DXSH loyihalari soni bo‘yicha eng yuqori ulush suv xo‘jaligiga tegishli bo‘lib, bu sohada 514 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash doirasida 175 ta loyiha isitish tizimlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan.

Shuningdek, ta’lim sohasida 144 ta, energetikada 68 ta, ekologiya yo‘nalishida esa 67 ta loyiha amalga oshirilayotgani qayd etilgan. Bundan tashqari, soliq, madaniyat, agrosanoat, qurilish, huquqni muhofaza qilish, sport, hunarmandchilik va bandlik kabi sohalarda jami 106 ta DXSH loyihalari ro‘yxatga olingan. Bu esa DXSH modelining faqat yirik infratuzilma obyektlariga emas, balki turli ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga ham faol tatbiq etilayotganidan dalolat beradi.

Respublika hududlarida amalga oshirilayotgan DXSH loyihalari

Respublika hududlarida amalga oshirilayotgan DXSH loyihalari tahlil qilinganda eng ko‘p DXSH loyihalari aholi zich joylashgan hududlarda amalga oshirilmoqda. Farg‘ona, Andijon va Samarqand viloyatlari yetakchi hududlar sifatida ajralib turib, Farg‘ona viloyatida 141 ta, Andijon viloyatida 130 ta, Samarqand viloyatida 121 ta loyiha amalga oshirilayotgani DXSH mexanizmidan foydalanish darajasining yuqoriligini ko‘rsatadi. Bu viloyatlarda aholi zichligi yuqori bo‘lib, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarga talab katta.

41-diagramma. Hududlarda amalga oshirilayotgan DXSH tamoyilidagi loyihalarning sohalar kesimidagi tahlili, *soni bo‘yicha*



Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida loyihalar soni 86-90 ta oralig‘ida bo‘lsa, Toshkent shahrida 65 ta, Toshkent viloyatida 60 ta DXSH tamoyilidagi loyihalar mavjud. Jizzax va Navoiy viloyatlarida DXSH loyihalari son jihatidan nisbatan kamroq bo‘lib, Jizzaxda 36 ta, Navoiyda esa 33 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy soha obyektlarini modernizatsiya qilishda asosiy e’tibor isitish tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, suv xo‘jaligi va ta’lim sohalariga qaratilmoqda. Hududlar kesimida suv xo‘jaligi sohasida eng ko‘p loyihalar Sirdaryo (32,7 mlrd so‘mlik 80 ta), Samarqand (61,8 mlrd so‘mlik 61 ta), Andijon (27,2 mlrd so‘mlik 58 ta) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (25,5 mlrd so‘mlik 49 ta)da amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha eng ko‘p loyihalar Farg‘ona (328 mlrd so‘mlik 36 ta), Andijon (310,7 mlrd so‘mlik 30 ta), Surxondaryo (62,1 mlrd so‘mlik 30 ta) va Namangan (129,5 mlrd so‘mlik 20 ta) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu hududlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy sohaga oid DXSH loyihalarining umumiy qiymati 830 mlrd so‘mni tashkil etmoqda.

DXSH asosida amalga oshirilayotgan loyihalarning qiymati hududlar kesimida sezilarli darajada farq qiladi. Eng yirik investitsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi (135,6 trln so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelib, bu hududda energetika (135,3 trln so‘m) va ta’lim (219 mlrd so‘m) sohasidagi loyihalar qiymati boshqa sohalarga qaraganda yuqoriroq. Keyingi o‘rinlarda Buxoro (50,3 trln so‘m), Samarqand (31,7 trln so‘m), Navoiy (24 trln so‘m) va Sirdaryo (21,1 trln so‘m) viloyatlari joylashgan bo‘lib, ularda ham yirik strategik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Farg‘ona (2,8 trln so‘m) va Xorazm (2,2 trln so‘m) viloyatlarida loyihalar soni yuqori bo‘lsada, ularning umumiy qiymati nisbatan kamroqni tashkil etadi. Bu holat ushbu hududlarda asosan kichik va o‘rta miqyosdagi loyihalar ustunligini ko‘rsatadi.

42-diagramma. Energetika sohasida amalga oshirilayotgan DXSH loyihalarining hududlar kesimidagi tahlili *(trln so‘m)*



Loyihalarning asosiy qismi energetika sohasiga yo‘naltirilgani bois, mazkur sektordagi holat alohida tahlil qilindi.

Xususan, DXSH asosida amalga oshirilayotgan energetika loyihalarining katta qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hissasiga to‘g‘ri kelib, bu yerda 135,3 trln so‘mlik 14 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Loyiha qiymati bo‘yicha keyingi o‘rinlarda Buxoro (50,1 trln so‘m), Samarqand (29,9 trln so‘m), Navoiy (23,7 trln so‘m) va Sirdaryo viloyatlari (20,9 trln so‘m) joylashgan.

Bu esa mazkur hududlarda energetika infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyaviy faollik yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Davlatning DXSH loyihalari doirasidagi fiskal majburiyatlari

Amalga oshirilayotgan DXSH loyihalarining fiskal jihatdan maqbulligini baholash, xususan, DXSH loyihalari bilan bog‘liq davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va shartli majburiyatlarining summasi, amalga oshirilgan va kutilayotgan to‘lovlar bo‘yicha ma’lumotlarni aks ettirib borish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-oktabrdagi “Davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 558-sonli qaroriga muvofiq amalga oshirilib kelinmoqda.

2024-yil yakuniga ko‘ra, ishga tushgan umumiy qiymati 22,9 trln so‘mlik 816 ta budjetdan jami 4,9 trln so‘m miqdorida to‘lovlar amalga oshirilib, konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlariga[18] nisbatan 1,1 foizni tashkil etgan. Bunda eng ko‘p ta’lim va kommunal sohadagi loyihalar uchun mablag‘lar ajratilgan bo‘lib, xususiy sheriklar tomonidan qurilish, operatsion va boshqa xarajatlarni qoplash uchun berilgan.

31-jadval. 2024-yilda davlat budjetidan DXSH loyihalari doirasida amalga oshirilgan to‘lovlar, *trln so‘m*

	Amalga oshirilgan to‘lovlar	Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatiga nisbati (foiz)
Jami	**4,9**	**1,1**
Kommunal	3,5	0,8
Ijtimoiy soha obyektlarini isitish tizimlarini modernizatsiya qilish	0,6	0,1
Sog‘liqni saqlash	0,1	0,02
Ta’lim	0,4	0,9
Suv xo‘jaligi	0,4	0,1

Bundan tashqari, 2024-yil yakuni bo‘yicha maktabgacha ta’lim sohasida DXSH tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan 31 604 ta loyiha doirasida davlat budjetidan 3,4 trln so‘m ajratilgan. Shunday qilib, umumiy hisobda 2024-yilda DXSH tamoyilidagi loyihalar doirasida jami 8,3 trln so‘m mablag‘ ajratilib, konsolidatsiyalashgan budjet xarajatiga nisbati 1,9 foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan DXSH loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan majburiyatlar bo‘yicha hisob-kitoblar amalga oshirildi. DXSH loyihalaridan kelib chiqadigan davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiyatlari asosan loyihalarni amalga oshirish uchun infratuzilmani yaratish, binolar va inshootlarni qurish, saqlash bo‘yicha ajratiladigan mablag‘lardan iborat.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2025-yil uchun barcha loyihalar bo‘yicha budjetdan ajratiladigan jami to‘lovlar 9,3 trln so‘mga baholanmoqda. Bunda, budjetdan amalga oshiriladigan to‘lovlarning asosiy qismi kommunal sohasiga (3,9 trln so‘m) va maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ajratiladigan mablag‘lar (3,8 trln so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu majburiyatlar yildan yilga oshib, o‘rtacha yillik o‘sish 12,2 foizni tashkil etadi.

[18] https://www.imv.uz/static/konsolidatsiyalashgan-budjet-balansi-2024

32-jadval. 2025-2027-yillarda DXSH loyihalari doirasida davlat budjetidan amalga oshiriladigan to‘lovlar bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari, *trln so‘m*

	Loyiha soni	Qiymati	Prognoz		
			2025	2026	2027
Jami	**1 066**	**25,2**	**9,3**	**10,2**	**11,7**
Kommunal	1	16,9	3,9	3,9	4,1
Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlari	175	1,2	0,8	0,8	0,9
Sog‘liqni saqlash	57	0,6	0,1	0,1	0,2
Suv xo‘jaligi	514	0,4	0,5	0,5	0,5
Ta’lim*	144	2,9	4	4,9	6
Transport	2	1	-		
Soliq	2	0,2	-		
Boshqalar	171	2	-		

*Izoh: *–Mazkur jadvalda maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan loyihalar uchun faqat budjet to‘lovlari inobatga olingan (loyihalar soni va qiymati aks ettirilmagan)*

33-jadval. DXSH loyihalari doirasida davlat ishtirokidagi korxonalarning to‘lovlari bo‘yicha ma’lumot, *trln so‘m*

	Loyiha soni	Qiymati	Fakt	Prognoz		
			2024	2025	2026	2027
Energetika	68	339,8	5,4	11,2	19,5	27,6

Energetika sohasida 2024-yil yakuniga qadar jami 76,5 trln so‘mlik DXSH tamoyilidagi 24 ta loyiha ishga tushgan bo‘lib, mazkur loyihalar doirasida davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilgan to‘lovlar 5,4 trln so‘mni tashkil etgan. Baholashlarga ko‘ra, o‘rta muddatli davrda amalga oshirilayotgan DXSH tamoyilidagi loyihalar doirasidagi davlat ishtirokidagi korxonalarning to‘lov majburiyatlari 2025-yilda 11,2 trln so‘mni, 2026-yilda 19,5 trln so‘mni va 2027-yilda esa 27,6 trln so‘mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Majburiyatlarning oshishi yangi elektr stansiyalarining ishga tushishi bilan bog‘liq.

43-diagramma. DXSH loyihalari bo‘yicha to‘lovlarning YIMga nisbati



Yuqorida qayd etilganidek, 2025-2026-yillarda budjet to‘lovlari hamda davlat ishtirokidagi korxonalar to‘lovlari yildan yilga ortib borishi kutilmoqda. Bunda, energetika sohasidagi loyihalar uchun davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar boshqa sohalarga qaraganda sezilarli darajada yuqoriroq. Umuman olganda, 2025-yil uchun budjet va davlat ishtirokidagi korxonalar to‘lovlarining YIMga nisbatan ulushi 1,2 foiz bo‘lishi prognoz qilinmoqda. 2026–2027-yillarda esa ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 1,5 foiz va 1,8 foizgacha oshishi prognoz qilinmoqda.

34-jadval. Muddatidan oldin bekor bo‘lgan DXSH loyihalari to‘g‘risida ma’lumot, *01.01.2025-yil holatiga*

	Bekor bo‘lgan bitimlar soni	Qiymati (mlrd so‘m)	Kompensatsiya to‘lovi
Jami	**98**	**414,6**	**0**
Ta’lim	6	79,9	0
Suv xo‘jaligi	33	36,5	0
Madaniyat	2	10	0
Kommunal	2	14	0
Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini modernizatsiya qilish	46	270,5	0
Hunarmandchilik	8	3,6	0
Qishloq xo‘jaligi	1	0,1	0

Muddatidan oldin bekor qilingan DXSH shartnomalari bo‘yicha 2025-yil 1-yanvar holatiga o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, imzolangan shartnomalar doirasida xususiy sherikning tashabbusi bilan qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini modernizatsiya qilish, suv xo‘jaligi, kommunal, madaniyat va ta’lim sohalarida jami 98 ta shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan va bitim shartlariga muvofiq davlat tomonidan xususiy sherikka kompensatsiya to‘lovlari to‘lab berilmagan.

Davlat tomonidan majburiyatlar qabul qilinishi va davlat tomonidan tasdiqlovchi xatlar berilishini cheklash, davlatning shartli majburiyatlari miqdorining oshib ketmasligini nazorat qilish maqsadida XVJ tavsiyalari asosida DXSH tamoyillari asosida imzolanadigan barcha yangi loyihalar qiymatining cheklangan miqdori belgilandi.

DXSH loyihalari doirasidagi fiskal majburiyatlarning makroiqtisodiy o‘zgarishlarga nisbatan sezuvchanligi tahlili

DXSH loyihalaridan yuzaga keladigan fiskal majburiyatlar ehtimoliy moliyaviy-iqtisodiy xatarlarga sezuvchan bo‘lib, asosan valyuta kursining o‘zgarishi, inflatsiya sur’atining kutilgan prognozlardan chetlashuvi va boshqa makroiqtisodiy omillar ta’sirida Davlat budjeti hamda davlat ishtirokidagi korxonalar oldida qo‘shimcha majburiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bunday xatarlar reallashgan taqdirda, davlat tomonidan kafolatlangan yoki bitimlar orqali zimmasiga olingan to‘lov majburiyatlari oshishi mumkin. Masalan, milliy valyuta kursining qadrsizlanishi davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan xorijiy valyutada denominatsiyalangan tariflar bo‘yicha milliy valyutada amalga oshiriladigan to‘lovlarning ortishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, inflatsiya darajasi kutilmalardan yuqori bo‘lganda loyiha xarajatlari oshib, davlat budjetidan qoplanadigan qismi (masalan, ekspluatatsion xarajatlarni qoplash uchun ajratilayotgan subsidiyalar) ham ortishi mumkin.

Shunga ko‘ra, DXSH loyihalari doirasidagi davlat budjeti va davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlarga inflatsiya darajasidagi o‘zgarishlar va valyuta kursidagi tebranishlarning ta’siri tahlil qilindi. Jumladan, DXSH loyihalari bo‘yicha davlat budjetidan amalga oshiriladigan to‘lovlarning 2025-yil va kelgusi 2026-2027-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlariga inflatsiya sur’atining 2 xil ssenariydagi o‘zgarishlarini ta’sir ettirish orqali, inflatsion o‘zgarishlarning budjet to‘lovlariga ta’siri baholandi.

44-diagramma. Inflatsiya darajasidagi o‘zgarishlarning DXSH loyihalari bo‘yicha davlat budjetidan ajratiladigan to‘lovlar hajmiga ta’siri, *trln so‘m*



2025–2027-yillarda DXSH loyihalari bo‘yicha to‘lov majburiyatlari inflatsiya darajasiga sezuvchan bo‘lib, inflatsiya prognozlarga nisbatan 1 va 2 foizga oshgan holatlarda mos ravishda fiskal majburiyatlar ham bazaviy ssenariyga nisbatan yuqoriroq darajada shakllanmoqda. Masalan, 2027-yilda bazaviy ssenariy bo‘yicha budjet to‘lovlari 11,7 trln so‘mni tashkil etadigan bo‘lsa, 2-ssenariyda 12 trln so‘mgacha oshishi mumkin.

Shu bilan birga, 2025–2027-yillarda DXSH loyihalaridan kelib chiqadigan to‘lov majburiyatlarining davlat budjeti daromadlari prognoziga nisbati ham ushbu inflatsiya ssenariylari asosida baholandi. Bazaviy ssenariyda ushbu nisbat 2,77 foizdan 2,79 foizgacha oshishi kutilmoqda. Inflatsiyaning prognozlardan chetlashuvini nazarda tutuvchi ssenariylarda esa ushbu nisbat ortishi kuzatilmoqda. Masalan, 2027-yilda 2-ssenariy bo‘yicha bu ko‘rsatkich 2,84 foizga yetishi prognoz qilinmoqda.

45-diagramma. DXSH loyihalari bo‘yicha Davlat budjetidan ajratiladigan to‘lovlarning Davlat budjeti daromadlariga nisbati, *foizda*



Bazaviy ssenariyda fiskal majburiyatlar YIMga nisbatan barqaror darajada saqlanib, 2025-yilda 0,54 foiz, 2026-yilda 0,52 foiz va 2027-yilda 0,53 foizni tashkil etmoqda. Birinchi ssenariy bo‘yicha davlat budjetidan ajratiladigan to‘lovlarning YIMga nisbatan ulushi biroz ortib, 2025-yilda 0,55 foiz, keyingi yillarda esa 0,53 foiz atrofida saqlanishini ko‘rsatmoqda. 2-ssenariyda esa to‘lov majburiyatlari 2027-yilda YIMga nisbatan 0,54 foizgacha o‘sishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

46-diagramma. DXSH loyihalari bo‘yicha Davlat budjetidan ajratiladigan to‘lovlarning YIMga nisbati, *foizda*



DXSH loyihalari portfelining asosiy qismini energetika loyihalari tashkil etishi nuqtayi nazaridan, ushbu sohada amalga oshirilayotgan DXSH tamoyilidagi loyihalarda davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlarning 2025 - 2027-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham yuqoridagi yondashuv asosidagi sezuvchanlik tahlillari amalga oshirildi.

Sezuvchanlik tahlili valyuta kursining bazaviy ssenariysi va alternativ ssenariylar bo‘yicha 3 foiz (1-ssenariy) hamda 9 foizga (2-ssenariy) milliy valyuta kursining prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan chetlashishiga asoslangan.

Milliy valyuta kursining qadrsizlanishi DXSH asosidagi energetika loyihalari bo‘yicha davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar hajmini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, 2027-yilda milliy valyuta kursining prognoz ko‘rsatkichlaridan 9 foizga chetlashganda, davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilishi kutilayotgan to‘lovlar 30,8 trln so‘mga yetishi mumkin (bazaviy ssenariyga nisbatan 2,5 trln so‘mga ko‘p).

47-diagramma. Milliy valyuta kursining AQSH dollariga nisbatan qadrsizlanishining davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan DXSH loyihalari bo‘yicha amalga oshiriladigan to‘lovlar hajmiga ta’siri, *trln so‘m*



48-diagramma. Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan DXSH loyihalari bo‘yicha amalga oshiriladigan to‘lovlar YIMga nisbati, *foizda*



DXSH tamoyilidagi energetika loyihalari bo‘yicha to‘lovlarning YIMga nisbati bazaviy ssenariy bo‘yicha 2025-yilda 0,65 foizni tashkil etishi va 2027-yilga kelib, 1,24 foizga yetishi prognoz qilinmoqda. Alternativ ssenariylar esa 2027-yilda DXSH loyihalari bo‘yicha to‘lovlar YIMga nisbati 1,35 foizgacha (2-ssenariy) oshishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

VII. Davlat moliyasi tizimini isloh qilish rejalari

Davlat moliyasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish hamda natijadorlikka asoslangan budjet tizimini joriy etish ishlarini jadallashtirish, shuningdek, sohadagi islohotlarni tizimlashtirgan holda davom ettirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori bilan “2025–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi” tasdiqlandi.

Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi:

1) Budjet intizomini ta’minlash mexanizmlarini kuchaytirish;

– makroiqtisodiy prognozlar sifatini muntazam baholab borish asosida prognozlash modellari va vositalari takomillashtiriladi;

– fiskal xatarlar muntazam ravishda baholanib, natijalari chop qilinib boriladi;

– davlat qarzini boshqarish bo‘yicha o‘rta-muddatli strategiya chop etilib, har yili yangilanib boriladi hamda fiskal strategiya bilan birga tasdiqlanadi;

– budjetlararo transfertlar miqdorlarini aniqlash tartibi va ularni ajratish hamda mahalliy budjetlar balansliligini ta’minlash mexanizmlari takomillashtiriladi.

2) O‘rta muddatli budjetlashtirishda strategik ustuvorlikni ta’minlash;

– o‘rta muddatli budjet strategik rejalashtirish tamoyili asosida ishlab chiqilishi hamda milliy va sohalar strategiyasi bilan soliq-budjet siyosatining ustuvor yo‘nalishlari o‘zaro muvofiq bo‘lishiga erishiladi;

– yil davomida budjetga kiritiladigan o‘zgartirishlarni samarali boshqarishga erishiladi.

3) Davlat xarajatlari va investitsiyalarining samaradorligi va natijadorligini oshirish;

– barcha vazirlik va idoralar budjet dasturlarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lib, budjet mablag‘larining natijadorligi oshiriladi;

– investitsion loyihalar taklifi ishlab chiqilganda, ularning saqlash va ekspluatatsiya xarajatlari yagona uslubiyot asosida baholanib, tegishli tartibda o‘rta muddatli budjet loyihasida inobatga olinishi ta’minlanadi.

4) Budjetning samarali ijrosini ta’minlash;

– soliq va bojxona ma’murchiligi yaxshilanishi orqali yashirin iqtisodiyotning ulushi qisqarishiga erishiladi. Shuningdek, budjet daromadlarining mamlakatimiz iqtisodiy o‘sish suratlari bilan mos ravishda ko‘payishi ta’minlanadi;

– kelgusi yil konsolidatsiyalashgan budjet uchun pul oqimlari prognozlarining choraklik, kelgusi chorakning oyma-oy va kelgusi oyning haftalik taqsimotlarini tuzish amaliyoti joriy qilinadi;

– asosiy budjet hisobotlari Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimida avtomatik tarzda shakllanilishi ta’minlanadi;

– davlat organlari va tashkilotlarida xatarlarni boshqarishga yo‘naltirilgan samarali ichki nazorat tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Ichki nazorat va ichki auditning huquqiy asoslari takomillashtiriladi, ichki audit xizmatlari xodimlarining salohiyatini oshirgan holda, yangi audit turlari joriy etiladi;

– davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida budjet mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha samaradorlik oshiriladi.

5) Fiskal axborot sifati va hisobdorlikni yanada oshirish.

– davlat sektorida budjet hisobining xalqaro standartlari asosida ishlab chiqilgan milliy budjet hisobi standartlari amaliyotga joriy qilinadi;

– budjet hujjatlaridagi tahliliy ma’lumotlar xalqaro ilg‘or tajribalarga muvofiq kengaytiriladi;

– davlat budjeti ijrosi jarayonida unga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar tartibga solinib, ularning miqdorini kamaytirish ko‘zda tutilgan.

7.1. Fiskal qoidalarni takomillashtirish

Davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash, fiskal intizomni mustahkamlash va davlatning moliyaviy majburiyatlarini samarali boshqarish maqsadida xalqaro ekspertlar tavsiyalariga muvofiq budjet qonunchiligida davlat qarzi va budjet taqchilligini chegaralash bo‘yicha qoidalar kiritilgan.

Jumladan, 2020-yildan davlat nomidan va uning kafolati ostida jalb qilinadigan tashqi qarzning **yillik cheklangan hajmi**, 2021-yildan jami davlat qarzining yuqori chegarasi va konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligining cheklangan miqdori bo‘yicha qoidalar joriy etildi.

“Davlat qarzi to‘g‘risida”gi Qonun bilan davlat qarzining eng yuqori chegarasi YIMga nisbatan 60 foiz etib belgilandi. Shu bilan birga, davlat qarzi miqdori YIMga nisbatan 50 foizga yetganda Hukumat tomonidan qarzning begilangan limitdan oshmasligini ta’minlovchi tegishli chora-tadbirlarni Parlamentga kiritish tartibi belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida 2025-yildan boshlab konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik belgilandi.

Budjet qonunchiligiga kiritilgan ushbu qoidalarning huquqiy asoslarini kuchaytirish va ularni yanada takomillashtirish, shuningdek, xalqaro ekspertlar tavsiyalaridan kelib chiqib, **Budjet kodeksiga fiskal qoidalarning ishlashini kuchaytirish va uning budjet jarayonidagi rolini oshirish bo‘yicha normalar** kiritiladi.

Bunda Hukumat va Parlamentning favqulodda vaziyatlarda (*pandemiya, tashqi iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarning hamda ichki xavf-xatarlarning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta’sirini yengillashtirish va boshqalar*) ushbu qoidalarni vaqtinchalik to‘xtatib turish va qoidalarga qaytish bo‘yicha vakolatlari aniq belgilanadi.

Xalqaro tajribada fiskal intizomni mustahkamlash va davlat moliyasini samarali boshqarishning muhim vositasi sifatida fiskal qoidalarni konstitutsiyaviy yoki qonun darajasida mustahkamlash keng qo‘llaniladi.

Xususan, Rossiya Federatsiyasining Budjet kodeksida budjet taqchilligi va davlat qarzining yuqori miqdorini cheklash bo‘yicha norma kiritilgan. Shuningdek, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Chili va Shveysariya davlatlarida fiskal ko‘rsatkichlarning cheklangan darajasi qonunchilikda qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, Davlat budjeti tasdiqlangan parametrlariga joriy yil davomida qo‘shimcha xarajatlarning kelib chiqishini tartibga solish bo‘yicha xalqaro tajribalar o‘rganiladi.

7.2. O‘rta muddatli budjetni shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish

Budjet jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida 2025-yildan budjet tashkilotlarining va budjet mablag‘lari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalari yanvar oyi uchun tuzildi hamda 2026-yildan boshlab doimiy xarajatlar smetalari asosida xarajatlarni moliyalashtirishga o‘tish belgilandi.

Shundan kelib chiqib hamda Fiskal strategiya loyihasini va strategik ustuvor yo‘nalishlarni muhokama qilish jarayonini kengaytirish maqsadida budjet taqvimini qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, iqtisodiy parametrlar bilan bog‘liq kutilma va prognozlarni jamlashning ertaroq muddatlarini belgilash bo‘yicha xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda ishlar olib boriladi.

O‘rta muddatli budjetni shakllantirish tartib-qoidalarini kuchaytirish maqsadida budjet mablag‘larini taqsimlovchilar tomonidan bazaviy va soha siyosatiga bog‘liq o‘zgarishlar asosidagi xarajatlarni baholash va shakllantirish uslubiyoti ishlab chiqiladi.

Shuningdek, budjet so‘rovlarini va moliya yili davomida taqdim etiladigan barcha yangi loyihalarni (normativ-huquqiy hujjat loyihalari) moliyaviy baholash, shuningdek, ularning milliy strategik maqsadlar hamda tegishli vazirlik va idoralarning (sohalar) mavjud strategiyalari bilan o‘zaro muvofiqligini o‘rganish tartibini belgilovchi uslubiy qo‘llanma ishlab chiqiladi.

Har yili tasdiqlanadigan Fiskal strategiyada belgilanadigan budjetdan ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari doirasida budjet so‘rovlarini ishlab chiqish, shuningdek, ushbu cheklangan miqdorlarga o‘zgartirishlar kiritish shartlari aniq belgilab beriladi.

Vazirlik va idoralar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining budjet so‘rovlarini va o‘rta muddatli budjetni tayyorlash bo‘yicha salohiyati oshiriladi.

7.3. Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish amaliyotiga o‘tish

“O‘zbekiston – 2030” va 2025 – 2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyalarida budjet mablag‘lari samaradorligini oshirish uchun natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish amaliyotiga o‘tish ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Dasturiy budjetlashtirish tizimiga o‘tishning dastlabki bosqichida vazirlik va idoralarning budjet mablag‘laridan foydalanishi bilan bog‘liq maqsadli indikatorlari tasdiqlanib, ularning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar Oliy Majlis palatalarida muhokama qilinib kelinmoqda.

Budjetni shakllantirishda natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish tizimining qamrovi bosqichma-bosqich kengaytirilib, 2030-yilga qadar to‘liq dasturiy budjetlashtirish tizimiga o‘tish maqsad qilingan.

Dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishning bir qator ijobiy taraflari mavjud bo‘lib, jumladan:

Davlatning uzoq muddatli strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishish uchun sarf etiladigan Davlat budjeti mablag‘larining ulushini aniqlash;

budjet hujjatlarini qabul qilayotganda natijadorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlardan tizimli foydalanish;

budjet mablag‘lari hisobiga erishilgan natijalarni o‘lchash va baholashning mavjudligi;

resurslarni boshqarishning umumiy yondashuvi va samarali monitoring tizimlarining mavjudligi;

Davlat tomonidan islohotlarni rejalashtirishda, ajratilgan budjet mablag‘lardan oqilona foydalanish va budjet dasturlari bilan qamrab olishni ko‘zda tutilganligi;

budjet mablag‘lari hisobidan erishilgan natijalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aholiga va Parlamentga taqdim qilish orqali vazirlik va idoralar rahbarlarining budjet jarayonidagi hisobdorligining mavjudligi va boshqa ijobiy natijalarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-455-son qarorida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025 – 2027-yillar uchun budjet va budjetdan tashqari mablag‘lari sinov tariqasida budjet dasturlari kesimida tasdiqlandi.

2026–2028-yillarda dasturiy budjetlashtirish tizimi bo‘yicha amalga oshiriladigan istiqboldagi rejalar:

– har yilgi Davlat budjeti loyihasini shakllantirishda ayrim vazirlik va idoralarning budjet va budjetdan tashqari mablag‘larini o‘rta muddatli davr uchun **budjet dasturlari** kesimida ishlab chiqish;

– birinchi darajali budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning 2026–2028-yillar uchun budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq **maqsadli indikatorlarini tasdiqlash**;

– vazirlik va idoralarning mas’ul mutaxassislari uchun muntazam ravishda budjet dasturlarini ishlab chiqish va ijrosini monitoring qilish bo‘yicha o‘quv seminarlarini tashkil qilish orqali ularning **institutsional salohiyatni oshirib borish**;

– xalqaro konsultantlar bilan birgalikda vazirlik va idoralarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, monitoring qilish va hisobotini shakllantirish bo‘yicha **metodologik hujjat ishlab chiqish**;

– vazirlik va idoralarning budjet dasturlarini shakllantirish, tasdiqlash, ro‘yxatga olish va ularning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni **raqamlashtirish** hamda **jamoatchilikka ochiqligini ta’minlash tizimini ishga tushirish**;

– vazirlik va idoralarning budjet dasturlarida belgilangan vazifa va maqsadlariga erishganligini baholash bo‘yicha reyting tizimini joriy etish;

– sinov tariqasida 2 ta tuman (shahar) misolida **mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning** budjet dasturlarini ishlab chiqish;

– O‘zbekiston Respublikasi **Budjet kodeksiga** vazirlik va idoralarning **budjet dasturi** tushunchalarini aks ettirish.

Mazkur strategiyada Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining **2026–2028-yillar** uchun budjet dasturlarining dastlabki ro‘yxati va ularga talab etiladigan mablag‘lar miqdori 20-jadvalga muvofiq ko‘zda tutildi.

Vazirlik va idoralarning budjet va budjetdan tashqari xarajatlarini budjet dasturlari kesimida tasdiqlash natijasida:

– har bir budjet dasturida maqsadli indikatorlar belgilanadi hamda ushbu indikatorlar vazirlik va idoralarning **strategiya va konsepsiyalarida** belgilangan ustuvor maqsadlarga talab etiladigan resurslardan samarali va oqilona foydalanilishiga erishiladi;

– budjet dasturlarini moliyalashtirish manbasi etib **Davlat budjeti, budjetdan tashqari jamg‘armalar, Davlat maqsadli jamg‘armalari** va **grant mablag‘lari** belgilanadi hamda ushbu mablag‘lar hisobiga erishiladigan natijalar baholanadi;

– maqsadli indikatorlarning ijrosi ichki audit xizmatlari tomonidan **baholanadi** hamda vazirlik va idoralarning faoliyatidagi **ijobiy** va **salbiy natijalari aniqlanadi**;

– Davlat budjetidan ajratilgan **mablag‘larning samaradorligi** va **natijadorligi yuzasidan** vazirlik va idoralarning **Parlament oldidagi hisobdorligi oshiriladi**;

– budjet loyihasini tuzishda va uni qabul qilishda budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning **moliyaviy mustaqilligi oshiriladi**;

– vazirlik va idoralarning budjet xarajatlari to‘liq budjet dasturlari bilan qamrab olinadi hamda ularning moliya yili davrida budjet xarajatlarining barqarorligi ta’minlanadi.

7.4. “Davlat moliyasi statistikasi-2014” xalqaro standartiga o‘tish

O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlari hisobotlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, jumladan, XVJning Davlat moliyasi statistikasi qo‘llanmasi (DMSQ-2014) talablariga uyg‘unlashtirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan:

budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma (ro‘yxat raqami 2146, 2010-yil 11-oktabr) qayta ko‘rib chiqildi va takomillashtirildi;

XVJ axborot tizimlarida taqdim etilib kelinadigan fiskal statistika hisobotlari ko‘lami kengaytirilib, unda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari ijrosi va davlat dasturlariga ajratilgan tashqi qarz mablag‘lari aks ettirildi;

XVJ texnik ko‘magida davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan korxonalar tahlil qilinib, bozor sharoitida faoliyat olib bormayotgan korxonalarni davlat boshqaruvi sektoriga qo‘shish bo‘yicha dastlabki ro‘yxat shakllantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qaroriga muvofiq XVJ axborot tizimlarida mamlakatning asosiy makroiqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarini aks ettirishni ta’minlash maqsadida joriy yilning dekabr oyiga qadar XVJning Ma’lumotlarni tarqatishning maxsus tizimi (MTMT)ga o‘tish vazifasi belgilangan.

Mazkur tizimga o‘tish uchun mas’ul tashkilotlar, jumladan, Milliy statistika qo‘mitasi, Markaziy bank hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi statistika ma’lumotlarini XVJning tegishli qo‘llanmalariga muvofiqlashtirilgan holda oylik va choraklik hisobotlarni XVJga taqdim etib borishi lozim.

Bunda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat moliyasi statistikasi va Davlat sektori qarzi statistikasini ishlab chiqish, XVJga taqdim etish va takomillashtirish uchun mas’ul hisoblanadi.

Shunga asosan, JB mablag‘lari hisobidan budjet ma’lumotlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish orqali XVJ DMSQ-2014 metama’lumotlarini shakllantirishga to‘liq o‘tishni amalga oshirish maqsadida **“Davlat moliyasi statistikasini takomillashtirish”** loyihasi ikki bosqichda amalga oshirilmoqda. Jumladan:

1-bosqich (2024-yil iyun – 2025-yil fevral):

Xalqaro konsultant tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshirildi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda tegishli vazirlik va idoralar mutaxassislariga Davlat moliyasi statistikasi talablari bo‘yicha trening va seminarlar o‘tkazildi;

amaldagi budjet tasnifini qayta ko‘rib chiqib, Davlat moliyasi statistikasi talablari bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi;

vazirlik xodimlariga Davlat moliyasi statistikasi ma’lumotlarini ishlab chiqish yuzasidan texnik ko‘mak ko‘rsatildi;

Davlat moliyasi statistikasi sohasini takomillashtirish maqsadida yo‘l xaritasi ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar taqdim etildi.

2-bosqich (reja) (2025-yil iyun – 2026-yil iyun):

XVJning MTMTga o‘tish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish rejalashtirishmoqda:

davlat sektori qamrovini oshirish va Davlat moliyasi statistikasi ma’lumotlarini kengaytirish maqsadida Davlat ulushi mavjud korxonalarni sektorlash orqali ularni Davlat moliyasi statistikasi ma’lumotlari bilan qamrab olish;

davlat sektorining barcha moliyaviy aktivlari va majburiyatlarini qamrab oluvchi moliyaviy balansni tuzish va XVJning hisobotlarida aks ettirish;

XVJning Davlat moliyasi statistikasi yo‘riqnomasi talablariga muvofiq Davlat sektori balansini shakllantirish:

– Davlat moliyasi statistikasi hisobotlarini shakllantirishni avtomatlashtirish bo‘yicha ishlarni yakunlash;

– Davlat moliyasi statistikasi hisobotlarini ishlab chiqishni nazarda tutuvchi texnik yo‘riqnomani ishlab chiqishi kutilmoqda.

Ushbu vazifalarni amalga oshirilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyat uchun yagona fiskal statistika hisobotlarini ko‘rish, foydalanish va boshqa mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini taqqoslash imkoniyatiga erishiladi.

7.5. Budjet ochiqligini ta’minlash va budjetni shakllantirishda fuqarolar ishtirokini yanada oshirish

Fuqarolarni budjet jarayoniga jalb etish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar natijalari:

Mamlakatimizda “Tashabbusli budjet” – davlat va jamiyat o‘rtasidagi yangi formatdagi muloqot, odamlarning o‘z kuchini anglash va tajribasini amaliyotga aylantirish jarayoni sifatida shakllandi.

“Tashabbusli budjet” orqali mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, ta’lim muassasalarini rivojlantirish, ichimlik suvi ta’minoti va yo‘llarni ta’mirlash kabi muhim masalalar hal etilmoqda. Shuningdek, budjet mablag‘larining shaffofligi va samarali taqsimlanishi ta’minlanib, korrupsiya holatlarining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Ushbu islohotlar natijasida fuqarolarning davlat boshqaruviga bo‘lgan ishonchi oshdi, budjet mablag‘larining samarali taqsimlanishi ta’minlandi va jamoatchilik nazorati kuchaydi.

“Tashabbusli budjet” jarayoni fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishdagi faol ishtirokini rag‘batlantirib, mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikni mustahkamlashga yordam bermoqda.

Xorijiy ekspertlarning fikriga ko‘ra, bugungi kunga kelib O‘zbekiston partisipator budjetlashtirish yoki tashabbusli budjet amaliyoti bo‘yicha O‘rta Osiyo mamlakatlari ichida yetakchi mamlakat sifatida baholanmoqda.

Bu ajratilayotgan mablag‘lar hajmining yuqoriligi hamda ushbu jarayonlarda ishtirok etayotgan aholi ko‘lamining boshqa davlatlarda kuzatilgan ko‘rsatkichlarga nisbatan sezilarli darajada ko‘pligi ekanligi bilan izohlanmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimizda 2021-2024-yillar davomida “Tashabbusli budjet” uchun Davlat budjetidan 14 trln so‘m mablag‘lar yo‘naltirildi. Mazkur mablag‘lar doirasida mahallalarda o‘n olti mingdan ortiq loyihalar amalga oshirildi.

Ovoz berish bosqichida so‘nggi 2-3 mavsum natijalariga ko‘ra, o‘rtacha 10 mln fuqaroning yoki mamlakat aholisining 30-35 foiz qismining ishtiroki qayd etilmoqda.

Bu esa amaliyotning yurtimizda yanada rivoj topishi uchun jarayonni muntazam ravishda takomillashtirib borish lozimligini, fuqarolar uchun yanada qulaylik yaratish maqsadida bugungi axborot texnologiyalar asrida jarayonga sun’iy intellekt kabi raqamli texnologiyalarni joriy etishga ehtiyoj yuzaga kelmoqda.

Budjet ochiqligini ta’minlash bo‘yicha keyingi davrlarda amalga oshiriladigan islohotlar:

“Tashabbusli budjet” kelgusida yanada samarali va shaffof mexanizmga aylanishi uchun bir qator islohotlar rejalashtirilmoqda. Bundan asosiy maqsad fuqarolarning ishtirokini oshirish, resurslardan adolatli foydalanishni ta’minlash va “Ochiq budjet” portalini yanada qulay platformaga aylantirishdan iborat. Xususan:

birinchidan, loyihalarni sifatli amalga oshirish bo‘yicha choralar ko‘riladi. Bunda, sifat standartlari belgilanib, monitoring jarayoni avtomatlashtiriladi, buyurtmachi tashkilotlarning mas’uliyati oshiriladi, jamoatchilik nazorati yangi darajaga olib chiqiladi. Bularning barchasi mablag‘lardan samarali foydalanishni hamda loyiha natijalarining barqarorligini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, “Ochiq budjet” portali takomillashtiriladi. Ovoz berish jarayoni yanada soddalashtiriladi, fuqarolar loyihalarning amalga oshirilishini real vaqt rejimida kuzatishlari va fikr-mulohazalarini qoldirishlari mumkin bo‘ladi.

Uchinchidan, mablag‘lar taqsimotida adolatlilik yanada kuchaytiriladi. Bunda, mablag‘ ajratilishida kichik mahallalar va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qiyin ahvoldagi hududlarga alohida e’tibor qaratiladi, aholining faolligidan kelib chiqib mablag‘larni taqsimlash mexanizmi ishlab chiqiladi.

To‘rtinchidan, raqamlashtirish orqali loyihalarni avtomatik shakllantirish tizimi joriy qilinadi. Fuqarolar o‘z tashabbuslarini tayyor formatda taqdim etishlari uchun namunaviy loyihalar bazasi ishlab chiqiladi.

Bu islohotlar “Tashabbusli budjet” jarayonini yanada samarali va inklyuziv mexanizmga aylantirishga yordam beradi, natijada fuqarolarning jarayonga nisbatan ishonchi ortib, ular ishtirokining yanada kengayishiga erishiladi.

7.6. Budjet xarajatlarini BRMMga uyg‘unlashtirish

BRMning budjet jarayoniga joriy etilishi, strategik rejalashtirish, qarorlar qabul qilish hamda boshqaruv tizimlarini yaxshilash uchun ko‘proq ma’lumot tayyorlashga imkon beradi.

Xarajatlarni BRMM asosida tasniflash nafaqat Hukumat, balki investorlar o‘rtasida BRMMga erishish uchun resurslar va budjet ustuvorliklarining dolzarbligi to‘g‘risida xabardorlikni oshirishga imkon beradi. Bu manfaatdor tomonlarning BRMMni moliyalashtirishga qiziqishini oshiradi, yangi moliyalashtirish mexanizmlari va vositalarini yaratishga hissa qo‘shadi. Xususan, BRMMlarga qaratilgan obligatsiyalar chiqarish, donorlar uchun Davlat budjetiga jozibador investitsiyalar kiritishga imkon beradi.

Bugungi kunda BMTTD bilan hamkorlikda Davlat budjeti xarajatlarining BRMMga muvofiqligi asosida tasniflash bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ishlab chiqilmoqda. Unga ko‘ra, xarajatlarni BRMM asosida tasniflash 2 bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda:

– birinchi bosqich – yaqin istiqbolda, budjet tizimi budjetlarining vazifalar jihatidan tasnifining kichik bo‘limi darajasidagi har bir budjet qatorini BRMMga hissasi bo‘yicha baholab chiqish;

– ikkinchi bosqich – uzoq istiqbolda, jumladan, dasturiy budjetlashtirish davlat moliyasini boshqarish tizimiga bosqichma-bosqich joriy etilishi jarayonida amalga oshirilib, budjet dasturlarini tahlil qilish hamda BRMM maqsad va vazifalari bilan bog‘lash orqali amalga oshiriladi.

Xarajatlarni BRMM asosida tasniflash birinchi bosqichda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan, ikkinchi bosqichda esa tarmoq vazirlik va idoralari tomonidan budjet dasturlarini shakllantirish vaqtida amalga oshiriladi. Xarajatlarni BRMM asosida tasniflashning birinchi bosqichida budjet satrlari BRMMga qo‘shgan hissasi bo‘yicha baholansa, ikkinchi bosqichda budjet dasturlari BRMMning vazifa va ko‘rsatkichlariga hissasi bo‘yicha baholanadi.

Xarajatlarning BRMM bo‘yicha tahlili mazkur strategiyaning 4.2.5-kichik bo‘limida keltirilgan.

7.7. “Yashil budjet” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish

Iqlim o‘zgarishi ta’sirini yumshatish va uning oqibatlariga moslashtirish bo‘yicha baholash hamda atrof-muhit masalalari bilan bog‘liq boshqa ta’sirlarni inobatga olish maqsadida 2024-yildan boshlab Davlat budjeti xarajatlari “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflanmoqda.

Xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflashda, birinchi navbatda, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitga ijobiy yoki salbiy ta’sirga ega tadbirlar quyidagi **3 ta guruhga** (atrof-muhit maqsadlari) ajratiladi hamda ushbu guruhlarning har biri “ijobiy” va “salbiy” ta’siri bo‘yicha tahlil qilinadi:

1) Iqlim o‘zgarishi **ta’sirini yumshatish** tadbirlari;

2) Iqlim o‘zgarishi **oqibatlariga moslashish** tadbirlari;

3) **Atrof-muhit masalalari bilan** bog‘liq boshqa ta’sirlar.

Xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda har bir budjet satri yuqorida keltirilgan 3 ta atrof-muhit maqsadlariga ta’sir ko‘rsatishi nuqtayi nazaridan baholansa, ikkinchi bosqichda baholangan har bir budjet satri quyidagi 4 ta toifalar bo‘yicha guruhlanadi:

“A” toifa – atrof-muhit maqsadlarining kamida bittasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan va salbiy ta’sirga ega bo‘lmagan xarajatlar;

“B” toifa – atrof-muhit maqsadlariga ijobiy va salbiy ta’sirlarning kombinatsiyasiga ega bo‘lgan xarajatlar;

“C” toifa – atrof-muhit maqsadlaridan kamida bittasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan va ijobiy ta’sirga ega bo‘lmagan xarajatlar;

“D” toifa – atrof-muhit maqsadlarining barchasiga neytral ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlar.

Mazkur sohadagi islohotlarning davomi sifatida Davlat budjeti xarajatlarining 2026-yilgi loyihasi “yashil” budjetlashtirish bo‘yicha tasniflanadi hamda yashil tasniflash jarayonini “DMBAT-2”da avtomatlashgan holda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Xalqaro tashkilotlar ekspertlari bilan hamkorlikda dasturiy budjetlashtirish tizimi joriy etiladigan vazirlik va idoralarda “yashil” budjetlashtirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar ishlab chiqilmoqda.

BMTTD bilan hamkorlikda “O‘zbekistonda yashil budjetlashtirishni joriy etish konsepsiyasi” ishlab chiqilmoqda.

Bunda 2030-yilgacha milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda “yashil” budjetlashtirishga yondashuvni shakllantirish uchun amalga oshiriladigan islohotlar nazarda tutiladi. Shuningdek, qisqa muddatli (2025-2026-yillar), o‘rta muddatli (2027-2028-yillar) va uzoq muddatli (2029-2030-yillar) istiqbolda 6 yo‘nalishda “yashil” budjetlashtirish sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan islohotlar “yo‘l xaritasi” belgilanmoqda.

7.8. Genderga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni bosqichma-bosqich joriy etish

O‘zbekistonda gender tengligi maqsadlarini barcha sohalarga uyg‘unlashtirish, shu qatorda davlat moliyasini boshqarish tizimiga ham bosqichma-bosqich joriy etish ishlari boshlangan.

2024-yilda “BMT-Ayollar” tuzilmasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlik memorandumi imzolanib, Davlat budjeti xarajatlarini yashil budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash hamda genderga yo‘naltirilgan budjetlashtirish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqildi.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada Genderga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni O‘zbekistonda joriy etishning konseptual asoslari belgilangan bo‘lib, O‘zbekistonda genderga yo‘naltirilgan budjetlashtirish quyidagi 2 bosqichda joriy etilishi rejalashtirilgan:

– amaldagi budjet tizimiga joriy etish;

– dasturiy budjetlashtirishda joriy etish.

Genderga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni amaldagi budjet tizimiga joriy etish bo‘yicha Davlat budjeti mablag‘larining erkaklar va xotin-qizlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini alohida tahlil qilish maqsadida joriy yildan boshlab UzASBO-2 dasturiy majmuasida budjet tashkilotlarining genderga aloqador ko‘rsatkichlarini shakllantirish imkoniyatini yaratish ishlari boshlangan.

Bu, o‘z navbatida, Davlat budjeti mablag‘larining erkaklar va xotin-qizlarga ta’siri bo‘yicha tahlil o‘tkazish hamda budjet sohasidagi gender tengsizliklarni aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, har chorak yakunlari bilan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadlariga yo‘naltirilgan Davlat budjeti mablag‘lari to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga kiritilib borilmoqda.

Genderga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni dasturiy budjetlashtirishga joriy etish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda dasturiy budjetlashtirish tizimi joriy etiladigan vazirlik va idoralarda gender tengligiga doir maqsadli ko‘rsatkichlar ishlab chiqilmoqda.

35-jadval. Xotin-qizlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadlari uchun ajratilgan mablag‘lar

	2025-yil 1 chorak ijro		2025-yillik kutilayotgan ijrosi (mlrd so‘m)
	Xotin-qizlar soni (ming kishi)	**Moliyalashtirilgan mablag‘lar** (mlrd so‘m)	
Jami	**2 274,6**	**16 971,2**	**74 391,5**
Budjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari uchun	1 357	15 239,1	65 239,5
Budjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarning homiladorlik nafaqasi uchun	37,5	352,8	1 000
Xususiy sektorda ishlovchi ayollarning homiladorlik nafaqasi to‘lovlari uchun	2,8	7,2	40
Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasidan ishsiz va ish qidirayotgan xotin-qizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun	30,4	55	267,7
Ipoteka kreditlari bo‘yicha xotin-qizlarga to‘lab berilgan boshlang‘ich badal to‘lovlari uchun	2,8	84,9	212,1
Bola tug‘ilganda to‘lanadigan bir martalik to‘lov (suyunchi puli) uchun	46,7	37,9	275
Kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam to‘lovlari uchun (oilalar)	797,4	1 194,3	7 357,2

O‘zbekistonda genderga yo‘naltirilgan budjetlashtirishning joriy etilishi natijasida Davlat budjeti mablag‘larining erkaklar va xotin-qizlar uchun adolatli taqsimlanishiga hamda davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni oshirishga erishiladi.

Mazkur sohadagi islohotlarni kelgusi yillarda ham davom ettirish va amaldagi uslubiy qo‘llanmalarni takomillashtirib borish rejalashtirilgan.

7.9. Davlat sektorida ichki nazorat va ichki audit xizmatini takomillashtirish

Erishilgan natijalar

Davlat organlari hamda tashkilotlarida ichki nazorat va ichki audit tizimini joriy etish orqali budjet tizimi budjetlari xarajatlarining samaradorligi oshishi, budjet qonunchiligi buzilishi profilaktikasining kuchayishi, shuningdek, masofaviy auditning kengayishi natijasida 2024-yilda PEFA (Davlat moliyasini boshqarishni Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlik mezonlari asosida baholash) mezonlari bo‘yicha baholashda “ichki audit” komponenti B+ (yaxshi) darajasida baholandi.

Bugungi kunga qadar ichki audit xizmatlari faoliyatiga oid 10 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlar bilan ichki audit milliy standartlari, ichki audit xizmatlarining vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, hisobdorligi, ularning faoliyatini baholash hamda ichki auditorlarni sertifikatlash, malakasini oshirish va samaradorligini baholash tartiblari belgilandi.

Shuningdek, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar bilan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida ichki audit xizmatlari tashkil etilishi belgilandi.

Birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlarini ichki audit xizmatlari tomonidan baholash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Davlat organlari va tashkilotlarida samarali ichki nazorat va xavflarni boshqarish tizimlarini joriy etish maqsadida “2025 – 2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasi” va uni amalga oshirish “Yo‘l xaritasi” loyihasi hamda Moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tartibi to‘g‘risida nizom va Xavflarni boshqarish qo‘mitasi to‘g‘risida namunaviy nizom loyihalari ishlab chiqildi. Mazkur loyihalar belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlashni tashkil etish va ularning malakasini oshirish tizimi yo‘lga qo‘yilishi natijasida bugungi kunga qadar 800 ga yaqin talabgor malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirib, ichki audit milliy sertifikatiga ega bo‘ldi.

Bundan tashqari, 2024-yilda xavf tahlili asosida 15 ta vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari tanlab olinib, ularda ichki audit faoliyatini sohaga oid qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash hamda faoliyatni takomillashtirib borish maqsadida baholash amalga oshirildi.

Baholash davomida vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlari faoliyatini tashkil etish, tegishli ichki hujjatlarni qabul qilish, ichki audit tadbirlarini xavf tahlili asosida o‘tkazish bo‘yicha uslubiy hamda amaliy yordam ko‘rsatildi. Shuningdek, baholash natijalari yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga yarim yillik va yillik hisobotlar taqdim etildi.

Davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit faoliyati bilan jamoatchilikni tanishtirib borish, tegishli ma’lumotlarni ochiqlash maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida maxsus “Davlat ichki auditi” bo‘limi ochildi. Unda ichki audit faoliyatiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, qo‘llanmalar, ichki audit malaka sertifikati reyestri, ichki audit faoliyatini baholash hamda xalqaro hamkorlikka oid ma’lumotlar joylashtirilib borilmoqda.

Shu bilan birga, davlat sektorida ichki nazorat va ichki audit tizimini rivojlantirish bo‘yicha **2026 – 2028-yillarda quyidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda**:

– davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit sohasiga oid munosabatlarni tartibga solish, amaldagi normativ-huquqiy normalarni mustahkamlash, birlashtirish va tizimlashtirish maqsadida Davlat ichki nazorati va ichki audit to‘g‘risidagi qonun loyihasini ishlab chiqish;

– davlat organlari va tashkilotlarida ichki nazoratni tashkil etishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilovchi “Ichki nazoratni tashkil etish qo‘llanmasi” loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

– amaldagi ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash va malakasini oshirish tizimini xalqaro standartlar asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish;

– ichki audit faoliyati yo‘lga qo‘yilmagan davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit faoliyatini autsorsing asosida amalga oshirish tartibini belgilash;

– ichki audit faoliyatini raqamlashtirish, faoliyatga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish maqsadida “Ichki audit xizmati faoliyatini raqamlashtirish konsepsiyasi” va uni amalga oshirish “Yo‘l xaritasi” loyihasini ishlab chiqish;

– davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun mohiyatini ichki audit xizmatlari xodimlariga yetkazish maqsadida, xalqaro va milliy darajadagi seminarlar, davra suhbatlari hamda treninglar tashkil etish.

Asosiy tushunchalar

BRM (Barqaror rivojlanish maqsadlari) – Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan kambag‘allik, tengsizlik, sog‘liq va atrof-muhit bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish hamda farovonlikni ta’minlashga qaratilgan choralar.

Birlamchi diler – investitsiya vositachisi sifatida qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat yuritish huquqini olgan va O‘zbekiston Respublika valyuta birjasi a’zosi hisoblangan tijorat banki yoki boshqa yuridik shaxs.

Davlat budjetining birlamchi taqchilligi/profitsiti – muayyan davr uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti xarajatlaridan davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha foiz to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda hisoblanadigan Davlat budjeti taqchilligi/profitsiti.

Davlat kafolati – qarz oluvchi-rezident qarz shartnomasi shartlarini bajarmagan taqdirda yuzaga keladigan, O‘zbekiston Respublikasining qarz beruvchi oldidagi qarzni to‘liq yoki qisman to‘lab berish majburiyati.

Davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish – aktivlarni jalb etish bo‘lib, ular bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlarini (qarzlarini) to‘lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi.

Ichki nazorat – xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning qonuniyligini, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini, aktivlarning but saqlanishini ta’minlash, talon-toroj qilish hollari va xatolarning oldini olish hamda aniqlash maqsadida tashkil etilgan chora-tadbirlar tizimi.

Dasturiy budjetlashtirish – istiqbolli davlat dasturlarini hisobga olgan holda, strategik maqsadlar asosida ishlab chiqiladigan dasturlarni amalga oshirish natijalari bilan davlat xarajatlarini taqsimlash jarayonining bog‘liqligini ta’minlovchi budjetni shakllantirish, ijro etish va ijrosini nazorat qilish metodologiyasi.

Fiskal siyosat – davlatning soliq solish va budjet xarajatlari sohasidagi iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida olib boradigan siyosati.

Fiskal qoidalar – davlat moliyasi holatini, ya’ni davlat qarzi, taqchilligi, davlat xarajatlari va daromadlarini tavsiflovchi miqdoriy maqsadli mo‘ljallar va fiskal indikatorlar orqali ifodalanadigan soliq-budjet siyosatining uzoq muddatli cheklovlari.

Natijaga yo‘naltirilgan budjet – moliyalashtirish tuzilmasi va hajmlarining budjet mablag‘lari oluvchilarning faoliyati natijalari bilan bog‘liq bo‘lgan budjetni rejalashtirish tizimi.

Ichki audit – vazirlik va idoralarda budjet intizomini mustahkamlash, budjet to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish, budjet tizimi budjetlari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan mustaqil faoliyat.

Yashil budjetlashtirish – budjet xarajatlarini iqlim o‘zgarishlariga qarshi choralarga yo‘naltirishni nazarda tutuvchi budjet jarayoni.

Kraudfanding – insonlar (donorlar)ning jamoa bo‘lib birlashuvi bo‘lib, ular beg‘araz maqsadda o‘z mablag‘lari va turli resurslarini biror bir loyiha yoki maqsadni amalga oshirmoqchi bo‘lgan tashkilot yoxud insonga sarflashlari hisoblanadi.

Konsolidatsiyalashgan budjet – budjet tizimi budjetlarining barcha tushumlarini hamda xarajatlarini hisobga olish va tahlil qilish maqsadida shakllantiriladigan budjet. Konsolidatsiyalashgan budjet tarkibiga Davlat budjeti, DMJ budjetlari, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari va O‘zbekiston Respublikasi TTJ mablag‘lari kiradi.

PIMA (Public investment management assesment) – Davlat investitsiya boshqaruvi samaradorligini baholash tizimi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI

FISKAL STRATEGIYA

2026–2028 YILLAR UCHUN